

687  
C 77

I.S.Soliyev

# **Yengil sanoat jihozlarini ta'mirlash**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

I.S.Soliyev

# Yengil sanoat jihozlarini ta'mirlash

O'quv qo'llanma

"Бухоро вилоят босмахонаси" МЧЖ  
нашиёти – 2020 йил

УЎИ: 67.05-049.32(075)

КБК: 30.8я7

С 77

ISBN 978-9943-6219-1-6

I.Soliev — Yengil sanoat jihozlarini ta'mirlash. O'quv qo'llanma –  
Buxoro: "Buxoro viloyat bosmaxonasi" MChJ, 2020 y. –152-bet.

**Taqrizchilar:** Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Texnologik mashina va jihozlar kafedrasи dot

F.A.Qurbanov

"Maishiy texsoz" MCHJ rahbari

B. Pulatova

Ushbu kitobda tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarish mashinalari, apparatlari hamda yarim avtomatlarning tuzilishlari, ishlash jarayonlari, ta'mirlash va asosiy sozlanishlari bayon etilgan. Kitob oliv ta'lif muassasalarining yengil sanoat sohasida ta'lif olayotgan talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan magistrlar va yengil sanoatning muhandis-texnik xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

В книге описывается конструкций, принцип работы, наладки и основные регулировки машин и аппаратов и полуавтоматов швейного производства.

Книга предназначена для студентов вузов учащихся по направлению легкой промышленности и может быть использована магистрами и инженерно техническими работниками легкой промышленности.

In the book on constructions, principles of work and the main adjustment of machines and apparatus and semi-apparatus of sewing. Methodology of calculation of the main parameters of working bodies of light industry machines.

The book is intended for the students of the higher educational institutions specialized in the light industry and may be used by the masters and engineer technical workers of light industry.

КБК: 30.8я7

ISBN 978-9943-6219-1-6

© "Бўхоро вилоят босмахонаси" МЧЖ нашриёти, 2020 й.

## **1. 1.TIKUV MASHINALARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.**

### **1.1.TIKUV MASHINALARINI ISHLATISH VA TA'MIRLASHDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI QOIDALARI.**

Kiyimlarni ishlab chiqarish jarayonida mashina ishlarida quyidagi xususiyatlarga rioxva qilish kerak:

Mashina choklar silliq, bo'shliqlarsiz va tekis bo'lishi kerak;

Tikuv mashinasi standart o'lcham (1,2 – 0,65 m.) stol ustiga joylashtiriladi. Ish o'mi stolga montaj qilingan mahalliy yoritgich, maxsus o'rindig'i rostlanadigan vintli stul bilan jihozlangan.

Ish bajarishda tikilayotgan detal ishchining ko'zidan 30 – 40 sm. masofada, tirsaklar stol balandligida bo'lishi kerak;

Kiyim qismlarini tikishda igna o'ng tomoniga, asosiy qismlari chap tomoniga joylashtirilladi;

Baxya yirikligi va baxyaqator zichligi gazlama qalin – yupqaligiga va shu baxyaga qo'yilgan talablarga bog'liq bo'ladi;

Qalinligi har xil gazlamadan bichilgan detallarni ularsha yupqa gazlamadan bichilgan detalni ust tomoniga qo'yish kerak;

Detallarni bir-biriga tikishda ipning rangi asosiy detal rangida bo'lishi kerak.


Ignalarning nomeri gazlama qalinligiga va bajariladigan operatsiyaning xarakteriga mos bo'lishi kerak;

Tugmalarni mahkamlash va ilmoqlarni bog'lab qo'yish, parmalash va o'ralgan choklarni tayyorlash uchun paxta iplari bilan bir qatorda mustahkamlangan iplar ishlataladi. 33, 65-sonli tabiiy ipak iplari ba'zi hollarda tikuvlarni tikishda ishlataladi;

Tikuv mashinalari maxsus himoyalash qurilmalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak har bir tikuv mashinasiga ishlayotganda igna tikuvchi qo'liga sanchilmasligi uchun tepki 7 ga (1-rasm) himoyalagich elementi o'matilgan. Mashina tanasidan chiqib turuvchi iptortgich 8 skoba bilan yopib turadi. Elektryuritgichi 14 ni, mufta va tasmali uzatma maxsus to'siqlar bilan chegaralangan bo'lishi kerak. Ish stoli 6 ning balandligi tayanch 5 ga nisbatan sozlanishi mumkin. Tayanch 5 ning ostiga rezinali

elastik element o'rnatilgan bo'lishi kerak. Pedal` 1 ga rezinali qoplama 2 mahkamlangan. Mashina tanasi 12 perimetri bo'ylab elastik elementga o'rnatilishi lozim. Ish stoli bolt 3 yordamida yerga ulangan bo'lishi kerak. Mashina tanasi ko'tarilgan uni saqlab turuvchi tayanch 12 o'rnatilgan 1 -rasm. Tikuv mashinasining ish stoli bilan birgalikdagi ko'rinishi. Tugma qadash yarim avtomatik mashinalarda tikuvchiga singan igna yoki tugmalar tegmasligidan saqlanish uchun maxsus ekran o'matilgan bo'lishi kerak. Tikuv mashinasi quyidagi asosiy qismlardan iborat.

Mashina tanasida asosiy val o'matilgan bo'lib, undan mashinaning barcha mexanizmlariga harakat uzatiladi. Mashina tanasining tayanchida baxya yirikligini o'zgartiruvchi qurilmalar joylashtirilgan. U asosan mashina bosh qismini ushlab turadi. Mashinaning old qismi – 1da igna va ip tortgich (zanjirsimon baxyali tikuv mashinalarda ip uzatgich) mexanizmlari, tepki uzeli ba'zi mashinalarda esa qo'shimcha mexanizm va uzellar o'rnatilgan..



1-rasm. Tikuv mashinasining ish stoli bilan birgalikdagi ko'rinishi

Mashinaning asosiy valiga aylanma harakat maxovik g'ildiragi – 11 orqali elektr yuritgichidan uzatiladi Mashinaning ustiga boshqaruvi pulti – 9 o'matilgan bo'lib,

undan ishchi organlari holati, baxyaqator ko'rinishi va yirikligi avtomatik tarzda o'zgartiriladi.

Yo'mash-tikish mashinalarida chalishtirgichlar shitlar bilan chegaralangan, igna mexanizmi esa kojuxlar bilan yopilgan bo'lishi kerak. Barcha tikuv mashinalarida 9 V dan 36V kuchlanishli yoritgich 9 o'matilishi kerak. Tikuv mashinasida ishlayotganda quyidagi texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kerak. Mashinani ishlatishdan oldin ish o'mini yig'ishtirish, yuritish tasmasining to'siqlari, ignani barmoqlarni teshishdan saqlovchi saqlagichlar, shitlar borligini tekshirish kerak. Ish vaqtida qaychi va iplarni yuritish tasmasi yaqiniga qo'yish yaramaydi. Ish tugagandan keyin hamma asboblarni maxsus qutichalarga solib qo'yish kerak.

Chilangularlik va yig'ish ishlarini bajarish paytida ta'mirlovchi chilangularlar charxlash va parmalash dastgohlarida ishlaydilar, mashina va yarim avtomatlarning elektr jihozlari, turli xil yuk ko'tarish mexanizmlaridan foydalilanadi. Tikuv mashinalarida ta'mirlashishlarini o'tkazish paytida texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha quyidagi talablarni bajarish.

- Foydalanuvchilarda o'z hayoti va atrofdagilar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mas'ullikni oshirish;
- ish jarayonida ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish;
- avariyalar sodir bo'lgan hollarda o'zini tuta olish va atrofdagilarga yordam ko'rsatishni ta'minlash;
- maxsus kiyimni tartibga keltirgan holda to'g'ri kiyish, sochlarni bosh kiyimi ostiga yig'ishtirish;
- mashinani nazoratsiz qoldirmang va ishdan so'ng texnik sozlashdan oldin uni olish; o'chirilganligini yana bir bor tekshiring;
- ish joyidan ortiqcha narsalarni
- maxsus qurilmalar, to'siqlari, moslamalar, asboblar sozligini tekshirish;
- mahalliy yorug'likni yorug'lik ko'zni qamashtirmaydigan qilib va ishchi o'niga yaxshi yorug'lik tushadigan qilib moslashtirish;

- agar ta'mirlash doimiy ish joyiga o'tkaziladigan bo'lsa mashinani energiya manbalaridan o'chirish;
- texnologik karta va texnologik jarayon bilan tanishish;
- mashina lampochkasini almashtirish jarayonda ham elektr tokidan uzing va lampochkani xuddi shunday (12 V, 5vt) quvvatdagisi bilan almashtiring;
- kuchlanish 36V dan, xavfli joylarda esa 12Vdan oshmagan ko'chma elektr yoritgichlardan foydalanish;
- mashinani faqatgina belgilangan maqsadlarda foydalaning va mashinada ishslash yo'riqnomasiga qat'iy e'tibor bering;
- mashinani shikastlangan shunur va kabel orqali elektr tokiga qo'shmang, bu yong'in xavfini tug'dirishini unutmang;
- mashina qismlariga suv va boshqa moddalar tushganida albatta uni tozalash va quritishdan so'ng ishlating;
- mashina ventilyatsiyasi tirqishini berkitib qolishini oldini oling;
- vintilyatsiya tirqishini turli chiqindilar mato bo'laklaridan tozaligini tekshirib turing;
- mashinani ochiq havoda (binodan tashqarida) ishlatmang mashinalar o'rnatil gan xonada aerazol va turli purkagichli vositalardan foydalanmang;

Tikuv mashinalarini ta'mirlashda va shu mashinalarda ishlayotganda quyidagilar man etiladi:

- detallarga vintni osilgan holatda burash;
- mashina ishlab turgan paytda tozalash va moylash;
- ish o'mida elektr lampochkalarini almashtirish;
- ishdan keyin elektryuritgichlarni tokka ulangan holda qoldirish va hokazo.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Tikuv mashinalari ishida sodir bo'ladigan nuqsonlar qanday bartaraf etiladi?
2. Tikuv mashinalarda moslamalar nima uchun qo'llaniladi.
3. Tikuv mashinalarda ishlayotganda va ta'mirlashda qanday texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinadi?
4. Tikuv mashinalarda qanday himoyalash moslama va qurilmalari bor?

5. Tugma qadash yarim avtomatik mashinalarida tikuvchiga singan igna yoki tugmalar tegmasligidan saqlanish uchun qanday qurilma o'matilgan?
6. Yo'rmash-tikish mashinalarida chalishtirgichlar atrofi qanday himoyalangan?

## 1. 2.TIKUV MASHINALARINING TURLARI

Tikuv mashinalarini yaratish va takomillashtirishda tikiladigan materialning fizik -mexanikaviy xossasi va tuzilishi, texnologik jarayonga ta'sir qiluvchi faktorlar e'tiborga olinadi. Tikilayotgan materialning ishqalanish koeffitsienti, cho'zilishligi, zichligi, erish temperaturasi kabi parametrlari – tikuvchilik mashinasi konstruktsiyasiga, baxyaqator hosil bo'lishdagi iplar bog'lanishiga,qo'llaniladigan igna geometriyasiga, mashina tezlik ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Baxyaqator hosil bo'lish jarayonida iplar chalishish xarakteriga qarab tikuv mashinalari ikki guruhga bo'linadi:

- moki baxyali tikuv mashinalari;
- zanjirsimon baxyali tikuv mashinalari.

Moki baxyaqatori kam cho'ziluvchanligi va puxtalik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun, moki baxyasi bilan tikuvchi mashinalari asosan qattiq va mustahkam gazlamalarni tikishda qo'llaniladi.

Zanjirsimon baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinalar cho'ziluvchan trikotaj gazlamalami tikishga va kiyim detallarini vaqtinchalik birlashtirishga mo'ljallangan.

Tikuv mashinalari vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- moki baxyali to'g'ri baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinalar;
- bir ipli zanjirsimon to'g'ri baxyaqator bilan tikuvchi mashinalar;
- ko'p ipli zanjirsimon to'g'ri baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinalar;

- moki baxyali siniq baxyaqator bilan tikuvchi mashinalar;
- gazlama chetlarini yo'rmash mashinalari;
- yashirin baxyali tikuv mashinalari;
- tugma va boshqa furnituralarini qadaydigan;
- puxtalaydigan va kalta choklarni tikadigan;
- halqa yo'rmaydigan va buyumning ayrim detallariga ishlov beradigan yarimavtomatik tikuv mashinalari.

Tezlik ko'rsatkichlari bo'yicha tikuv mashinalari uch guruhga bo'linadi:

- asosiy valning aylanishlar chastotasi 2500 ayl/min.gacha bo'lgan past tezlikli;
- 2500 ayl/min.dan 5000 ayl/min. gacha bo'lgan o'rtacha tezlikli;
- 5000 ayl/min.dan yuqori bo'lgan katta tezlikli.

Ishchiga nisbatan joylashishi bo'yicha tikuv mashinalari o'ng, chap va frontal qulochli bo'ladi. Tikuv mashinasi ishchi qulochi ishlov berilayotgan mahsulotning maksimal o'lchamini aniqlaydi. Ishchi qulochlari bo'yicha tikuv mashinalari quyidagilarga bo'linadi:

- qisqa ishchi qulochli (L-200 mm gacha);
- o'rtacha ishchi qulochli (L-200 mm dan- 260 mm gacha);
- uzun ishchi qulochli (L-260 mm dan yuqori).

Butun bir texnologik jarayon uchun ishlab chiqariladigan tikuvchilik uskunalari korxonaning aniq bo'limiga yarog'liligiga, avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish darajasiga qarab ham guruhlarga ajratish mumkin. Moki va zanjirsimon baxya hosil qilib tikuvchi mashinalar quyidagi asosiy mexanizmlardan tuzilgan:

- igna mexanizmi;
- moki va chalishtirgich mexanizmlari;
- materialni surish mexanizmi;
- ip tortgich (ip uzatgich) mexanizmi;
- tepki uzeli.

Yuqorida ko'rsatilgan asosiy mexanizmlar qatoriga ba'zi tikuv mashinalarida qo'llanilgan taqsimlagich, kengaytirgich kabi mexanizmlar ham kiradi. Qo'shimcha

mexanizmlar mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan guruhlarga mexanizm bo`linadi. Mexanizatsiyalashtirilgan va qurilmalarga quyidagilar kirdi:

- materialni yo`naltirgichlar;
- o`lchash va rölikli surish mexanizmlari;
- igna ostiga to`qilgan tasmalarni uzatuvchi mexanizmlar;
- bo`rttirgichlar, cheklovchi moslamalar;
- gazlama chekkasini qirquvchi mexanizmlar;
- puxtalash mexanizmlari;
- ignani sovutish qurilmasi va hokazo

Bu mexanizmlar tikuv mashinalarining vazifalariga va texnologik talablariga qarab har xil konstruksiyalarga va ish prinsiplariga ega. Avtomatlashtirilgan mexanizm va qurilmalar guruhiga quyidagilar kirdi:

- avtomatik to`xtatish qurilmasi;
- ignaning kerakli holatida avtomatik to`xtatish;
- vertikal pichoq bilan ip va to`rsimon materiallarni qirqish;
- ostki ipni qirqish;
- tepkini avtomatik ko`tarish;
- moylash jarayoni buzilganda va ip uzilganda ma'lumot berish;
- o`ramlardan gazlamani avtomatik bo'shatish;
- mahsulotni hisoblagich va hokazo.

Maxsus va avtomatik elementlardan tuzilgan mashina maxsuslashtirilgan va avtomatlashtirilgan tikuv mashinasi deyiladi. Tikuvchilik ishlab chiqarishlarida markazlashgan va markazlashmagan krivoship-shatunli igna mexanizmlari bilan jihozlangan tikuv mashinalari keng qo'llanilib, ish rejimi jarayonlari yuqori tezliklarda bajariladi va harakatlariga qarab quyidagi turlarga bo`linadi:

- ilgarilanma-qaytarılma harakatlanuvchi ignali;
- gazlama surilishi yo`nalishi bo`yicha ko`ndalang yoki bo`ylama;
- gorizontal tebranma harakatlanuvchi ignali;
- yoysimon traektoriya bo`yicha harakatlanuvchi ignali;

Baxyalar va baxyaqatorlar. Gazlamada igna hosil qilgan qo'shni teshiklar orasida iplar chalishuvining bitta tugallangan sikli qo'lda bajarilgan bo'lsa, qaviq deyiladi, mashinada bajarilgani esa baxyqa deyiladi. Ketma-ket takrorlangan baxyalardan baxyaqator, qaviqlardan esa qaviqqator hosil bo'ladi.

Tikuvchilik sanoatida kiyim tikishda moki baxyaqator eng ko'p tarqalgan bo'lib, u ikki ipli bitta yo'lli moki baxyaqator va ikki ipli siniq baxyaqator bo'ladi.

Moki yordamida hosil qilingan baxyaqator ikkita ipdan iborat bo'ladi. Ustki ip "igna ipi" deyiladi, chunki u igna ko'zi bilan birga material orqali o'tadi. Pastki ip "moki ipi" deyiladi, chunki u mokidagi naychadan chiqadi. Bu iplar material o'rtaida chalishadi. Bitta yo'lli baxyaqatorda baxyalar birin-ketin joylashgan bo'ladi. Siniq baxyaqatorning baxyalari bir-biriga nisbatan burchak ostida joylashgan bo'ladi.

Mashinada bajariladigan ishlar uchun universal, maxsus va Yarim avtomat, avtomatlardan foydalilanladi.

Univesal mashinalarga DDL-5550, DDL-8300, DDL-8700, DDL-9000 Juki; 483, 583, 1163, 1183, 2483 Pfaff; 271 Dürkopp-Adler; KM-250, KM-2300 SunStar, GC6-5, GC201, GC6150, GC6180, GC6720, GC6850 Typical, 487 Pfaff kabi mashinalar misol bo'la oladi.

Maxsus mashinalar moki va zanjirsimon baxyali bo'ladi. Moki baxyali maxsus mashinalarga Yengni yeng o'miziga o'tqazuvchi 302 kl. PMZ, 272-140042-E2f «Dyurkopp», astarni isituvchi qatlam bilan qaviydigan KSI22 ESO «Meka», shim pochasiga tasma bostirib tikadigan 428-2 kl. «Minerva», 72314-101 «Minerva» va ikki ignali 852-1kl. DLN-5410 Juki; 481, 581, 2231, 2481 Pfaff; 272, 327 Dürkopp-Adler; GC6160 Typical DLU-5490, DLU-5494 Juki, 487 Pfaff, 275 Dürkopp-Adler; GC6-6, GC0302 Typical mashinalari kiradi.

Zanjirsimon baxyali Yashirin baxyali bukib tikadigan 85 kl. PMZ, kamar tutgich tayyorlaydigan 3076-1kl. PMZ, tikib-yo'r malaydigan 408-AM kl., detallarni bir-biriga vaqtincha ko'klaydigan 63 kl., mo'ynadan tikiladigan kiyimlar detallarini biriktirib-yo'r malaydigan 10-B kl., Trikotaj kiyimlar detallarini biriktirib tikadigan 851 kl., LZ-2280, LZ-2281, LZ-2282 Juki, 918, 937 Pfaff, GC20U33 Typical mashinalari kiradi.

Yarim avtomatlarga cho'ntak qopqoqni tayyorlaydigan 570-1 kl.PMZ, ASD-59555 Juki, 2K3-B-224-2000 Juki, izma yo'rmalaydigan 525 kl.OZLM, 811 kl. Minerva», 73401-R3 «Minerva», vitachka tikadigan 3022-M kl.OZLM, puxtalaydigan 220-M kl.OZLM, LK-1851, Juki LK-1852-1 Juki qirqma cho'ntaklarni tayyorlaydigan 746 kl. Dyurkopp», tugma qadaydigan 1095 kl.PO, 1495 kl.PO, 1695 kl.PO, GVS-340 Juki erkaklar ko'y lagi manjetini tikadigan 570-2 kl, DLN-5410 Juki kabilar kiradi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Tikuv mashinalarini vazifasiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?
2. Baxya hosil bo'lishiga qarab tikuv mashinalari turlarini keltiring?
3. Tezlik ko'rsatkichlariga ko'ra tikuv mashinalari qaysi guruhlarga bo'linadi?
4. Ishchi qulochlari bo'yicha tikuv mashinalari turlarini keltiring?
5. Tikuv mashinalarida moslamalar nima uchun qo'llaniladi?
6. Tikuv mashinalarida ish o'mni qanday tashkil etilgan?
7. Mashinada ishslashda qanday talablar qo'yiladi?

### **1.3. MOKI BAXYAQATOR HOSIL BO'LISH JARAYONI.**

Ikki ipli moki baxyaqator (2-rasm) ikkita ustki A va ostki B ipning tikilayotgan gazlamalar orasida bir-biri bilan chalishishdan hosil bo'ladi. Ustki ip A igna ko'ziga taqilgani uchun igna ipi deb, ostki ip B esa moki ipi deb ataladi. Ignan o'tgan ikkita qo'shni teshiklar orasidagi masofa baxya yirikligi - L ni ifodalaydi. Moki baxyaqator qiyin so'kiladigan bo'lib, bu baxyaqator uzunasiga ham, ko'ndalangiga ham uzelishga yetarli darajada chidamlidir. Moki baxyaqator zanjirsimon baxyaqatorga nisbatan kamroq cho'ziladi, shuning uchun turli kiyimlar ust va ich kiyimlar tikishda undan keng foydalilaniladi.

Moki baxyaqator hosil qilishga sarflanadigan ipni aniqlashda o'rta hisobda 1,2-1,7 ga teng bo'lgan ishlatish koeffitsenti hisobga olinadi. Chunonchi, ishlatish koeffitsienti 1,3 ga teng bo'lganda, uzunligi 10 sm bo'lgan chokka ustki ipdan 13 sm va ostki ipdan 13 sm sarflanadi.




2-rasm. Ikki ipli moki baxyaqator

Ishlatish koeffisientini baxya yirikligiga, tikiladigan gazlama xususiyati va qalinligiga, ipning taranglik darajasiga va boshqa omillariga bog'liq bo'ladi.

Zanjirsimon baxyaqator hosil qilishga qaraganda moki baxyaqator hosil qilish uchun anchagina murakkab mexanizmlar kerak bo'ladi. Masalan, moki qurilmasi ko'pgina detallardan iborat bo'lib, uni doimiy moylab, tozalab turish talab qilinadi. Moki qurilmasida naycha borligi mashinaning ishlash koeffisientini kamaytiradi. Masalan, 97-A rusumli tikuva mashinasida shimning odim qirqimlarini choklashda 3-5% ish vaqt va yordamida chalishtirilishi mumkin. Aylanadigan mokili mashinalar ko'proq tarqalgan, shuning uchun quyida aylanadigan mokili mashinalarda moki baxyaqator hosil bo'lish jarayonini qarab chiqamiz.

G'altak 5 dagi (3-rasm, a) ustki ipni ip tortgich shaybalar 3 orasidan olib o'tib, ip tortgich 4 ning qulog'idan o'tkaziladida, igna 2 ni ko'ziga taqiladi. Ignalarni materialni teshib, ustki ipni undan olib o'tadi va eng pastki holatga tushadi. Ignalarni ostki holatidan 1.5-2 mm ko'tarilganda ustki ipdan halqa hosil bo'ladi, bu halqani moki 1 ning uchi ilib oladi.

Igna (3-rasm, b) yuqoriga ko'tarila boshlaydi, shunda mokining uchi 7 ustki ip halqasini ilib kengaytiradi. Ip tortgich 4 pastga tomon harakatlanib, mokiga ip uzatib beradi. Ustki ip halqasini moki naycha atrofidan aylantiradi (3-rasm, v).



3- rasm. Moki baxyasi hosil bo'lishi

Ustki ip halqasi 180 ortiq burchak hosil qiladigan darajada aylanganda 3-rasm, g), ip tortgich yuqoriga ko'tarilib, baxyani taranglaydi. Tishli reyka 6 gazlamani baxya uzunligiga suradi.

Moki (3-rasm, d) ikkinchi salt aylanishida boshqa ishchi organlar o'z ishini tugallaydi. Tebranma mokili mashinalar ham shu prinsipda ishlaydi. Bunday mokilar past tezlikli mashinalarda ko'proq qo'llanilgan.

### Takrorlash uchun savollar

1. Moki baxyaqatorining xususiyatlarini tushuntiring.
2. Moki baxyaqatorining zanjirsimon baxyaqatoridan farqi nimada?
3. Moki baxyaqatorning hosil bo'lish jarayonini tushuntiring.
4. Moki baxyaqator necha ipdan iborat. Ular qaysilar?

## **1.4. ZANJIRSIMON BAXYA HOSIL BO'LISH JARAYONI**

Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator ustki tomonda punktir chiziqlardan, ostki tomonda esa uchta ipdan tashkil topgan zanjirdan iborat bo'ladi. Baxyaqator pastki tomoni qabariq bo'lib chiqqani uchun chok qalinlashibroq qoladi.


Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator moki baxyaqatorga nisbatan ikki barobar elastikroq bo'ladi. Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator osongina so'kiladi.

Buning uchun baxyadan chalishtirgich ipi uchini chiqarib olib tortish kerak; ustki ip alohida so'kiladi. Ustki ip baxyaqator o'rtasida uzilgan bo'lsa, shu ip uzilgan joyda so'kilish qiyinlashib qoladi. Ikki ipli zanjirsimon baxyaqatorga moki baxyaqatorga nisbatan 2,3 barobar ortiq ip ketadi.

Kiyim tikishda qo'llanadigan zanjirsimon baxyaqatorlarga quyidagilar kiradi: bir ipli chalishadigan va ikki ipli chalishadigan bitta yo'lli zanjirsimon baxyaqator, ikki ipli va uch ipli chalishadigan zanjirsimon yo'r mash baxyaqatori; bir ipli va ikki ipli chalishadigan siniq zanjirsimon bostirib tikish baxya kiradi. Baxya hosil bo'lish jarayonida chalishtirgich 3 (4-rasm) igna 2, reyka 4, tepki 1 va igna yuritgichga mahkamlangan ipuzatgich qatnashadi.

Baxya hosil bo'lish jarayonining quyidagi xarakterli bosqichlarga bo'lish mumkin:


- igna 2 gazlamani teshib o'tadi va eng pastki chekka holatga tushadi, keyin 2-2,5 mm ko'tarilganda ipda halqa hosil qiladi, bu halqani chalishtirgich 3 ning uchi ilib oladi;
- chalishtirgich 3 halqani cho'zib uzaytiradi, igna 2 gazlamalardan chiqadi, tishli reyka 4 ko'tariladi va gazlamalarni bir baxya bo'yи suradi;
- gazlamalar surilishining oxirida halqa og'ib, unga igna 2 kirishi uchun qulay holatini egallaydi, ayni vaqtda chalishtirgich 3 ning qiya yuzasi 5 halqaning qisqa (chapdagi) bo'lagini chalishtirgich 3 sterjeniga o'ralib ketmaydigan qilib, oldinga olib o'tadi;



4-rasm. Bir ipli zanjirsimon baxyanining hosil bo'lish jarayoni

- igna 2 yana gazlamalarni teshib o'tadi va eng pastki holatdan 2-2,5 mm ko'tarilganda ikkinchi halqa hosil qilib, bu halqaga chalishtirgich 3 ning uchi kirdi;
- chalishtirgich 3 ikkinchi halqasi birinchisi ichiga kiritadi; birinchi halqa chalishtirgich 3 osti 6 dan sırqanib chiqadi;
- igna 2 gazlamadan chiqqan zahoti, reyka 4 ko'tariladi va materialni baxya bo'yicha suradi. Birinchi baxya hosil qilishda igna 2, chalishtirgich 3, kengayuvchi ikkinchi halqa va reyka 4 qatnashadi.


Bu bosqichlar bajarilgach, yana jarayon takrorlanadi.



5-rasm. Bir ipli zanjirsimon baxyaqator

Zanjirsimon baxyalar bir ipli , ikki ipli va uch ipli bo'lishi mumkin. Zanjirsimon baxyaqatorning ko'rinishi ustki tomonidan oddiy moki baxyaqatoriga o'xshaydi, ostki tomonidan zanjirsimon ko'rinishda bo'ladi ( 5-rasm). Zanjirsimon baxyaqatorning asosiy xususiyatlaridan biri baxyaqatorning oxirgi uchidan oson so'kilishidir. Zanjirsimon baxyaqatorning iplari gazlama yuzasida chalishadi. Bu baxyaqator bo'yiga Yaxshi cho'ziladi (13-15 % o'mniga 30-35 % gacha cho'ziladi), shuning uchun detallar ko'p cho'ziladigan joylarda bu baxyaqator qo'llaniladi.

**Ikki ipli zanjirsimon baxyaqatorning xususiyatlari.** (6-rasm) Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator ustki tomonda punktir chiziqlardan, ostki tomonda esa uchta ipdan tashkil topgan zanjirdan iborat bo'ladi. Baxyaqator pastki tomoni qabariq bo'lib chiqqani uchun chok qalinlashibroq qoladi.



6-rasm. Ikki ipli zanjirsimon baxy.

Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator moki baxyaqatorga nisbatan ikki barobar elastikroq bo'ladi. Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator osongina so'kiladi.

Buning uchun baxyadan chalishtirgich ipi uchini chiqarib olib tortish kerak: ustki ip alohida so'kiladi. Ustki ip baxyaqator o'rtasiga uzilgan bo'lsa, shu ip uzilgan joyda so'kilish qiyinlashib qoladi. Ikki ipli zanjirsimon baxyaqatorga moki baxyaqatorga nisbatan 2,3 barobar ortiq ip ketadi.

Yo'ksak elastik chok hosil qilish talab qiladigan trikotaj materiallar va elastik sintetik tolali gazlamalardan buyumlar tikish zarur bo'lgani uchun tikuvchilik sanoatida ikki ipli zanjirsimon baxy mashinalar tobora ko'p ishlatilmoqda. Bundan tashqari moki baxy mashinalarga nisbatan ikki ipli zanjirsimon baxy mashinalar bir qancha afzalliliklarga ega.

**Ikki ipli zanjirsimon baxyal hosil bo'lish jarayoni.** Baxyal hosil qilishda igna, chalishtirgich, reyka, tepki, ip uzatgich ishtirot etadi. Chalishtirgich ikki marta baxyaqator ko'ndalangiga va ikki marta baxyaqator uzunasiga harakatlanib, murakkab fazoviy harakat qiladi (7-rasm).

Baxyal hosil bo'lish protsessini bir qancha bosqichlarga bo'lish mumkin.

**Igna 1** (7-rasm, a) materiallarni teshib o'tib, eng pastgi holatga tushadi, bu paytda chalishtirgich 2 baxyaqatorning ko'ndalangiga harakatlanadi.


**Igna 1** (7-rasm, b) eng pastki holatidan 2-2,5 mm ko'tarilib, halqa A 1 ni hosil qiladi, bu halqaga chalishtirgich 2 o'z halqasi B1 ni olib kiradi.

**Igna 1** (7-rasm,v) yuqori ko'tariladi va materialdan chiqadi, ip uzatgich baxyaga ketgan ipni g'altakdan chuvatadi, reyka 3 yuqori ko'tariladi va materiallarni bir baxyal bo'yli suradi. Chalishtirgich 2 baxyaqatorning uzunasiga (tikuvchi tomon) harakatlanadi

**Igna 1** (7-rasm,d) materialni teshib o'tadi va chalishtirgich 2 ning halqasiga kiradi, bu paytda igna halqasi A1 ni og'gan holatga tutib turgan chalishtirgich 2 baxyaqator ko'ndalangiga harakatlanadi.

**Igna 1** (7 -rasm, e) pastga tushishda davom etadi, ip uzatgich ip chiqarib beradi, igna halqasi A1 qisqaradi. Igna baxyani taranglashtirib, oldingi halqa ipini tortadi Ostki ip uzatgichdan ostki ipni bo'shatadi, chalishtirgichning ignaga ilingan halqasi A materialga tomon tortadi.

**Chalishtirgich 2** (7-rasm, j ) baxyaqatorning uzunasiga (tikuvchidan oldinga tomon) harakatlanadi, keyin baxyaqatorning ko'ndalangiga harakatlanib, eng ostki holatidan 2-2,5 mm ko'tarilgan igna I halqasiga A2 ga kiradi. Keyin jarayon takrorlanadi.



7-rasm. Ikki ipli zanjirsimon baxyanining hosil bo'lishi

#### Takrorlash uchun savollar

1. Bir ipli zanjirsimon baxyasining xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Zanjirsimon baxyasining moki baxyasidan farqli tomoni nimada?
3. Zanjirsimon baxyasining siniq baxyasidan farqi nimada?
4. Ikki ipli zanjirsimon baxyasining hosil bo'lishida chalishtirgichning xizmati nimadan iborat?
5. Zanjirsimon baxyaqatorlarni necha xilini bilasiz ular qaysilar?
6. Ikki ipli zanjirsimon baxyasining hosil bo'lishida chalishtirgichning xizmati nimadan iborat?
7. Tikuvchilik sanoatida bir ipli zanjirsimon baxyaqatorlar qaysi ishlarda qo'llaniladi?
8. Ikki ipli zanjirsimon baxyaqator hosil bo'lish jarayonida qaysi ishchi organlar ishtiroy etadi?

## **1.5.TIKUV MASHINALARI ISHIDA SODIR BO'LADIGAN NUQSONLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

Tikuv mashinalarida ko'pgina sabablarga ko'ra nuqsonlar vujudga kelishi mumkin: mexanizmlarning, ish organlarining o'zaro ta'siri buzilishi, detallarning yoyilishi, detallar yuzasi tozaligining o'zgarishi va hokazo. Tikuv mashinalarining asosiy nuqsonlariga baxyaqatorning sifati pastligi, ip tashlab tikilishi, ip uzilishi, materialning qiyin surilishi, igna sinishi kiradi.

**Baxyaqatorning sifati pastligi.** Baxyaqator bo'sh (iplari yaxshi tortilmagan) bo'lsa, tarang yoki kir bo'lsa, shuningdek agar iplar "gazlamalar ustida chalishsa" yoki "gazlamalar tagida chalishsa" bunday baxyaqatorlar past sifatli hisoblanadi.

Baxyaqator bo'sh bo'lganda iplar tikilayotgan materiallar orasida chalishadi, lekin materiallar bir-biridan qochib turadi. Bu kamchilikni yo'qotish uchun ostki va ustki ipni taranglash kerak.

Baxyaqatorning ortiqcha tarangligi iplarning haddan tashqari tarangligidan kelib chiqadi. Bunday baxyaqator tikilgan materiallarning baxyaqator chizig'i bo'ylab tortilsa, baxyaqator iplari osongina uzilib ketadi. Bunday kamchilikni tashqi ko'rinishdan aniqlasa bo'ladi, bunda chok baxyaqator ko'ndalangiga terilib qoladi. Buni ustki va ostki ip tarangligini bo'shatib bartaraf etiladi.

Agar ustki ip ostki ipni tortib ketib, ular materiallarning ustidan chalishayotgan bo'lsa, bunda baxyaqator materiallar "ustida chalishgan" bo'ladi. Bu kamchilikni yo'qotish uchun iplar tarangligini ustki ipdan boshlab rostlash kerak.

Agar ostki ip ustki ipni tortib ketib, ular materiallar tagida chalishsa, bunda baxyaqator materiallar "tagida chalishgan" bo'ladi. Bu kamchilikni yo'qotishda iplar tarangligini ostki ipdan boshlab o'zgartirish kerak.

**Kir** baxyaqator mashinaga yomon qarab turilganligi oqibatida kelib chiqadi va og'ish materiallarni tikishda ayniqsa sezilarli bo'ladi.

**Ip tashlab tikilishi.** Ignan bilan mokining o'zaro harakatlarida moslik buzilsa ip tashlab tikilishi mumkin. Ignaning noto'g'ri ishlashiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: ignadagi nuqsonlar (uning o'tmasligi, bukilganligi); ignani raqamli belgisi

va nomeri noto'g'ri tanlanganligi; ignaning balandligi noto'g'ri (baland yoki past o'rnatilganligi); tepki yoki igna plastinasi igna uchini chapga bukib yuboradigan qilib noto'g'ri o'rnatilganligi; iplarning noto'g'ri taqilishi; igna ariqchalari moki uchiga nisbatan teskarı qarab qolganligi; igna mexanizmi birikmalarining yeyilishi.

Quyidagilar mokining noto'g'ri ishlashiga sabab bo'ladi: moki uchining ignaga vaqtida yaqinlashishi noto'g'ri rostlanganligi; igna bilan moki uchi orasidagi masofa noto'g'ri rostlanganligi, moki mexanizmi birikmalarining yeyilganligi yoki bo'shab ketganligi. Ip tashlab tikilish sabablarini igna mexanizmidan boshlab aniqlash kerak.

**Ustki ipning uzilishi.** quyidagilar ustki ipning uzilishiga sabab bo'lishi mumkin: ipning sifatsizligi, ipning haddan tashqari tarangligi, ipning noto'g'ri taqilishi, igna nomeri ip nomeriga mos kelmasligi, ish vaqtida tushmasligi yoki baxyanining tortilib qolishi, mokining haddan ortiq qizib ketishi, ip yo'naltirgichlarning yomon holatdaligi (qirqilganligi, g'adir-budirligi) yoki ip yo'naltirgichlardan ba'zilarining yo'qligi, igna plastinasi teshigida, moki qurilmasida tepki tagida qirilgan yoki g'adir-budir joylar bo'lishi.

**Ostki ipning uzilishi.** Ostki ip kamroq detallarga tegib o'tadigan bo'lgani uchun, uning uzilishi ustki ipdan nisbatan ancha kam bo'ladi. quyidagilar ostki ip uzilishiga sabab bo'ladi: naychaning devorlari singanligi yoki ezilganligi, ip naychaga bo'sh yoki notekis o'ralganligi, ip noto'g'ri taqilganligi, moki qurilmasi detallarining ostki ip tegadigan joylari chaqaligi yoki g'adir-budirligi.

**Materiallarning qiyin surilishi.** Bu kamchilik reyka yoki tepkining yaxshi ishlamasligidan kelib chiqishi mumkin. Quyidagilar reyka ishidagi kamchiliklar hisoblanadi: reykadagi deffektlar (tishlar singan, moy tekkan yoki tishlar o'tmaslashgan, noto'g'ri tanlangan), reykaning past-balandligi noto'g'ri o'rnatilganligi yoki igna plastinasining o'yilalariga nisbatan uning holati noto'g'riliqi, materiallarni surish mexanizmi birikmalarining bo'shab qolganligi yoki yeyilganlidir.

Tepki ishidagi kamchiliklar quyidagilar hisoblanadi: tepkining balandligi noto'g'ri o'rnatilgan; materialga tepkining bosimi noto'g'ri rostlangan, tepkidagi deffektlar - tepki tagining yuzasi g'adir-budirligi, tepki reykaga nisbatan noto'g'ri

tanlangan (tepki reykadan kengroq bo'lishi kerak), shuningdek tepki uzelidagi birikmalar bo'shab qolgan yoki yeyilgan.

Materiallarni surish mexanizmidagi va tepkidagi detallar bo'shab qolgan yoki yeyilganligi, ignaning ko'ndalang siljishi borligi, tepki reykaga nisbatan noto'g'ri turib qolganligi natijasida baxyalar qiyshiq tushadigan baxyaqatorlar ham materiallarni surish mexanizmining daffektlari hisoblanishi kerak.

**Igna sinishi.** Quyidagi hollarda igna sinishi mumkin: agar igna harakat vaqtida bironta noto'g'ri turib qolgan detalga tegib o'tadigan bo'lsa, igna balandligi noto'g'ri (pastroq) o'matilgan bo'lsa; tepkida, igna plastinasida, mokida siljishlik bo'lsa yoki ular noto'g'ri o'matilgan bo'lsa; igna pastligida materiallar surilsa; tikib bo'lqandan keyin materiallarni tepki tagidan ehtiyoitsizlik bilan olinsa. Mashina ishidagi boshqa kamchiliklar (igna tegadigan detallar singanligi yoki ularda g'adir-budur joylar borligi) natijasida ham igna sinishi mumkin, shuning uchun tikish oldidan maxovik g'ildirakni aylantirib, igna o'z yo'lida bironta detalga tegmayotganligini tekshirib ko'rish tavsiya etiladi.

Tikuv mashinasining mexanizmlarini tozalash va moylash ularni aniq va beto'xtov ishlashini ta'minlaydi. Tutashgan detallarning ishqalanadigan yuzlarini moylash uchun mineral moylar ishlatiladi. Moylash materiallari ishqalanadigan yuzalarning orasida detallarni ajratib turadigan ma'lum qalinlikdagi moy qatlamini hosil qiladi. U detallarning ishqalanishini kamaytiradi, ish yuzalari o'miga moylash materiallari qatlamlari bir-biriga ishqalanib detallar yeyilishining oldini oladi.

Mashinani tozalash va moylash shu mashinada ishlaydigan tikuvchining vazifasidir; har bir ish o'midan moydan, o'rta va kichik (mokibop) maxsus asboblar, tutilmaydigan yumshoq artadigan mato bo'lishi kerak. Tikuvchi ich kiyim tikadigan bo'lsa, bir haftada kamida bir marta, ip gazlama tikkanda haftasiga ikki marta, paxta solingan va tililgan, dag'al jun gazlamalardan buyum tikishda esa har kuni mashinalarni tozalab, moylab turishi lozim. Mashinaning hamma joyini tozalash va moylashda elektr yuritgichi o'chirib qo'yiladi, yuritma tasmasi olinadi, igna eng yuqori chekka holatga o'matiladi, tepki ko'tarib qo'yiladi va naycha qalpoqchasi chiqarib olinadi. Avval mashinaning bosh qismidagi kir va gazlama tuklari tozalanib,

detallar latta bilan artiladi. So'ngra mashinani ag'darib qo'yib, platforma tagidagi detallar va taglik artiladi.

Tutashgan detallar orasidagi ishqalanadigan joylarga moyinda ikki-uch tomchi moy tomiziladi. Moy to'g'ridan-to'g'ri detallarning tutashgan joylariga, moy o'tkazadigan teshiklarga yoki maxsus moydonlariga tomizib qo'yilishi mumkin. Moylash teshiklari qizil rangga bo'yagan bo'ladi. Oldin mashina platformasi tagidagi detallar, so'ng mashina tanasi tayanchidagi, platforma ustidagi va nihoyat mashina tanasidagi detallar moylanadi. Moylash ishlari tugagandan so'ng mashinani qo'lda aylantirib, asosiy valning yengil aylanishi tekshirib ko'rildi, ortiqcha moy latta bilan artiladi, moy bir tekis taqsimlanishi uchun tepkini ko'tarib qo'yib, mashina bir necha sekund salt ishlatiladi. Mashinada ish boshlash oldidan gazlama parchasida baxyaqator sifati tekshirib ko'rildi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Tikuv mashinalaridagi nuqsonlarga nimalar kiradi?
2. Igna sinishing oldini olish uchun qanaqa choralar qo'llaniladi?
3. Ipni tashlab tikishiga sabab nima?
4. Ustki ipning uzilishiga sabab nima?

## **2. JIHOZLARNI TA'MIRLASH TEKNOLOGIYASI**

### **2.1.TIKUV MASHINALARINI TA'MIRLASH**

Bugungi kunda fan va texnikaning jadal rivojlanib borishi ishlab chiqarilayotgan zamonaviy mashinalar sifatiga katta talab qo'ymoqda.

Mashinaning sifati deganda, uning foydalanish uchun yaroqlilik darajasida tushuniladi.

Har bir yangi texnologik jihoz uning qanchalik sifatlari ekanini ko'rsatadigan ishga yaroqlilik, mustahkamlik va chidamlilik ko'rsatkichlariga egadir.

Chidamlilik deganda, mashinaning buzilganga yoki sifat bo'yicha kafolat muddati tugaganga qadar undan uzlusiz foydalanishga yaroqliligi tushuniladi.

Mashinaning mustahkamligi deganda, uning bajariladigan vazifalarini belgilangan sifat darajasida texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va tashish shartlariga mos tarzda bajarish xususiyati tushuniladi.

Mashinaning ishga yaroqliligi deganda, uning belgilangan vazifani me'yoriy- texnik hujjatlar, texnik shart va andozalarga qo'yilgan talablari darajasida to'liq bajarishi tushuniladi. Bu ko'rsatkichlarga, misol qilib mashinaning quwati, bosh

valning aylanish chastotasi, unumdorligi, sifati va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatish mumkin.

Mashinaning nosozligi deganda, uning texnik shart talablarining birortasiga ham javob bermaydigan holati tushuniladi. Biroq hamma nosozliklar ham ishga yaroqlilikning yo'qolishiga olib kelmaydi. Masalan, mashinaning bo'yalgan qismidagi bo'yoq zararlansa, u nosoz deb hisoblanadi, lekin ishga yaroqliligin yo'qtumaydi. Agar nosozlik mashina ish qobiliyatining buzilishiga sabab bo'lsa, unda bu mashinaning to'xtab qolganini bildiradi.

To'xtab qolish deganda, mashina yoki mexanizmning ish qibiliyatini to'liq yoki qisman yo'qtogan paytdagi holati tushuniladi.

Mashinaning bajargan ishi bu uning ma'lum muddat ishlashi yoki ish hajmi bo'lib, vaqt, sarflanadigan quvvat, mahsulot soni va boshqa mezonlar bilan o'chanadi.

Mashinaning texnik tavsifida ko'rsatilgan foydalanish muddati tugagunga qadar bajargan ishi uning resursi deyiladi.

Mashinaning ta'mirlashga yaroqliligi - uning ishlamay qolishi hamda nuqsonlarini texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash yo'li bilan aniqlash va bartaraf etish imkoniborligini bildiradi.

Mustahkamlikning ko'rsatib o'tilgan aniq bir shakli mashina sifatiga o'zgacha ta'sir qiladi. Shubhasiz, mashinalarning mustahkamligini oshirish, ishlatiladigan mashinalar sonini oshirishga olib keladi.

Mashinaning saqlanuvchanligi - uning o'z ish ko'rsatkichlarini saqlashi va saqlanish muddati davomida va bu muddat tugagandan so'ng ham texnik shartlarda ko'rsatilgan qiymatlarda saqlanib turish xususiyatidir.

Yengil sanoat korxonalari jihozlarining mustahkamligi qisman joriy to'xtab qolishlar bilan, shuningdek, detallar yeyilishi natijasida to'xtab qolishlar tufayli aniqlanadi. Joriy to'xtab qolishlarni bartaraf etish jihozlarga texnik xizmat ko'rsatishning elementlaridan biri hisoblanadi. To'liq to'xtab qolishlar mashina ish qobiliyatining yo'qolishiga olib keladi va kapital ta'mir o'tkazish zaruratinu tug'diradi.

Tasodifiy to'xtab qolishlar yangi mashina va avtomatlarda ayniqsa kamdan-kam uchraydi. Yaqinda o'matilgan yangi uskunalarining birinchi to'xtab qolishi ularning konstruksiyalari sifati va tayyorlash texnologiyasi amalda qanday ekanini ko'rsatadi. To'xtab qolishlar vaqt o'tishi bilan yoki tasodifan yuzaga kelishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladigan to'xtab qolishlar ko'pincha ishqalanadigan detallar yeyilishi ta'sirida yuzaga keladi. Tasodifiy to'xtab qolishlar esa detallarda asta-sekin toliqish, mayda darzlar ko'payishi natijasida yuzaga keladi.

Texnik foydalanish koeffitsienti mashina ishining asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Texnik foydalanish koeffitsienti ( $K_{tf}$ ) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi.

$$K_{tf} = T_k / (T_k + T_t + T_{tx})$$

Bu yerda  $T_k$  - ko'rib o'tilayotgan davrda mashinaning bajargan ishi yig'indisi;  $t_t$ -shu davr ichida ta'mirlash uchun sarflangan vaqt yig'indisi;  $t_{tx}$  -shu davr ichida texnik xizmat ko'rsatish uchun sarflangan vaqt yig'indisi.

Mashina tashqi ko'rikdan o'tkazilib, alohida bo'g'in va detallarning ifloslanishi darajasi, detallar holatining to'g'riligi, ulardag'i ko'zga ko'rindigan zararlanish alomatlari soni, turli buzilishlar, himoya qoplamlarining zararlanishi, moy uzatishning to'g'riligi va boshqa ehtimoli bo'lgan nosozliklar o'rnatiladi. Ishlab chiqarilgan yaroqsiz mahsulot soniga qarab, bo'g'in va mexanizmlar nosozligining sabab hamda xususiyatlari aniqlanadi. Masalan, tikuv mashinalarida bahyaqator hosil qilish jarayonida bahya hosil qilmasdan o'tkazib yuborish hodisasi sodir bo'lsa, bu igna bilan moki orasidagi oraliq buzilganini yoki igna noto'g'ri o'rnatilganini bildiradi.

Talab etilgan qvvat bo'yicha texnik holatni baholash. Bu usul ishlab chiqarish sharoitida qulay bo'lib, mashinaning umumiy texnik holati to'g'risida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Yengil sanoat korxonalarida talab etilgan qvvatni tekshirish energiya nazoratining umumiy tizimiga kiradi va grafik asosida amalga oshiriladi. Haqiqiy talab etiladigan qvvat korxonada o'matilgan nominal qvvat me'yori bilan solishtiriladi va mashinaning texnik holati haqida xulosa beriladi. Mashina mexanizmi yoki bo'g'ini talab qiladigan qvvatni yaxshiroq aniqlash uchun ajratish usulidan foydalaniladi. To'xtatilgan bo'g'in yoki mexanizmning qvvati elektrodvigatel validan ajratilganga qadar va to'xtagandan keyingi qvvatlar farqiga teng bo'ladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, talab etilgan qvvatni tekshirib borish va uni tartibga keltirish uchun ta'mirlash va profilaktika o'tkazish davomida ko'rilgan choralar mashinaning faqat to'xtovsiz ishlashini ta'minlab qolmasdan, elektr energiyasi sarfini ham sezilarli darajada kamaytiradi.

Tikuv va trikotaj mashinalaridan foydalanuvchilar uchun mashinalardagi uzoq ishlaydigan va tez yeyiladigan konstruktiv elementlarning nisbati, talab etiladigan ishlar hajmi hamda konstruktiv elementlarni tiklash davriyiligi, ya'ni uzoqqa chidaydigan detallarni moylash, rostlash va ta'mirlash hamda almashtirish hajmi va muddatlar katta aharmiyatga ega.

Xizmat muddati mobaynidagi yaroqlilik tarkibi tahlilidan kelib chiquvchi iste'molchilar uchun mashina texnik ahvolini baholashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri moylash, rostlash hamda saqlashda uning texnologiyabopligi koeffitsientlari hisoblanadi.

Mashinalarning moylashga moslashgani moylashning solishtirma mehnat sarfi, davomiyligi va narxi bilan, moylash amallari bo'yicha texnologiya boplikning

xususiy koeffitsientlari bilan baholanadi.

Foydalanish davrida moylab turishning solishtirma mehnat sarfi ushbu formula bilan aniqlanadi.

Moylash amallarini bajarishning solishtirma mehnat sarfi va narxi mashina konstruksiyasini moylash amallarini bajarish nuqtai nazaridan baholashga imkon beruvchi asosiy umumlashtirilgan ko'rsatkichlardir.

Yangi tikuv va trikotaj mashinalarini yaratishda yoki mavjudlarini takomillashtirishda avval ishqalanuvchi bo'g'inlarni moylashga sarflanadigan mehnatning cheklangan qiymatini aniqlab olish juda muhim. Shundagina mazkur ko'rsatkichni texnik topshiriqqa kiritish va sinov chog'ida uni nazorat qilish mumkin bo'ladi.

Mashinalarning moylash ishlariiga moslashgani mashina ayrim parametrlarining tavsiflari ta'siridagina emas, balki ana shu tavsiflar majmui ta'sirida ham o'zgaradi.

Shunday qilib, tikuv va trikotaj mashinalarning moylash amallarini bajarishga moslashishi bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlarini, ular tuzilishini mukammallashtirishda erishilgan yutuqlarni ana shu jihatdan umumiylash, texnologiyabopligrining xususiy koeffitsienti esa moylash bo'g'inining tuzilishida afzallik va kamchiliklarni to'la aniqlash imkonini beradi. Kelajakda yaratiladigan tikuv va trikotaj mashinalarning moylash amallari bo'yicha texnologiyabopligrining xususiy koeffitsienti birga yaqin bo'lishi kerak.

Mashinani rostlash barqarorligi koeffitsienti ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishda talab etiladigan ishlar hajmini hamda iste'molchilar uchun qulay bo'lgan xizmat muddati mobaynida ularning takrorlanishini ifodalaydi. U ta'mirlanadigan konstruktiv elementlar shakli va o'lchamlarining barqarorligini ham hisobga oladi.

Zamonaviy mashinalarni rostlash barqarorligi koeffitsientini 0,1 ga yetkazish talab qilinadi.

Mashinalarni rostlashga moslashganini baholashda:

1. Mashina bo'g'inlarini, agregat va mexanizmlarini rostlash bilan bog'liq konstruktiv yechimlar xususiyatlarini o'rganish va ulaming rostlash ishlariiga moslashganini baholash tizimini ishlab chiqish lozim;
2. Zamonaviy tikuv va trikotaj mashinalari tuzilishining rostlash ishlariiga moslashishi ko'rsatkichlarini aniqlash va shundan keyin ularni rostlash jarayonini takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqish kerak.

## **2.1. JIHOZLARNING REJALI-OGOHLANTIRISH TA'MIR TIZIMI.**

Texnologik jihozlarni rejali-ogohlantirish ta'mir (ROT) tizimi deb, jihozlarni va ularga xizmat qiluvchi tashish, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish qurilmalarini inkorsiz ishlashini ta'minlash uchun, oldindan ishlab chiqilgan reja asosida barcha ta'mir turlari yordamida jihozlarga xizmat ko'rsatish va nazorat qilish bo'yicha tashkiliy va texnik tadbirlar yig'indisiga aytildi. Rejali-ogohlantirish ta'mir tizimi – texnologik jihozlarni ishchi holatini saqlash, maksimal ish unumdonilishi va yuqori mahsulot sifatini ta'minlash bilan birgalikda ta'mirlash narxini va jihozlarni ta'mirda turib qolish vaqtini kamaytirish kerak.

Rejali-ogohlantirish ta'mir tizimi o'z ichiga jihozlarni ta'mirlash va profilaktik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash jarayonida mashinalarni takomillashtirish, ta'mirlash ish hajmi me'yорини ishlab chiqish, ta'mirlash vaqtida jihozlarni turib qolishi, detallar va materiallar sarfi, ehtiyyot detallar miqdori kabi narsalarni hisoblash va bajarishni oladi. SHuningdek ROT qayta tiklanadigan detal va uzellarni yuqori sifat va boqiyligini ta'minlovchi zamonaviy va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, korxonani ehtiyyot detal va uzellar bilan ta'minlash, ularni saqlash va hisoblash, texnik hujjatlarni ishlab chiqish, jihozlar ta'mirini texnik shartlari, jihozlarni ta'mirdan qabul qilish kabi ishlarini nazarda tutadi.

Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tizimi deganda ilmiy asoslangan tashkiliy, texnik, texnologik va iqtisodiy tadbirlar majmui, shuningdek mashinalarni ishga yaroqli holatda tutib turish, hamda tiklashni ta'minlaydigan vositalar tushuniladi.

Ta'mirlash – ishlash qobiliyatni tiklash maqsadida mashinaning yoki ayrim qismlarining nuqsonlarini bartaraf etish ishlari majmuidir. Mashinalar ta'mirlash korxonasida ta'mirlanadi. Bu korxona mashinasozlik korxonasining bir turi bo'lib, unda mashinadan yaxshi ishlash qobiliyatini yo'qotgan, ammo hali ta'mirlashga yaroqli bo'lган hamda ushbu ishlab chiqarish uchun asosiy detallar vazifasini bajaradigan qismlari, ya'ni mexanizmlar, detallar va boshqalar texnik shartlarga muvofiq ravishda ta'mirlanadi.

Rejali-oldini olish ta'miri (ROOT) tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: texnik xizmat ko'rsatish, joriy, o'rta va kapital ta'mirlash. Ta'mirlash turlari bir-biridan bajariladigan ishlar hajmi va ta'mirlararo muddatlari bilan farq qiladi.

Kapital ta'mirlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: mashinani to'liq bo'laklarga ajratish; detallarni yuvish va tozalash; nuqsonli detallarni almashtirish yoki ta'mirlash; mashinani yig'ish, rostlash, dastlabki ishlatalish, bo'yash, sinash va hokazo.

Kapital ta'mirlash deganda mashinaning istalgan qismlarini, shu jumladan, ba'zi qismlarini almashtirish yoki tiklash yo'li bilan buyumning resursini to'liq yoki shunga yaqin darajada tiklash hamda sozligini ta'minlash uchun butun mashinani, mexanizmni yoki uzelni ta'mirlash tushuniladi. Kapital ta'mir-texnik ko'zdan kechirish davrida tuziladigan namunaviy nuqsonlar qaydnomasiga va kapital ta'mir grafigiga muvofiq ta'mirlash mexanika ustaxonalarida o'tkaziladi. Kapital ta'mirdan chiqqan mashinalarni sex masteri (usta)ishtirokida sex boshlig'i qabul qilib oladi.

Tikuvchilik va trikotaj sanoatida qo'llaniladigan jihozlarning asosiy qismini tikuv mashinalari tashkil qildi. SHu sababli ham tikuvchilik mashinalarini ta'mirlash usullari va ta'mirlashni tashkil qilishni ko'rib chiqamiz.

Tikuv mashinalari kapital ta'mirdan keyin kamida 10 kun nuqsonsiz ishlasa, u holda mashinani ta'mirdan qabul qilib olgan hisoblanadi.

Mashinalarni o'rta ta'mirlash. O'rta ta'mirlashda mashina qisman bo'laklarga ajratiladi; navbatdagi kapital yoki o'rta ta'mirgacha me'yorida ishlashini davom ettira olmaydigan uzel va alohida detallar almashtiriladi; shu bilan birga butun mashina ishi va detallarning to'g'ri joylashganligi tekshiriladi va sozlanadi.

O'rta ta'mirlashda asosan agregat usulidan foydalilaniladi. Bu usulda mashina ayrim qismlarining nuqsonlari aniqlanib ularni yangilari yoki ta'mirlab qo'yilganlari bilan almashtirish orqali bartaraf etiladi. O'rta ta'mir mashinalarining ishchi holatidan shuningdek joriy ta'mir qanday o'tkazilganligidan qat'iy nazar bajarilaveradi. Masalan, moki baxyasi bilan biriktiruvchi «PFAFF» firmasining 42-909-0042-001g'002, «Adler» firmasining 221-76-FA2-RAP73 tikuv mashinalari 4-6 oyda o'rta ta'mir ishlari bajariladi. Maxsus tikuv mashinalar uchun: masalan «Juki» firmasining MO-2504- OD6 -320FSO98FTOO6 yo'rmab tikish mashinasi uchun har 4 oyda o'rta ta'mir bajariladi.

O'rta ta'mir grafigiga asosan ROOT texnigi ta'mir boshlanishidan uch kun ilgari chilangar ta'mirchiga naryad yozib beriladi. CHilangar ta'mirchi qo'lidagi naryadga

asosan tikuv mashinasini agregatdan olib o'rniga boshqa tikuv mashinasini qo'yadi va o'zining ish o'mida mashinani ta'mirlaydi. O'rta ta'mir tugagandan keyin ta'mirchi ta'mirlangan tikuv mashinasini ROOT texnigi, bosh mexanik va bo'lim o'rtasidan iborat bo'lgan ko'lissiyaga topshiradi. Agar ta'mirlangan tikuv mashinasi 3 kun nuqson siz ishlasa, mashinani o'rta ta'mirdan keyin qabul qilib olingan hisoblanadi.

Joriy ta'mirlashda har bir chilangar ta'mirchiga ma'lum bir shartli birlikdan iborat texnologik parki biriktirib qo'yiladi. Bitta «JUKB» D'N-5410-6 tikuv mashinasiga xizmat ko'rsatish va uni ta'mir qilishga ketadigan me'murat hajmi, xizmat ko'rsatish murakkabligining shartli birligi qilib olinadi. Tikuv mashinasi konstruksiyasi, tuzilishi, uni sozlash, moylash qanchalik murakkab bo'lsa, shu mashinaga to'g'ri keladigan shartli birliklar miqdori ham shunga ko'p bo'ladi. Masalan: «DUPKOPP» firmasining 265-15203 rusumli tikuv mashinasiga xizmat ko'rsatish 2 ta «Juki» firmasi LK-981-555-FBR-2 tugma qadaydigan yarimavtomatlarga xizmat ko'rsatish 3 ta, «Brozer» firmasining halqa yurmaydigan LH4-B814-4 yarim avtomatik tikuv mashinasiga xizmat ko'rsatish murakkablikning bir yarimta shartli birlik deb hisoblanadi. Tikuv mashinalarida tikuvchining o'zi mustaqil tuzata olmaydigan nuqson chiqib qolsa, u holda tikuvchi ta'mirlash ustasiga murojaat qiladi. Usta esa navbatchi bilan bog'lanib ish o'mini aytadi, navbatchi esa chilangar ta'mirchini chaqirib mashina ishchi holatiga keltiriladi.

Joriy va o'rta ta'mir, ta'mirlashning asosiy turlaridan bo'lib, uni o'z vaqtida va yuqori sifatli qilib o'tkazish jihozning ishonchli ishlashini ta'minlaydi va xizmat muddatini uzaytiradi.

### Takrorlash uchun savollar

1. Tasodifiy to'xtab qolishlar qachon sodir bo'ladi?
2. Texnik foydalanish koeffitsienti qanday aniqlanadi?
3. Jihozlarning strukturaviy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
4. Mashinalar texnik holatdan qaysi tartibda o'tkaziladi?

## **2.2. JIHOZLARNI TA'MIRLASH USULLARI**

Mashinalar ta'mirini tashkil qilish ma'lum darajada ularning usullariga bog'liqdir. Jihozlar ta'mirini o'tkazish paytida quyidagi ta'mirlash usullari qo'llaniladi.

- individual ta'mirlash usuli;
- uzelli ta'mirlash usuli;
- stendli ta'mirlash usuli.

Individual ta'mirlash usuli. Individual ta'mirlash usulida mashinani bo'laklarga ajratishda yechib olingan detallar ta'mirlangandan so'ng, yana shu mashinaning o'ziga o'rnatiladi. Almashtirishni talab qiladigan va ishga yaroqsiz bo'lgan uzel va detallar bundan mustasnodir.

Individual ta'mirlash usuli bir qator kamchiliklarga ega bo'lib ularga quyidagilar kiradi:

- jihozning boshqa usulida ta'mirlashda vaqtiga nisbatan ko'p turib qolishi;
- ta'mirlashning narxi yuqoriligi;
- ta'mirlash ishlarida yuqori malakali ishlarga bo'lgan talab;
- ta'mirlash ishlarini mexanizatsiyalash imkoniyatidan cheklanganligi.

Kamchiliklarning yana bir sababi shuki, ta'mirlash guruhiha ta'mirlanadigan yoki individual tartibda tayyorlanadigan detallarni mexanik ustaxonalaridan keltirishini kutib turishiga to'g'ri keladi.

Ta'mirlashning individual usuli yengil sanoat korxonalarida kam qo'llaniladi.

Uzelli ta'mirlash usuli. Ta'mirlashning uzelli usulida mashinadan yechib olingan asosiy uzel va detallar o'miga oldindan tayyorlangan yoki ta'mirlangan uzel va detallar o'rnatiladi. Yechib olingan uzellar esa maxsus ustaxonalarga navlarga ajratish va ta'mirlash uchun yuboriladi. Uzelli ta'mirlash usulida individual ta'mirlash usuliga qaraganda to'xtab qolishlar kam bo'ladi, ta'mirlashning tannarxi va mehnat hajmi kam bo'ladi, sifati esa yuqori bo'ladi. Uzelli ta'mirlash usulining afzalliklari quyidagilardan iborat: detal va uzellarning yo'qligi tufayli ta'mirlash guruhi turib qolmaydi; detallarni ta'mirlash va tayyorlash qisman o'zaro almashinuvchanlik tamoyilida o'z vaqtida amalga oshiriladi; ta'mirlash ishlarini bajarishda yuqori malakali ishchilar talab qilinmaydi; ta'mirlash ishlarini mexanizatsiyalash imkoniyati

bo'ladı va boshqalar. Uzelli usul korxonaning barcha ta'mirlash xizmati ishini aniq rejalashtirish va yaxshi tashkil etish imkonini beradi, jumladan:

- ta'mirlash guruhi a'zolarini maqsadga muvofiq ravishda mexnatni baravar va maksimal yuklash bilan tashkil qilishni o'rnatishni;
- ilg'or texnikani keng qo'llash asosida ta'mirlash ishlari uchun butun kompleksi uchun tiplashtirilgan texnologiyani qo'llashni;
- uzel va detallarning o'zaro almashinuvchanligi va konstruktiv o'Ichamilarini saqlab qolishni.

Mashinalarning ta'mirga turib qolish vaqtı kamayishi natijasida jihozning ishslash vaqtı oshadi va korxonaning ishlab chiqarish quvvati o'sadi. Mashinani ta'mirlashning davomiyligi quyidagilar bilan aniqlanadi: mashinaning bo'laklarga ajratish, yuvish, detallarni navlarga ajratish va yaroqli yaroqsizga ajratish, ta'mirlash brigadasi to'lovidan bajarilgan mexanizmlar, uzellar, detallarni ta'mirlash; mashina, uzel va mexanizmlarni yig'ish; mashinani sozlash va sinash; aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish va mashinani ishlatishga topshirishga sarflangan vaqt bilan aniqlanadi. Ta'mirlash ishlarini ketma-ket o'tkazish ta'mirlashning individual usuliga, parallel va aralash o'tkazish esa uzelli usulga mos keladi.

Stendli ta'mirlash usuli. Boshqa tashkiliy ko'rinishlardan farqli ravishda stendli ta'mirlashda mashina assidan yechib olinadi va ta'mirlash moydonchasi yoki ta'mirlash ustaxonasiga keltiriladi. U yerda maxsus jihozlangan stendda barcha zaruriy ishlar amalga oshiriladi. Asosidan yechib olingen mashina o'miga zahiradagi mashina o'matiladi, ta'mirlangan mashina esa zahiraga topshiriladi. Mashinaning ta'mirga turib qolishi sex ishlab chiqarish quvvatiga ta'sir ko'rsatmaydi, chunki ishchi joy faqat mashinani yechib olish va o'rnatish uchun zarur bo'lган vaqt mobaynida to'xtab qoladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan ta'mirlashning tashkiliy ko'rinishlari bilan solishtirib ko'rilganda stendli ta'mirlash ishlab chiqarish sexlaridagi ishchi o'rnlarni kam vaqt to'xtab qolishini ta'minlaydi. Stendli ta'mirlash usulini qo'llash sexda bir turdag'i jihozlanming soni ko'p bo'lгanda, o'tish yo'lklari keng bo'lгanda va zahiradagi

mashinalar soni ehtiyojni qondirilganda samaraliroq bo'ldi. Stendli ta'mirlash yengil sanoatning barcha korxonalarida qo'llaniladi. Ta'mirlash maydonchasi yoki ta'mirlash sexida ta'mirlashni bir yoki ikki smenada amalga oshirish mumkin, vaholanki uning davomiyligi ishchi o'rinni jihozlar va moslamalar bilan yaxshi jihozlangan bo'lsa ta'mirlash davomiyligi kamayadi.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Individual ta'mirlash yengil sanoatning korxonalarida qanday qo'llaniladi ?
2. Uzelli ta'mirlash yengil sanoatning korxonalarida qanday qo'llaniladi ?
3. Stendli ta'mirlash yengil sanoatning korxonalarida qanday qo'llaniladi ?

### **2.3. JIHOZLARNI TA'MIRLASHNI REJALASHTIRISH**

Ta'mirlash ishlarida qatnashadigan korxonaning barcha bo'limlari aniq va kelishgan holda ishlamaşa jihozlar ta'mirini tashkil qilish mumkin bo'lmaydi.

Ta'mirlash ishlarini rejorashtirishdan maqsad asosiy jihozlar ta'mirlash ishlarini o'rnatilgan muddatda yuqori sifatda va ta'mirlashning minimal narxda davriy ravishda bajarishdadir. Ta'mirlash ishlarini rejorashtirishda bu ishlarni o'tkazish grafigi quriladi, kapital va o'rta ta'mir xarajatlari rejasি, mehnat va ish haqqi bo'yicha reja, detallar va materiallar sarfi rejasи va xarajatlar bo'yicha reja tuziladi.

Ta'mirlash ishlari grafigi. Grafigi korxona ta'mirlash mexanik ustaxonasining (TMU) asosiy ishlab chiqarish dasturini kapital ta'mirlash grafigi bir yilga kvartallar bo'yicha oylarga taqsimlanib tuziladi. O'rta ta'mir grafigi esa har bir Oylar bo'yicha ~~ta'sis~~ kvartalga imlanib tuziladi.

Kapital ta'mirning yillik grafigini bosh mexanik bo'limi ishlab chiqarish sexlari boshliqlari bilan birgalikda tuzadi va korxona bosh muhandisi to'lovidan tasdiqlanadi. Grafikni bosh mexanik, ishlab chiqarish korxonasi rahbari, ishlab chiqarish sexi boshlig'i imzolaydilar. O'rta ta'mir grafigini TMU va ishlab chiqarish sexi boshliqlari tuzadilar va imzolaydilar va korxona bosh muhandisi tasdiqlaydi. Grafikni tuzish uchun mashinalarning turlari bo'yicha soni, jihozlarning ishslash smenalari, har bir turdag'i ta'mirlar davriyligi haqida ma'lumotlar bo'lishi zarurdir.

Ta'mirlash grafigi quyidagi ketma-ketlikda tuziladi. Korxonaning rejalashtirish bo'limi bosh mexanik bo'limiga rejadagi yilning 1 yanvariga o'tnatilgan va ishlatalishga tayyor mashinalar to'g'risida ma'lumot beradi. Ishlar smenasi va ta'mirlash davriyligi haqidagi berilganlarga asoslanib, yil davomida aniq turdag'i ta'mirlanishga muhtoj bo'lgan mashinalar soni aniqlanadi.

Yengil sanoat mashinalarini ta'mirlashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri kelajakda ta'mir xizmatini tashkil qilishda ilmiy-texnikaviy yutuqlarni qo'llashdan iboratdir.

## 2.4. JIHOZLARNI TA'MIRLASHDAGI ILG'OR USULLAR

Ta'mirlashning ilg'or usullariga detonatsiyali qoplash usuli kiradi. Detonatsiyali qoplashni takomillashtirish, tavsifini yaxshilash uchun deto-natsiya hosil qiluvchi gazlar aralashmasi va ikki fazali oqimlar, ya'ni qoplanadigan va detonatsiyalanadigan gazlar materialidan tashkil topuvchi, ularning harakati va detalga ta'siridagi fizikaviy-kimyoviy jarayonlari analiz qilmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Detonatsiyali qoplashni hosil qilish jarayoni ko'p jihatdan asos aniqmas erigan zarralarni detal yoki oldingi qoplasm yuzasida oqishi va kristallashishi bilan bog'liq plazmali qoplash jarayoniga o'xshashdir.

Kimyoviy tarkibi bir jinsli bo'lgan materiallar bilan qoplashda, masalan, metallar yoki oksidlar, erigan va erimagan materiallar aralashmasi o'rniغا, amal-da to'la erigan zarrachalar bilan qoplama hosil qilinishi mumkin. Ayrim kompozitsion metallar bilan qoplashda qoplasm qattiq qotishma VK, erigan kobalt va karbit volfiamning qattiq zonachalari aralashmasi holida amalga oshiriladi.

Detonatsiyali qoplashning plazmali va alangali gaz qoplashdan afzalligi qoplasm hosil qilish mexanizmining tubdan farq qilishi bilan izohlanadi.

Ma'lum bo'lishicha, bunday fazali oqim oxirida nisbatan yaxshi erimagan yirik zarrachalar ikki fazali oqim boshida va o'rtaSIDA zarrachalardan hosil qilingan qoplasm yuzasiga ta'sir qiladi. Natijada, qisman yoki barcha qoplaming obraziv bo'linish samaralari va urib presslash samarasini hosil bo'ladi, ya'ni hosil bo'lgan qoplaming zichligi oshadi. Ko'rsatilgan samaralar, jumladan, qizigan zarrachalarning urilib

presslanishi ikki fazali oqimning oldinga otilishi natijasida hosil qilingan qoplamga ta'siri natijasida ham yuzaga kelishi mumkin.

Detonatsiyali qoplashning plazmali qoplashga nisbatan yana bir sezilarli farqi qoplam hosil qilish vaqtida zarrachalarning deyarli ko'p kon-sentratsiyalashuvi,jumladan, urilib presslanish samarasi va obrazli bo'linishning oshishida namoyon bo'ladi. Zarrachalarning plazmali qoplashga nisbatan ancha yuqori tezligi urilishda katta energiya ajralish imkonini beradi. Buning natijasida zarrachalar va ularning uchrashuv joylari harorati yuqori bo'ladi. Katta tezlik va nisbatan kam harorat mayda dispersiyali (1 mkm) kukunlari sepish imkonini beradi.

Detonatsiyali qoplashdan foydalanish. Yuqorida ta'kidlanganidek, detonatsiyali qoplash plazmali va alangali gaz qoplashlardan ancha yuqori xususiyatlarga ega ekan. Detonatsiyali qoplash, oldindan muvaffaqiyatli qo'llanib kelingan gazotermik va boshqa turdag'i qoplashlar kabi, faqat texnika sohasida qo'llanib qolmasdan, hal qilib bo'lmaydigan masalalarni hal qilish imkonini ham beradi.

Detonatsiyali qoplashning qo'llanish hajmi juda katta. Turli davlatlarda shunga ixtisoslashgan qator zavodlar mavjud. Detonatsiyali usulda qopla-nadigan detallarning turlari va sonlari hoziргi paytda tinimsiz oshib bormoqda.

Dastavval aviatsiya va kosmos sanoatida muvaffaqiyatli o'zlashtirilgan va sinalgan detallari detonatsiya usulida qoplash jarayoni sanoatni boshqa tarmoqlarida ham keng o'z o'rnnini topmoqda.

Detonatsiyali qoplashdan foydalanishning afeal to'lovlaridan yana biri kichik hajmda yeyilishiga yuqori bardoshli bo'lgan konstruksiyalarni hosil qilish imkoniyatidir. Detonatsiyali qoplashning texnologik jarayoni detal konfiguratsiyasiga amalda ta'sir qilmaydi va uning material strukturasiga ham aytarli ta'sir qilmaydi. Chunki detalning o'zi 200 °S dan yuqori qizimaydi. Zarurat tug'ilganda detal havo yoki uglekislotalarni purkash, suv yordamida sovitib turilishi mumkin. Buning hisobiga yuqori aniqlikda tuyyorlangan detallar aniqligini yo'qotishdan, qo'rmasdan qoplash jarayonini amalga oshirish mumkin.

Chiqayotgan gaz holatidagi portlash materiallarning intensiv holda havoga so'rib olinishi natijasida ularning detalga issiqlik ta'siri kamayadi. Uzlusiz ish tartibiga va

uning natijasida katta issiqlik kuchlanishdagi ish muhitiga ega bo'lgan alangalı gaz va plazmali qoplash jarayonidan farqli o'laroq, detonatsiyali qoplash jarayoni foydali energiyani umumlashtirishga yo'nalgan diskret xususiyatiga ega. Uning bu xususiyati past haroratda eriydigan yoki yuqori harorat ta'siriga bardosh bera olmaydigan qog'oz,

gazlama va boshqa materiallarni apparat soplosidan uzoqroqqa, portlash materiali ta'siri kamroq joyga o'rnatib detonatsiya usulida qoplash imkonini beradi. Yengil eruvchi materialdan tayyorlangan detallarning ayrim yuzalarini (masalan, alyumin qotishmasidan tayyorlangan, diametri 10 mm bo'lgan btulkaning ichki yuzasini) faqatgina detonatsiya usulida sifatli qoplash mumkin.

Detonatsiyali qoplashda zarrachalarning kinetik energiyasi shunchalik kattaki, bu suv sathida ham qoplash imkonini beradi.

Detonatsiyali qoplashdan oldin bajariladigan tayyorgarlik ishlari Sifatli qoplarni hosil qilish uchun qoplashdan oldin qator ishlarni bajarish, jumladan, kukun va detal yuzasini tayyorlash zarur.

Hozirgi kunda detonatsiyali qoplash uchun kukun tayyorlaydigan maxsus zavodlarning yo'qligi, kukun metallurgiyasi to'lidan tayyorlanayotgan kukunlardan foydalinish mumkinligini aniqlash uchun ham qator ishlarni amalga oshirish talab qilinadi.

Kukun materialining eng asosiy tavsifidan biri uning granulyatsiyasidir. Sanoatda issiqlik chiqarilayotgan kukunlar ko'p hollarda turli xil granulyatsiyali kukunlardan iboratdir. Shuning uchun ham sifatlari qoplarni hosil qilish, ularni mayda va yirik zarralarga ajratishni talab qiladi. Kukunlarni fraksiyalarga ajratishda elash usulidan foydalilanadi.

Kukunni qoplash uchun uni sochishdan oldin quritish kerak, ayniqsa, zarrachalarining o'lchami 20 mkmdan kichik bo'lgan mayda dispersiyali kukunlardan foydalinishda kukunni quritmasdan sepib bo'lmaydi. Oksidli materiallarni ochiq havoda 200-250 °S haroratda quritish mumkin.

Metalli materiallar 70-100 °S dan ortiq haroratda ochiq havoda quritish qoida bo'yicha tavsiya etilmaydi. Har qanday qoplash uchun foydalilanadigan kukun

materiallari vakuumli quritish shkaflarida 200 °S dan yuqori haroratda kamida bir soat davomida quritiladi. Bunda nafaqat namliklar chiqarib yuboriladi, balki zarrachalar yuzalari qisman tozalanadi ham. Kukunni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sochishdan oldin quritish uning dozatordan stvolga tushish sharoitini yaxshilash imkonini beradi.

Qoplaming keyingi mexanik ishlov berishlarga bardoshliligini, detalga yaxshi yopishishini ta‘minlash uchun detalning qoplanadigan yuzasi har xil iflosliklardan: moy qoldiqlari, oksidlangan pleyonkalarni yaxshilab tozalanishi kerak. Bundan tashqari, solishtirma yuzasi imkon qadar oshirilishi zarur.

Yuzalari mexanik usulda tayyorlash (jilvir qog‘oz, qum sochish) qattiq iflosliklar, moylar, yog‘dan geometrik o‘lchamlarni o‘zgartirmasdan tozalab, haqiqiy birikish maydonini oshirish qoplaming metall qismi chegarasi ta‘sirini oshirish imkonini beradi.

Yuzalarga obraziv zarralar bilan ishlov berish, yuzalarni qoplashdan oldin to‘g‘ridan-to‘g‘ri detonalsiya oshirilib tayyorlanadi.

Maksimal qattiqligi HRC 61 bo‘lgan po‘lat material yuzalariga obraziv ishlov berish natijasida yuzalarning notejisligi 2-12 mkm oralig‘ida ( $Rk0,5-2.5mkm$ ) o‘zgarishi mumkin.

Nisbatan yumshoq materiallar (masalan, alyumin qotishmalarining) yuza notejisligi 2-20 mkm ( $Rk 0,5-4 mkm$ ) oralig‘ida bo‘ladi.

Detonatsiyalovchi qurilmaning ish unumдорligi. Detonatsiyali qoplashning samaradorligi qurilmaning tez qotish xususiyati, stvol geometriyasi va qoplam qalinligi orqali aniqlanadi. Detonatsiyalovchi qurilmaning tez o‘tishi sekundiga 1- 4 o‘tishga teng. Bir marta o‘tishdagi qoplaming egallagan maydoni  $3-5 \text{ sm}^2$ , qalinligi 3-10 mkm ni tashkil qiladi.

Qoplaming qalinligi detalning bajaradigan vazifasiga qarab belgilanadi. Qoplam, barcha hollarda, qalinligi bo‘yicha uch qismga bo‘linadi:

1) o‘tish qismi, detal bilan qoplaming mustahkam ishlashini aniqlaydi va 5-30 mkm ni tashkil qiladi;

2) yuza qismi, 10-40 mkm bo‘lib, asosan, detalga mexanik ishlov berishda kesib tashlanadi.

3) asosiy qismi, 30-150 mkm ni tashkil qilib, detal va qoplaming vazifasiga bog'liq holda qabul qilinadi.

Qoplaming umumiy yig'indisi 45-220 mkm oralig ida bo'ladi.

Hisob-kitoblarga qaraganda, qabul qilingan sharoitda 200 mkm qalinlikdagi qoplaming hosil qilish sekundiga  $0,1 - 1,0 \text{ sm}^2/\text{ni}$  tashkil qilar ekan. Bundan ko'rindaniki, bir stvollni qoplash qurilmasining unumdorligi unchalik katta emas ekan. Shuning uchun ham ish samaradorligini faqat stvollar sonini ko'paytirish hisobiga oshirish mumkin ekan.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Mashinaning sifati , mustahkamligi deganda nimani tushunasiz?
2. Tasodifiy to'xtab qolishlar qachon sodir bo'ladi?
3. Texnik foydalanish koeffitsienti qanday aniqlanadi?
4. Jihozlarning strukturaviy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
5. Mashinalar texnik holatdan qaysi tartibda o'tkaziladi?

Tayanch iboralar:

Mashina, grafik, g'altak, kompleks avtomatlashtirish, siluet kompleksi, kontur, bichish mashinasi, pedal,gazlama, yoritgich, stanok, sharikli podshipnik, qisuvchi valik, yo'naltirgich.

### **3. MASHINALARNI BO'LAKLARGA AJRATISH TEXNOLOGIYASI**

#### **3.1 TIKUV MASHINALARINI QISIMLARGA AJRATISH**

Kapital ta'mirlash navbatiga kelgan yoki ta'mirlanishga muhtoj bo'lgan mashinalar ta'mirlash mexanik ustaxonasi ustasi to'lovidan sex boshlig'i yoki ustasi ko'rsatmasi bilan ta'mirlash grafigida o'rnatilgan muddatda ishdan to'xtatiladi. O'rta ta'mirlanishi lozim bo'lgan mashinalarga o'z vaqtida detallar tayyorlash uchun, ta'mir boshlanishidan kamida 5 kun oldin sex ustasi to'lovidan nuqsonlar qaydnomasi tuziladi. Kapital ta'mirlash paytida nuqsonlar qaydnomasi ta'mirlash mexanik ustaxonasi (TMU) ishchilari to'lovidan sex ustasi bilan birgalikda mashinaning oxirgi joriy ko'rugi davrida tuziladi va ta'mir boshlanishidan 15 kun oldin aniqlanadi, shuningdek, mashinani bo'laklarga ajratish davomida ham aniqlanadi.

Agar mashina navbatdagi ta'mirga to'xtatish muddati kelganda yaxshi ishchi holatda bo'lsa, mashina ta'miri reja bo'yicha yaqin vaqtdagi ta'mir muddatiga o'tkaziladi. Mashinaning holati to'g'risida TMU boshlig'i ishlab chiqarish sexi boshlig'i bilan birgalikda ko'rik dalolatnomasi tuzadi va bu dalolatnomaga korxona bosh muhandisi to'lovidan tasdiqlanadi.

Nuqsonlar qaydnomasini tuzishda mashina ish samaradorligini va ishlov beriladigan mahsulot kamaytiradigan, mashina ishining xavfsizligi va mustahkamligini pasaytiradigan nosozliklarga ko'proq e'tibor beriladi.

Mashinani ta'mirga qabul qilishda jihozlarning ishlatish paytidagi saqlanish sifati baholanadi. Agar topshiriladigan mashina butun saqlangan va toza holatda bo'lsa, uning saqlanishi yaxshi deb hisoblanadi. Agar mashinada singan yoki detallari o'z vaqtida moylanmagani tufayli uzel va detallar tez yeyilgan, butligi buzilgan, mashinada ishlash uchun xavfli bo'lishiga olib keladigan moslama yoki to'siqlar nosoz holatda bo'lsa, mashinaning saqlanishi qoniqarsiz hisoblanadi.

Mashina va mexanizmlar, ularning qismlari, shuningdek, detallarni tiklash texnologik jarayonida ko'rsatilgan barcha ishlar maxsus asbob-uskunalar bilan

jihozlangan ish joylarida, mavjud texnologiyaga aniq rivoja qilgan holda, aniq bajarilishi lozim.

Jihozlarni ta'mirdan qabul qilib olish. Jihozlar o'rtalari va kapital ta'mirga ikki—boshlang'ich va yakuniy bosqichda qabul qilib olinadi. Jihozlarni boshlang'ich qabul qilib olishda ta'mirdan so'ng mashina yurgizilib chiniqtiriladi va bu paytda uning ishga tushirishga yaroqliligi ta'minlanadi. Jihozlami yakuniy qabul qilib olishda, boshlang'ich qabul qilishda aniqlangan nuqsonlar bartaraf etiladi. Mashinalar kapital ta'mirdan keyin barcha vazifalarni to'liq bajargan holda to'qqiz smena ishlaganidan so'ng qabul qilib olinadi. O'rta ta'mirda esa to'la quvvat bilan uch smena ishlaganidan so'ng qabul qilib olinadi.

Mashinani ta'mirdan so'ng chiniqtirish yuqori malakali ishchilar to'lovidan amalga oshirilishi kerak va bu ish uchun sarflangan vaqt ta'mirlash vaqt me'yoriga kirmaydi. Boshlang'ich qabul qilib olishdan yakuniy qabul qilib olishgacha bo'lган davrda mashinaga me'yorida xizmat ko'rsatish uchun sexdan biriktirilgan shaxs javobgar hisoblanadi. Mashinani ta'mirdan qabul qilib olish dalolatnomasi u uzilkesil qabul qilib olinganidan so'ng darhol tuzilishi kerak.

Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi sex ishchilari aybi bilan o'z vaqtida tuzilmasa, ta'mirdan chiqarilgan mashina ishlatishga qabul qilingan deb hisoblanadi va dalolatnomasi bosh mexanik to'onidan imzolanadi. So'ngra bosh mexanik chora ko'rilishi uchun bosh muhandisni bundan xabardor qiladi. Mashinani kapital ta'mirdan so'ng ishlatishga TMU boshlig'i topshiradi, ishlab chiqarish sexi boshlig'i esa uni qabul qilib oladi. O'rta ta'mirdan so'ng esa mashinani TMU masteri ishlatishga topshiradi va ishlab chiqarish sexi masteri qabul qilib oladi.

Ta'mir sifati «a'lo» va «yaxshi» baholarda baholanadi. Agar mashina texnik shartlarga mos ravishda qat'iy ta'mirdan o'tkazilgan va yuqori texnologik ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, unda «a'lo» baholanadi. Agar mashinaning alohida detallarida ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga va mashina ishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmaydigan, tasdiqlangan texnik shartlardan uncha katta bo'limgan chetlatishlar aniqlansa, unda mashina «yaxshi» bahoga baholanadi.

Mashinalarni ta'mirlash paytida uning detallarini tozalash, yuvish, nuqsonlarini

aniqlash, yeyilgan va singan detallarni tiklash, bo'laklarga ajratish, yig'ish, sozlash va boshqa ishlarni amalga oshirish lozim. Birinchi chizmada mashinalar ta'miri texnologik jarayonining chizmasi ko'rsatilgan bo'lib, unda ta'mir olib borilishi davomida bajariladigan asosiy ishlar ko'rsatilgan.

Bunday chizmalar jarayonlarining ratsional ketma-ketligi va ishlarning optimal tartibini aniqlashga, turli xildagi asbob va moslamalar qo'llash yo'li bilan ta'mirlash ishlarini maksimal mexanizatsiyalashtirishga, ta'mir sifatini yaxshilash va ular narxini pasaytirishga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirishda yordam beradi.

Texnologik jarayonni ishlab chiqishda boshlang'ich holat sifatida detal va uzellar iganasozliklari, ta'mirlash ishlarining hajmi, detallarga qo'yilgan texnik shartlar va mashinalari ta'mirdan so'ng yig'ishga qo'yilgan texnik shartlar xizmat qiladi.

Mashinalarni ta'mirlash texnologik jarayoni 1 - jadvalda keltirilgan  
jadval-3



Texnologik jihozlarni bo'laklarga ajratish paytida ta'mirlash ishlarini yuqori saviyada o'tkazish va tashkil etishni ta'minlaydigan aniq harakat tartibini saqlash zarur. Mashinani bo'laklar va alohida detallarga ajratishda ishlar ko'pincha quyidagi tartibda bajariladi:

- mashina va mexanizmlar ishining noso ~~ishining~~ to'liq aniqlash;
- mexanizmlari uzel va detallarga ajratish ketma-ketligini o'rnatish;
- mexanizmlari uzel va detallarga ajratish;
- detallarni tozalash va yuvish;
- detallarning yeyilish darajasi va tavsifini aniqlash;
- detallarni navlarga ajratish.

Ta'mirlashni yuqori sifatlari qilib o'tkazish va uni bajarilish muddati ma'lum darajada mashinalarni bo'laklarga ajratish jarayoni qanday o'tkazilganiga bog'liq.

Yengil sanoatning tikuvchilik va poyabzal ishlab chiqarish hamda boshqa ko'plab korxonalarda tikuv mashinalari ishlataladi. Shuning uchun biz bo'laklarga ajratish jarayonini tikuv mashinalari misolida ko'rib o'tamiz.

Ta'mirlovchi-chilangar tikuv mashinalarini bo'laklarga ajratishdan oldin uning vazifasi, tuzilishi, mexanizmlarining o'zaro harakati va sozlash ishlari bilan tanishishi kerak. Buni berilgan mashina chizmalari va mos keladigan ko'rsatmalari bilan tanishib hamda mashina ishini kuzatib amalga oshirish mumkin. Faqat shundan so'nggina mashinani bo'laklarga ajratishga kirishish mumkin.

Ajratilgan detallarni va yig'ma qismlari adashtirib yubormaslik uchun ajratish vaqtida har bir qism va detal belgilanishi yoki raqamlanishi kerak.

Jihozlari poydevoridan ajratmasdan ta'mirlash paytida (masalan, dazmollash presslari, tasmali bichish mashinalari va boshqalar) ularning energiya tizimidan moylar to'kiladi va yurib turuvchi qurilmalari to'xtatiladi.

Bo'laklarga ajratish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak:

- qo'llanadigan asbob va moslamalar yaroqli detallari shikastlantirmasligi kerak;
- bo'laklanadigan detallarni shikastlantirmasdan yechish kerak;

- murakkab yo'l bilan yechiladigan detallarga ortiqcha kuchlanish bermaslik kerak;
- detallarga bolg'a bilan zarba berishni taxta yoki boshqa yumshoq moslamalar orqali amalga oshirish kerak;
- uzun vallami bir necha tayanchlar qo'yib bo'laklarga ajratish kerak;
- bo'laklarga ajratilgan har bir mexanizm detalini alohida qutilarga joylashtirish kerak;
- detallar solingan qutilarni qopqoq bilan zichlab berkitish kerak;
- yaroqli podshipniklarni yuvish, quritish, moylash va qog'oz bilan o'rabi qo'yish kerak;
- to'liq bo'laklarga ajratish paytida bolt, shayba va boshqa qotirish detallarini maxsus qutiga joylashtirish kerak;
- bo'laklarga ajratish paytida uzellarning o'z-o'zidan alohida qismlarga ajralib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Mashinalarning qattiq va qo'zg'aluvchan birikmalarini yechib olish paytida yoqilinishi lozim bo'lgan qoidalar va texnologik jarayonni ko'rib o'tamiz.

Korroziyaga uchragan rezbali birikmalarni bo'laklarga ajratishdan oldin kerosin bilan yuvish zarur. Bu bo'laklarga ajratishni osonlashtiradi, vintlarning sinishiga yo'l qo'ymaydi.

Mashinalarni bo'laklarga ajratishda ko'p hollarda singan vintlar shpilkalar, presslar vtulkalar, shkivlar, shponkalarni burab olish qiyinchilik tug'diradi.

Vintlar, boltlar, shpilkalarni burashda haddan tashqari katta kuch ishlatish talab qilinmaydi. Ayniqsa, kichik diametrдagi qotirish detallarini burab yechishda katta kuch ishlatish mumkin emas, chunki bunday holatlarda uning kallagi yoki gayka sinishi mumkin. Vint kallagi uzilgan paytda **buragich** (otvertka) uchun vint kallagini kreytsmeysel bilan chopish yoki arracha bilan yangi shlitsali o'yiq ochish mumkin. Agar yangi shlitsa o'yig'ini arralash mumkin bo'lmasa, unda vint parmalab olinadi yoki vint 1markaziga 10-15 mm chuqurlikda teshik teshiladi va unga ikki bor kreytsmeysel bilan chopish yoki arracha bilan yangi shlitsali o'yiq ochish mumkin.

Bor gaykali kalitga moslashtirilgan, kvadratsimon kallakli, toblangan konussimon tishli sterjendir. Bo'rli burab, vint yechib olinadi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Mashinaning sifati va mustahkamligi deganda nimani tushunasiz?
2. Mashinaning chidamliligi va ishga yaroqliligining ta'rifini keltiring?
3. Mashinaning nosoz holatini qanday tushunasiz?
4. To'xtab qolish nima? Mashinaning ta'miriga yaroqliligi haqidagi ta'rifini ayting?
5. Tasodifiy to'xtab qolishlar qachon sodir bo'ladi?

## **3.2.DETALLARNI TOZALASH VA YUVISH**

Mashina bo'laklarga ajratilib, nazorat va ta'mirlashga yuborishdan oldin detallari tozalanadi va zarur hollarda yuviladi. Ta'mirlanadigan mashinalardan yechib olingan detallar chang va boshqa turli xil iflosliklar bilan qoplangan bo'ladi. Bu iflosliklarning ba'zilari metalldan yasalgan detallar sirtlari bilan kimyoviy ravishda mustahkam yopishgan bo'ladi (atmosfera korroziyasidan hosil bo'lgan zang va boshqalar), boshqalari esa zaif adsorptionli kuchlar bilan (tolali, metalli, abraziv va boshqa zarralar) qoplangan bo'ladi. Birinchi turdag'i iflosliklar kuchli organik va anorganik kislotalar bilan ishlov berib tozalanadi, shuningdek, elektnokimyoviy yoki ultratovushli ishlov berish yo'li bilan ham tozalanadi. Ikkinci turdag'i iflosliklar havo purkab, bosim ostida suv purkalib, cho'tkalar, abrazivlar bilan ishlov berilib va boshqa mexanik usullarda tozalanadi.

Korpusli yirik gabaritli detallar (stanina, rama va boshqalar) dastagi va mexanizatsiyalashgan cho'tkalar yordamida, shuningdek, qisilgan havoni purkash yoki iflosliklar maxsus sanoat changyutgichlari bilan so'rib olinib tozalanadi. Bu detallardagi ichki rezbalar o'tkir qirrali, ilmoq ko'rinishida qayirilgan latunli simlar yordamida tozalanadi.

Juda kichik detallar chang va boshqa iflosliklardan ba'zida qo'l yordamida tozalanadi. Biroq bunday tozalashning sifati past, unga vaqt ko'p sarflanadi va ishlab

chiqarish xonalari ifloslanadi. Shuning uchun kichik detallarni maxsus qurilmalardan, shuningdek, metalli aylanuvchi setkalardan foydalaniib, maxsus xonalarda tozalash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Po‘lat va cho‘yandan yasalgan detallar kam uglerodli po‘lat simlardan tayyorlangan metall cho‘tkalar yordamida tozalanadi, latundan yasalgan detallar esa latun simlardan tayyorlangan cho‘tkalar yordamida tozalanadi. Detallarni chiqiqlardan, zaif zanglardan, shuningdek, yuvilgan so‘nggi iflos qoldiqlaridan tozalash uchun kapron va boshqa sintetik materiallar qo‘llanadi.

Hozirgi vaqtida detallarni elektro mehanik usulda tozalash keng tarqalgan bo‘lib, ushbu jarayon mehnat unumdorligini 2-3 marta oshiradi. Bu maqsadda yuqori chastotali tokga ega bo‘lgan elektrik jilvirlash mashinasi ishlataladi. Bu mashinada abraziv aylana o‘miga metall cho‘tka o‘matilgan. Unga elektr toki transformatoridan kontaktli g‘ildirak orqali yetkaziladi. Boshqa qutb transformatoridan o‘tkazgich bilan detal qistirilgan qisqich orqali birlashtiriladi.

Zarur bo‘lganda, detallar tozalanganidan so‘ng yuviladi. Ko‘p korxonalarda detallarni kerosin bilan yuvish keng tarqalgan. Lekib bunday yuvish xonalari ifloslantiradi va yong‘in chiqish xavfini tug‘diradi. Shuning uchun detallarni yuvishni maxsus xonalarda o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Iflosliklarni issiq suv aralashmasi bilan yuvish usuli arzon va qulay hisoblanadi. Panjaralari (5) metall vannaga(l) ifloslangan detallar joylashtiriladi

(6-rasm, b). Panjara ostida elektr isitish elementlari (4) yoki aralashmani isitish uchun bug‘ quvuri joylashtirilgan.

Vannadagi detallar cho‘tkalar bilan tozalanadi. Yuvish jarayonini tezlashtirish uchun elektr yuritmasidan harakat oladigan kichik nasos o‘rnatish mumkin. Nasos (3) quvur (2) orqali aralashmani brandspayt (6) shlangiga uzatib beradi. Vanna ustida tortuvchi zont (7) o‘matilgan bo‘lib, buzont quvuri orqali bug‘ atmosferaga chiqarib yuboriladi. Brandspayt quvuridan chiqadigan suv aralashmasi yo‘nalishi detallarga yo‘naltiriladi va ularni yuvish tezlashadi.


Po‘lat va cho‘yandan yasalgan detallarni yuvish uchun vannaga kukunli aralashma

solinadi. Bu aralashma quyidagi tarkibda bo'lishi mumkin: natriy 10 g/l, kalsiylashtirilgan soda 7,5 g/l, fosforli natriy 13 g/l, sovun 2 g/l. Aralashma harorati 70-80 °S bo'lishi kerak. Boshqa eritmalardan tayyorlangan detallarni yuvish uchun aralashma tarkibi va 1 litr suvdagi uning miqdori o'zgartiriladi.

Detallar kukun aralashmasi bilan yuvilganidan so'ng korroziyaning oldini olish va ulardan kukun qoldiqlarini tozalash uchun xuddi shunday vannada issiq suv bilan yuviladi. Detallar nisbatan yuqori haroratda yuviladi, shuning uchun yuvilgan detallarning o'zi tez quriydi.

Detallarni yuvish usullaridan yana biri bu tozalanayotgan detal sirtlariga aralashma bilan bug' birgalikda bosim osti purkaladi. Yuvishtning bunday usuli sirtlari katta bo'lgan detallarni tozalashda qulay. Bir vaqtning o'zida 100 dan 16005 m<sup>2</sup> bo'lgan yuza maydoni 5-30 °S da tozalanadi. Tozalanish sifati juda yuqori bo'ladi. Tozalangan sirtlari takroran chayqash yoki yuvish talab etilmaydi.

Hozirgi vaqtida detal va uzellarni tozalashning ultratovushli usuli keng tarqalmoqda. Bunday usul faqat tozalash sifati va samaradorligini oshirib qolmasdan, balki murakkab ko'rinishdagi detallarni yuvish imkonini ham beradi.



8-rasm. Yuvish vannalari

Ultratovushli tozalash usuli quyidagicha amalga oshiriladi. Yuvisht suyuqligida yuqori chastotali tebranishlar qo'zg'atiladi va buning ta'sirida ifloslangan yuzaga mexanik ta'sir etuvchi kavitationshlar hosil bo'ladi. Bu paytda sodir bo'ladigan zorbali to'lqinlar ifloslik va moy qatlamini buzadi va parallel ravishda iflosliklarning yuvisht aralashmasi bilan kimyoviy hamkorligi sodir bo'ladi. 6-rasmning "b" shaklida magnit konstruksiyali o'zgartirgich bilan ultratovushli tozalash vannasi chizmasi keltirilgan. Qurilma 1- yuvisht aralashmasi, 2-ultratovushli tebranishlar transformatori, 3-magnit konstruksiyali o'zgartirgichlar tuzilgan. Ultratovushli tozalash uchun vannada yuvisht suyuqligi sifatida kukunlarning suvli aralashmasi, sintetik sirt aktivligini oshiradigan moddalar va organik aralashmalar ishlataladi.

Baxtsiz hodisalar va yong'in sodir bo'lishining oksidli yuvisht bo'limida texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rivoja qilish va yong'in xavfsizligiga doir tadbirlar o'tkazish talab etiladi.

#### Takrorlash uchun savollar

1. Jihozlarni ta'mirlashga topshirish va qabul qilish tartibini tushuntiring?
2. Jihozlarni ta'mirlash texnologik jarayoni sxemasi qanday tuziladi?
3. Mashina va mexanizmlarni bo'laklarga ajratish qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Krivoship polzunli mexanizmning yig'ish texnologiyasini tushun!
5. Texnik foydalanish koeffitsienti qanday aniqlanadi?
6. Jihozlarning strukturaviy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?

### 3.3. JIHOZLARNI YIG'ISH TEXNOLOGIYASI

Jihozlarni yig'ish ta'mirlash texnologik jarayonining bir qismi bo'lib, unda tayyor detallar, uzellar va agregatlar ma'lum ketma-ketlikda yig'iladi va buning natijasida belgilangan texnik talablarga to'liq javob beradigan mashina yoki mexanizm olinadi. Yig'ish jarayoni uzelli va umumiyligi yig'ishlarga bo'linadi. Uzelli yig'ishda alohida detallardan uzel yoki agregatlar yig'iladi, umumiyligi yig'ishda esa uzel va agregatlardan mashinalar yig'iladi. Mashinalarni yig'ishning mehnat hajmi ta'mirlash umumiyligi mehnat hajmining 40 foizini tashkil qiladi. Ishlab chiqarilgan talablari bilan bog'liq

ravishda mashinalarni yig'ish uzel va detallarning o'zaro almashinuvchanligini saqlagan holda, detallami guruhlar bo'yicha navlarga ajratish, detallarni tanlash, konpensatorlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Detallarni guruh bo'yicha navlarga ajratishda juftlikda ishlaydigan detallarni guruhli tanlash usulidan foydalaniladi.

Yig'ishga keltirilgan detallar o'lchamli guruhlar bo'yicha navlarga ajratiladi.

Mashinalarni yig'ish odatda ularni bo'laklarga ajratish jarayoni ketma-ketligida, lekin faqat teskari tartibda amalga oshiriladi, Texnologik jihozlarni yig'ishda qo'zg'almas birikmalar birlashtiriladi, qo'zg'aluvchan birikmalar esa mos keladigan oraliqlar bilan birlashtiriladi va sozlanadi.

Yig'ish uchun keltiradigan detallar va yig'ma birikmalar yaxshi tozalangan bo'lishi kerak. Ishqalanib (tegib) ishlaydigan detallarning yuzalari yig'ishdan oldin artiladi va siqilgan havo bilan parchalanadi, ishqalanuvchi yuzalar esa turli navdag'i yog'lar bilan moyланади. Yig'ma birikmalarni hosil qilgan detallar erkin harakatlana olishi kerak. Harakatlanmaydigan birikmalardagi detallarni stendlarda yig'ish tavsija etiladi. Detallarni bolg'a bilan taxtakachlashda maxsus tayanchlardan foydalaniladi, beriladigan zarblarni detalga bo'ylama ta'sir qilishiga ruxsat etilmaydi. Podshipniklami valga o'tkazishda 90-100 °S haroratgacha qizdiriladi. Podshipniklar yig'ib bo'lingandan so'ng solidol bilan birikmalar to'ldiriladi. Boltlar va gaykalar yig'ish uchun talab etilgan mo'lent kuchlari bilan tortiladi. Bu dinamoelektrik kalitlar orqali nazorat qilinadi. Saqlovchi muftalar har bir uzatma uchun ma'lum mo'lent kuchlariga rostlanadi. Ta'mirlangandan keyin mashinalar sinab ko'rilib, qisman bo'yaladi. Zavodda qanday rang bilan bo'yalgan bo'lsa, ta'mirdan so'ng ham xuddi shu rang bilan bo'yaladi.

Tozalash, yuvish, detallarga ajratish, yig'ish, bo'yash va detallarni nazorat qilishda texnika xavfsizligiga va ishlab chiqarish tozaligiga to'la amal qilinishi lozim


Detallarni komplektlash asoslari detallarni komplektlash (jamlash) mashinalarni ta'mirlash texnologiyasida eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Komplektlash buyumlarni yig'ish uchun zarur bo'lgan mos detallari tanlab butlashdan iborat Detallarni butlashda quyidagi vazifalar hal etiladi:

detallarni, yig'ma qismlari va butlovchi buyumlarni toplash, hisobga olish va saqlash, detallarni roli va soni bo'yicha tanlab toplash, detallarni o'lchamlari, vazni

va o'zaro muvozanatlanganligi bo'yicha tanlash. Dastlabki ikki masala hal etilganda mashinalarni yig'ish uchastkalarini zarur detallar bilan uzlusiz ta'minlash imkoniyati yaratiladi, binobarin, buyumlarni ta'mirlash jarayoni bir tekisda boradi. Ta'mirlash korxonalarida ham yangi, ham ta'mirlangan va zarur o'lchamli (joiz darajada yeyilgan) detallardan foydalilanadi. Shuning uchun ham detallarni nazorat qilish va tanlash juda zarur ishdir.

Rezbali birikmalar ma'lum kuch bilan yig'ilishi kerak. Rezbali birikmalarni burabot qotirish kuchini aniqlash uchun maxsus asbob - dinamoetrik (kuch o'lchagich) kalitlar ishlataladi.

Yig'ish ishlarini ko'plab universal tikuv mashinalarida ishlataladigan krivoship-shatunli igna mexanizmi misolida ko'nish mumkin (9-rasm). Asosiy val 23 ga 3 dona podshipnik 24 o'matilgan bo'lib, unda val aylanma harakat qiladi. Valni o'ng uchiga maxovik g'ildiragi 26 vintlar 25 yordamida mahkamlangan. Maxovik g'ildirak 26 ni o'ng yon tomoniga, uni qo'lda aylantirish uchun 3 ta vint bilan qopqoq 27 qotirilgan.



9-rasm. Krivoship-shatunli igna mexanizmining yig'ish chizmasi.

Maxovik g'ildirak 26 kanavkasiga ponasimon tasma 28 kiritilib, u elektrodvigatel' shkividan aylanma harakatni bosh valga yetkazib beradi. Bosh val 23 ni chap uchi qismiga, vint 30, yordamida krivoship 29 qotirilgan. Krivoship (kulachok) teshigiga barmoq 14 kiritilgan bo`lib, ikkita vint 21 bilan mahkamlangan. Barmoq 14 ni tashqi yelkasiga ignali podshipnik 13 o`rnatilgan va shatun 7 ni ustki kallagi kiydiriladi. Shatun 7 ni yuqori kallagini o`q bo`ylab siljishi shayba 10 ni rezbali vint 8 yordamida bartaraf qilingan. Shatun 7 ni pastki kallagi vint 5 orqali igna yuritgich 3 yo`naltiruvchiga qotirilgan povodok 6 ni barmog'iga kiritilgan. Povodok 6 barmog'ining o`ng tomoniga, mashina korpusiga vintlar yordamida mahkamlangan yo`naltirgich 33 ni kanavkasiga joylashgan polzun 32 ga kiydirilgan. Ignna yuritgich 3 mashina korpusiga vint 11 yordamida qotirilgan, ikkita vtulka tayanchlar ichida chiziqli harakat qiladi.

Ignna yuritgich 3 ni pastki qismida simdan maxsus yasalgan ip-yo`naltirgich 2 mahkamlangan. Bosh val 23 krivoship 29 va uni barmog'i 14 aylanganda, aylanma harakat shatun 7 orqali igna yuritgich 3 ga qotirilgan igna 1 ni ilgarilanma-qaytma harakatiga aylanadi. Ignna 1 ni o`rnatishdan oldin maxovik g'ildirak 26 ni aylantirib igna yuritgich 3 yuqori holatiga keltiriladi. Vint 15 bo`shatiladi, igna 1 ni ignatutgichni oxiriga qadar kiritiladi, qisqa ariqchasi moki uchi tomoniga qarab 35 vint bilan mahkamlanadi, igna singanda yoki shikastlanganda shu uslubda almashtiriladi. Ignani moki uchiga nisbatan balandligi vint 5 ni vinti bo`shatilgandan keyin igna yuritgich 3 ni vertikal o`q bo`yicha surilib rostlanadi. Buning uchun igna 1ni naycha tutgich pazi 16 ni tagidan igna ko`zini yarmi ko`rinib turadigan qilib, eng pastki holatiga tushirib qo`yiladi. Texnologik jarayon bosqichi: g`altakdag'i ip, ushlagich 1 o`rnatiladi, ip tortgich orqali igna teshigidan o`tadi, materiallar harakatlanishi bilan igna va moki siklogamma bo`yicha harakatni boshlaydi. Ip o`tkazilgan igna tikilayotgan materiallar qatlamanidan o`tib, moki ichidagi ip bilan chalishib uni yuzaga olib chiqadi, birta banya hosil qiladi. Bu sikllar to`xtovsiz davom etadi va materiallarda banya qatorlari hosil bo`lib, ikki yoki undan ortiq qatlamlari materiallarni ip yordamida biriktiradi, ularni o`zaro zikh bo`lishi banya

qatormi qadamiga, material turiga, zichligiga, birikadigan materiallar soniga bog'liq bo' ladi va mashina unumdorligini aniqlaydi.

Biz quyida «Juki» firmasining LN-1162 ikki ignedali, moki bahyali tikuv mashinasidan ipni qirqish qurulmasi uzelini bo'laklarga ajratish va yig'ish tartibini ko'rib chiqamiz. Bo'laklarga ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

jadval-2

Ikki to'londan ham olinadi	Qo'zg'almas pichoqlardan o'rnatish vintlarini bo'shatish uchun universal gaykali kalit ishlatalishi lozim
Uzatish pichog'i ajratiladi	O'ng va chap to'londa tebrana yotgan 9 va 10-raqamli koromislolardan shamirli vintlar chiqarib olinadi
Tebranayotgan 9 va 10-raqamli koromislolar qo'zg'aluvchan Shamirlari vallardan ajratib olinadi	Ularni qisuvchi vintlar bo'shatiladi
Itarish plitasi yechib olinadi	Ikkita o'rnatish vinti yechiladi
5-raqamli birlashtirish simi 19-raqamli koromislodan ajratiladi	19-raqamli koromisloni qisib turgan ikkita gayka yechiladi
Mokidan yuritish vali olinadi	Tarkibiy qismlarni valga qotirib turgan o'rnatish vintlari bo'shatiladi
8 va 9-raqamli qo'zg'aluvchan pichoqlar shamirlari yechiladi	O'rnatish vintlari bo'shatiladi
1-raqamli montaj asosi yig'ma holatda yechib olinadi	Montaj asosining ikkita mahkamlash vinti yechib olinadi

Komplektlashdagi asosiy talab - qismlarning aniq yig‘ilishini ta’minlashdan iborat bo‘lib, birikmalarning o‘lcham zanjiri texnik shartlarga javob berishi lozim. Bu talablarni quyidagi usullarda bajarish mumkin:

- 1) To‘liq o‘zaro almashinuvchanlik usuli. Bu usulda barcha detallarning o‘lchamlari zarur chetlashish chegarasida bo‘lishi lozim. Bu usulni uzuksiz ishlab chiqarish jarayonida va o‘lcham zanjirlari qisqa (2-3 detallardan iborat) bo‘lganda qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi;
- 2) Chala (qisman) o‘zaro almashinuvchanlik usuli. Bu usul o‘lchamlarning zarur chetlashish chegarasi kengaytirilganda qo‘llaniladi.
- 3) Rostlash usuli Detallarni yig‘ishda yordamchi zveno ishlatiladi. Bu zveno yordamida zarur chetlashish ta’milanadi, yordamchi zveno sifatida kiruvchi vtulka, shayba, qistirma kabilardan foydalaniлади;
- 4) Mashinalarni yig‘ish. Mashinalami yig‘ish jarayoni muhim ish hisobланади va mashinalarni ta’mirlashda, ayniqsa, rezbali, taxtakachlanadigan, o‘qdosh va aylanuvchan birikmalarni yig‘ishda ko‘p vaqt oladi. Birikma bolt, gayka shplintdan iborat bo‘ladi.

Komplektlashga yuboriladigan detallar o‘lchamlari, zarur chetlashishlar va o‘lchamlarning kerakli chetlashish chegarasining kengligi jihatidan har xil bo‘ladi. Detallar qator belgilariga; o‘lcham guruhlari va ta’mir o‘lchamlariga qarab komplektланади, bundan maqsad qo‘shilmalarning zarur tirqish bilan yoki taranglik bilan yig‘ilishimi ta’minlashdan iborat.

Detallarning qo‘shilmalardagi tirqishini texnik shartlariga javob berадиган qilib komplektlash kerak. Detallar ta’mir o‘lchamlari va vazni bo‘yicha komplektланади:

1. Detallarni o‘lchamlari bo‘yicha komplektlash. Masalan: 1 -ta’mir o‘lchamli val 1 -ta’mir o‘lchamli o‘ng kiygiziluvchi detallar bilan birga yig‘ilishi kerak (bular nominal o‘lchamli 1,2,3 va 4-ta’mir o‘lchamli bo‘ladi). Bundan tashqari, ba’zi detallar zarur chetlashish chegarasi keng qilib tayyorланади, shuning uchun ular o‘lcham guruhlari bo‘yicha sarаланади.
2. Qismlarni yoki mashinalarni yig‘ish ish joylari uchun belgilangan detallar ro‘yxati

bo'yicha komplektlash. Bu ishlar maxsus komplektlash uchastkasida bajariladi. Bu uchastka detallarni qo'yish uchun maxsus uskunalar: stellajlar, tagliklar, ko'chma aravachalar, komplektlash yashiklari va konteynerlar bilan jihozlanadi. Detallarni tanlashda komplektlash ro'yxatidan foydalaniladi. Bu ro'yxatda qism yoki agregatdag'i detallar nomeri, nomi va soni ko'rsatiladi. Tanlashda detallar idishlarga (korzina, yashiklar, komplektlash aravachalariga) solinadi. Bu idishlar detallar komplektini tashish va yig'ish joylarida ishlash uchun qulay bo'lishi kerak.

Komplektlash bo'limida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Detallar komplektini ish joyida ro'yxatga qarab tanlash.
2. Detallarni tekshirish va ta'mir o'lchamlari bo'yicha tanlash.
3. Detallarni tekshirish va o'lcham guruhi bo'yicha tanlash.
4. Detallarni vazni bo'yicha tanlash.
5. Pitirlari tozalash va birikmalarga bir oz chilangarlik ishlovi berib, ulami bir-biriga moslash.

6. Shestemyalar komplektini tanlash va chiniqtirish.
7. Komplektlash bo'limiga keltiriladigan detallarning sifatini umumiy tekshirish
8. Komplektlash bo'limiga keltiriladigan va olib ketiladigan detallarini hisobga olish.

Bu ishlarni bajarish uchun komplektlash bo'limida mos ish joylari tashkil etiladi. Chilangarlik ishlovini berish - moslash ishlarni chilangarlik - mexanika sexida tashkil qilish mumkin. Bu ishlarni sexda komplektash bo'limining ko'rsatmasi bo'yicha bajarish kerak. Ishlov berib, moslangan detallar komplekti yig'ilgan va belgilangan holda komplektash bo'limiga qaytariladi.

Komplektlash bo'limi detallarni qo'yish uchun katakli shkaflar (stellajlar) bilan jihozlanadi. Kataklar soni ro'yxatdag'i detallar soniga va ta'mirlash korxonasining ish dasturiga mos bo'lishi kerak.

Yig'ish sexining barcha ish joylariga detallar faqat komplektash bo'limi orqali keltirilishi kerak. Bu bo'limda keltirilgan va olib ketilgan detallar ro'yxatga olib boriladi.

Qismlar va agregatlari komplektlash turi detallari yaroqli-yaroqsizlarga saralash va mashinalarni yig'ishning qabul qilingan tizimiga bog'liq Masalan, yaroqli-yaroqsizlarga ajratishning uzel (noagregat) usulida detallarni komplektlash va yig'ish har bir uzel (qism) yoki agregat uchun ayrim holda bajariladi. Agar yaroqli-yaroqsizlarga ajratish va yig'ish ishlari detallari to'liq egasizlantirish tizimi bo'yicha bajarilsa, bu holda uzellar (qismlar) ham egasizlantirilgan usulda qo'shilma detallari mos kelganlarini (selektiv) tanlab komplektlanadi.

Komplektlanadigan detallar uch xil: oddiy, selektiv va aralash usulda tanlanadi.

Oddiy komplektlashda qism yoki agregatning asosiy detaliga, qo'shilmasida normal tirqish hosil qilish imkonini berishi kerak.

Detallari selektiv tanlashda qo'shilmadagi ikkala detalning o'lchamlariga berilgan zatur chetlashishlar maydoni bir nechta bir xil oraliqlarga bo'linadi, detallar esa shu oraliqlarga binoan o'lcham guruhlariga ajratiladi.

Har qaysi o'lcham guruhiga haqiqiy o'lchamlar zarur chetlashishlar maydoni chegaralarida joylashgan detallar kiradi. Qo'shilmalar, detallar, o'lcham guruhları, albatta, raqamlar, harflar, bo'yoq va boshqalar bilan belgilanishi lozim.

Detallar o'lcham guruhlariga ularning o'lchamlarini o'lchab yoki maxsus moslamalar va kalibrler yordamida tekshirib saralanadi.

Detallarni aralash usulda komplektlashda ikkala usuldan foydalilanadi. Juda muhim qo'shilmalarning detallari selektiv tanlab, unchalik muhim bo'limgan qo'shilmalarning detallari esa oddiy tanlab komplektlanadi. Detallari aralash tanlab komplektlash usuli ta'mirlash korxonalarida keng ko'lamda qo'llaniladi.

### Takrorlash uchun savollar

1. Detallarni qayta tiklashning qanday usullarini bilasiz?
2. Plazmali qoplash usulini tushuntiring?
3. Detallarni qayta tiklash usulining tanlash mezonlarini aytинг?
4. Detallarni qayta tiklashda iqtisodiy mezon qanday aniqlanadi?

5. Detallarni komplektlashda qanday talablar qo'yiladi?
6. Jihozlarni ta'mirlashiga topshirish va qabul qilish tartibini tushuntiring?
7. Jihozlarni ta'mirlash texnologik jarayoni sxemasi qanday tuziladi?
8. Mashina va mexanizmlarni bo'laklarga ajratish qanday tartibda amalga oshiriladi?
9. Tikuv mashinasining ignasi qanday tartibda o'rnatiladi?
10. Detallarni tozalashning qaysi usullarini bilasiz?
11. Po'lat va cho'yandan yasalgan detallar qanday yuviladi?

#### **4.GAZLAMAGA MUVOFIQ IGNA VA IPLARNI TANLASH**

Material qalinligi uni tashkil qiluvchi ip yoki yigirilgan ip diametri, to'qilish turi, zichligi, tuzilish fazasi, tukning mavjudligi va balandligi bilan belgilanadi. Trikotaj polotnolarining qalinligi ham ahamiyatli darajada to'kilish turiga bog'liq bo'lib, tashkil qiluvchi iplarning 2- 6 diametriga teng bo'lishi mumkin.

Noto'qima materiallar qalinligi avvalo tolalar qalinligi, tolaning og'irligi, ularning joylashuvi, tolalarni birlashtiruvchi iplarning qalinligiga bog'liq. Tukli materiallar (chiyduxoba, duxoba, sun'iy mo'yna) qalinligi grunt (tuk ostidagi qatlam) qalinligi hamda tukli qoplama balandligi bilan tavsiflanadi. Material qalinligi kiyim konstruksiyasiga, qo'llanadigan qotirma materiallariga, chok haqi kengligiga chok konstruksiyasiga ta'sir qiladi. Gazlamani bichishda to'shamma qalinligi, choklarga ketadigan tikuv ipining sarfi, ishlatalidigan asbob-uskuna turi material qalinligiga bog'liq. Gazlamalarning qalinligini 0,1—0,2 kPa bosim bilan o'lchash tavsiya qilinadi. Turli gazlamalarning qalinligi haqidagi ba'zi ma'lumotlar 3 - jadvalda keltirilgan

#### **Turli gazlamalarning qalinligi**

Jadval - 3

Gazlamaning xili	Gazlamaning tola tarkibi	Gazlamaning qalinligi, mm
	Paxta	0,16-0,6


Ko'yylaklik va ichki kiyimlik	Ipak	0,1-0,32
	Zig'ir	0,3-0,4
	Jun	0,4-0,8
	Zirir	0,5—0,6
	Paxta	0,4-1,3
	Jun	0,7-1,1
Kastyumlik	Kamvol	0,4-0,6
	Kamvol sukonli	0,5-0,9
Paltolik	Mayin movut	1—1,6
	Drap	2,1-3,2
	Drap va dag'al movut	2,3-4,8
	Qalin drap	2,1-3,2
	Bobrik, (jun)	3,2-3,5
Miyonabop va maxsus gazlamalar	Zig'ir tolali bortovka	0,4-0,6
	Brezentbop	1,0—1,3

Tishli reyka ko'tarilishining balandligi va tikuv mashina tepkisining bosimi material qalnligiga bog'liq holda o'zgartiriladi. Ignalar, g'altak iplarning xili va miqdori, dazmollah rejimi ham gazlamalarning qalnligiga qarab tanlanadi. Qalin gazlamalar uchun yo'g'on ignalar, pishiq va yo'g'on iplar ishlatish, baxyalarni siyrak olish tavsiya qilinadi. Qalin gazlamalar uchun dazmollah vaqt uzoqroq olinadi. Materiallarni tikish uchun oldin kerakli ip va unga mos igna tanlash kerak bo'ladi. Tikiladigan gazlamalarga muvofiq tavsiya etiladigan ip va igna nomerlari 3-jadvalda ko'rsatilgan. Ipni tanlashda uning (S) o'ng va (Z) chap taraflama o'ralish yo'nalishiga e'tibor qaratish lozim. Agar ip to'g'ri tanlanmasa, ba'zi tipdagi tikuv mashinalarida baxya hosil qilish jarayonlarida ip o'rami ochilishi natijasida o'zining puxtaligini yo'qotishi mumkin. Shu sababli tikuv mashinasiga qo'yiladigan

talablarga mos holda ipni tanlash kerak bo'ladi. Mashinada bajariladigan operatsiyalarning sifati igna va iplarning to'g'ri tanlanishidan, shuningdek ustki va ostki iplarning to'g'ri o'tkazilishidan bog'liq bo'ladi. Ignalar silindrik, konussimon va pog'onali sterjenlar bilan tayyorlanadi. Konussimon va pog'onali sterjenlar bilan tayyorlangan ignalar sanchilish paytida kam qiziydi, bu esa sintetik gazlamalarni sintetik ipler bilan tikishda juda muhimdir. Gazlamalarni biriktirish uchun uchi me'yorda aylan Simon charxlangan ignalar, trikotaj mahsulotlarini biriktirish uchun uchi radiusli charxlangan ignalar, natural charmni biriktirish uchun uchi me'yorida ovalsimon charxlangan ignalar tavsiya etiladi. Yupqa gazlamalar uchun ingichka igna va iplarni tanlash zarur. Birlashtiriladigan materiallar qatlami qalinligi oshadigan operatsiyalarda igna raqami oshirilgan bo'lishi kerak, ip raqami esa o'zgartirilmaydi.


Ignalar o'zaro tanlashigna ko'zining kengligi va ip diametri bilan bog'liq. Ipni me'yorida o'tishi uchun igna qulochchasining kengligi ip diametridan katta bo'lishi kerak. Masalan, №90 igna ko'zining kengligi 0,34 mm ga teng, mos ravishdagi №50 ipning diametri esa 0,22 mm ga teng, ya'ni igna ko'zining diametri ip diametridan 0,12 mm ga katta. Bu igna ko'zi kengligi va ip diametrining me'yordagi o'zaro nisbatidir. Gazlamaga muvofiq igna va iplarni tanlash tavsiyanomasi 5-jadvalda keltirilgan

Ignalar o'zgaruvchan kesimli po'lat sterjen ko'rinishida bo'lib, unda kolba, qisqa va uzun ariqchali sterjeni, ko'zi va materialni teshib o'tadigan uchi bo'ladi (8-rasm). Ignaning ko'ziga ustki ip o'tkaziladi. Uzun ariqcha esa ustki ipni ishqalanishdan saqlaydi.




10-rasm. Charxlangan igna uchi formalari

Sterjen` kesimining shakliga, uchining charxlanish shakliga va kolbasining tuzilishiga qarab ignalar maxsus raqamlar bilan belgilangan. Bundan tashqari, kolbaning diametri, uzunligi, ignanining umumiy uzunligi, ko'zining ustki chetidan kolbaning oxirigacha bo'lgan oraliq, ariqchalarining sterjenda joylashish holati hisobga olinadi. Mashina ignalarining maxsus raqamli belgilaridan tashqari, nomeri ham bo'lib, u son jihatidan sterjen diametrini 100 ga ko'paytirilganiga teng bo'ladi. Tikuvchilik sanoatida 55 dan 200 gacha nomerli ignalar ishlataladi.



A – kolba diametri, D – sterjn diametri, E – kolba uzunligi,

G – igna uzunligi, G<sub>0</sub> – charxlangan igna uchi uzunligi



11-rasm. Ignaning asosiy qismlari

Yirik zavod va firmalarda ishlab chiqariladigan ignalar

jadval-4

Sis te ma	Igna nomeri																		
NM	55	60	65	70	75	80	85	90	95	100	110	120	125	130	140	160	180	200	
Zin ger	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	18	19	20	21	22	23	24	25	

Ishlatilgan ipga qarab igna raqamlarini tanlash bo'yicha tavsiyalar

jadval-5

Igna nomeri	Iplar				
	Paxta	Mustahkamlan gan qo'shma (armirovanie)	Lavsan	Shtapel	kapron (monoip)
1	2	3	4	5	6
60, 65	100	Sabas 120	-	-	13 kmp, 7 kmp
70, 75	80	28LX, 25LX, 28LL, 25L, Rasant 150	22 L, 24 LT		20 kmp
80, 85	60	36LX, 35LL, Rasant 100	33L, 37 LT	Belfil-S 120	20 kmp
90	50	36LX, 35LL, asant 100	33L, 37 LT	Belfil-S 120	20 kmp

100, 110	40	44LX-1, 45LL, Sabas 80	55L	Belfil-S 50	
120, 130	30	44LX-1, 45LL, Sabas 30			
140	20	65LX-1, 65LL	90L		
150, 160	10	65LX-1, 65LL	90L		

## 5.YENGIL SANOAT JIHOZLARINI MOYLASH

### 5.1.Moylash qurilmalari

Moylash qurilmalari individual va markazlashgan turlarga bo'linadi. Individual moylash qurilmalari gruppasiga konstruksiyasi jihatidan xilma- xil moydonlar kiradi. Bunday moydonlardan foydalanilganda mashina va stanoklarga qarash uchun ko'p vaqt ketadi. Bu texnologik mashina va jihozlarda moydonlar ko'p va bir-biridan uzoq joylashgan bo'lsa, ayniqsa yaqqol seziladi.


Markazlashtirilgan moylash usuli nasos yordamida dastaki yoki atvo'lat usulda bajariladi. Moy o'tkazuvchi trubkalar (moy yo'llari) orqali moy bevosita ishqalanuvchi sirtlarga yoki markaziy taqsimlagichga moy to'plagichga yuboriladi. Unda moylanadigan joylarga moy o'zi oqib tushadi. Markazlashtirilgan moylash sistemasi individual moylash sistemasiga qaraganda takomillashgan usuldir, chunki markazlashtirilgan usulda mexanizmlar yaxshiroq moylanadi, shu bilan mashinalarga qarash uchun ketadigan vaqt tejaladi.

Masalan, yuqori tezlikda ishlaydigan tikuv mashinalarida qo'llanilgan majburiy avto'latik moylash tizimini ko'rib chiqamiz.

Moyni ishqalanadigan detallar yuzasiga avto'latik yetkazib berish uchun parrakli (shiberli) nasos (10) ishlataladi (12-rasm). Nasosning (10) korpusi burchagi (5) orqali

pastdan mashina platformasiga mahkamlangan. Nasosning parraklarini taqsimlash vali chervyakli uzatma orqali aylantiriladi. Moy nasos yordamida taqsimlovchi plastmassa naychalar orqali haydaladi va moyli karterga tushirilgan filtr (7)dan o'tib naycha (moy o'tkazgich) bo'ylab suriladi.


Bu karter olinadigan bo'lib, mashina platformasi tagidagi qavatchaga joylangan. Nasos (10) ning ichi ikkita bo'shliqdan iborat. Bulardan biri moy haydaydigan (ostki) bo'shliq, ikkinchisi esa so'ruvchi (ustki) bo'shliq. Ikkinchchi bo'shliq old qismdag'i ostki bo'shliqda yig'ilib qolgan moyni so'rib olish uchun xizmat qiladi. Naycha (4) nasos (10) ning so'rib olinadigan moyi naycha orqali karterga tushadi. Nasos (10) ning haydovchi bo'shlig'idan naycha orqali mashina tanasining teshigiga o'rnatilgan naycha (2)ga moy yuboriladi.



12-rasm. Moki bahyali tikuv mashinasining moylash tizimi

Moy oqimi naycha (2) dan kalibrlangan teshik orqali o'tib, shaffof qalpoqcha (1) ga

uriladi, bu esa tikuvchiga moy sistemasi qanday ishlayotganini nazorat qilib turish imkonini beradi. So'ngra moy vtulka orqali pastga oqib asosiy valning vtulka, sharikli podshipnik va krivoship barmog'iga kiydirilgan ignali podshipnik bilan tutashmalarini moylaydi. Ortiqcha moy vtulkadan naycha (3) bo'ylab karterga tushadi. Bundan tashqari moy vtulkaning ostki teshigi orqali oqib, naychaning piligiga shimilib, asosiy valning o'ng to'londagi sharikli podshipnikka keladi. Naycha (8) bo'ylab haydalgan moy vtulkaga o'tib, uning taqsimlash vali bilan tutashgan joylarini va eksentriklarga o'tib, ularning shatun kallagi bilan tutashgan joylarini moylaydi. Naycha (9) bo'ylab moy vtulkaga tushadi, natijada moki valining shu val ichki vtulkalari bilan tutashgan joylari hamda moki pazining naycha tutqich belbog'i bilan tutashgan joylari moylanadi.



13-rasm Plunerli nasosli avtomatlashirilgan moylash sistemasi

Tikuvchi moy sistemasining qanday ishlayotganini shafof qalpoqcha (1) orqali nazorat qilib turishni, karterda moy kamayganda unga moy quyib turishi kerak. Mashina moylashga industrial I-12 A va I-20A moyini ishlatish tavsiya etiladi. Individual moylash qurilmalari. Bunday qurilmalarga rezervuarli moydonli moydonlar misol bo'la oladi. Uning pastki qismida kigiz yoki jun ipdan iborat tiqilmasi bor. Tiqilma moylanadigan joylarga chang tushishiga yo'l qo'ymaydi. Tiqilmaning qalinligi vaqt birligi ichida moylanadigan joylarga ma'lum miqdorda moy kelib turadigan qilib tanlanadi.

Moylanadigan joylarga aniq bir miqdorda moy kelib turishi zarur bo'lgan hollarda (masalan, tikuv mashinalarning bosh vallarini moylash uchun) tomizuvchi moydonlar qo'llaniladi.

Ulardan moylanadigan joyga yetkazib berib turiladigan moy miqdori gaykani burash yo'li bilan rostlanadi. Moylanadigan ish sirtlariga moy teshik orqali boradi. Bu teshikning kesimi bekituvchi ignaning vaziyatiga qarab yo kattalashadi yoki kichrayadi.

Gaykani buraganda unga bog'langan igna yo ko'tariladi yoki pastroq tushadi. Moydon orqali kelayotgan moyning miqdori haqida moydonning pastki qismidagi kuzatish tuynugidan ko'rinish turadigan tomchilarining qanchalik tez 1/3 qismi qolganda moydondan kelayotgan moy miqdori kamaya boshlaydi

Moylanadigan joyga quyuq moyni, masalan, tavotni yetkazib berib turish uchun qopqoqli moydon yoki tovotnitsa qo'llaniladi.

Uzluksiz ishlaydigan moydonning yana bir turi - pilikli moydondir. Undan tegishli miqdordagi moy pilik orqali moylash joyiga kelib turadi. Pilikda moy iflosliklardan ham tozalanadi. Pilikning moylanadigan joyga qaralgan uchi hamma vaqt moydonning rezervuari ichida turadigan uchidan pastroq joylashadi. Pilik orqali keladigan moyning miqdori pilikning kallagiga va uning moydon kanaliga qancha zinch o'matilganligiga bog'liq. Pilik moydon kanaliga qancha zinch o'rnatilgan bo'lsa, undan shuncha kam moy o'tadi.

Pilik jun ipdan yasaladi va ingichka yumshoq simdan qilingan sirtmoqqa

mahkamlanadi.

Ana shu sirtmoq hamda “mo'ylovlar” yordamida pilik moydonning kanaliga tegishli chuqurlikda tikib qo'yiladi. Kirlangan pilik almashtirib turiladi.

Moylanadigan joylarga aniq bir miqdorda moy kelib turishi zarur bo'lgan hollarda (masalan, tikuv mashinalarining bosh vallarini moylash uchun) to'lizuvchi moydonlar qo'llaniladi.

Ulardan moylanadigan joyga yetkazib berib turiladigan moy miqdori gaykani burash yo'li bilan rostlanadi. Moylanadigan ish sirtlariga moy teshik orqali boradi. Bu teshikning kesimi bekituvchi ignaning vaziyatiga qarab yo kattalashadi yoki kichrayadi.

Gaykani buraganda unga bog'langan igna yo ko'tariladi, yoki pastroq tushadi. Moydon orqali kelayotgan moyning miqdori haqida moydonning pastki qismidagi kuzatish tuynugidan ko'rinish turadigan to'lchilarining qanchalik tez to'lib turishiga qarab hukm yurgizish mumkin. Moydon rezervuaridagi moyning 1/3 qismi qolganda moydondan kelayotgan moy miqdori kamaya boshlaydi.

Moylanadigan joyga quyuq moyni, masalan, tovotni yetkazib berib turish uchun qopqoqli moydon yoki tovotnitsa qo'llaniladi. Qopqoq buralganda tovotnitsadagi bosim oshadi, bu bosim ta'sirida quyuq moy moylanadigan sirtlarga siqib chiqariladi.

Texnologik mashina va jihozlarining ko'pchilik tishli g'ildiraklari moy vannasi ichida ishlaydi. Bunday sharoitda moy sati konstruksiyasi jihatidan xilma-xil bo'tgan moy ko'rsatgichlari orqali kuzatib turiladi. Masalan, reduktorlar va hokazolar.

Texnologik mashina va jihozlarida tutash idishlar prinsipiqa asoslangan naychali moy ko'rsatgichlar ham keng qo'llaniladi. Bu tipdag'i ko'rsatkichlarning Shisha

Naychasi uzunligi 75,1 va 150 mm qilib chiqariladi. Bunday naychali moy ko'rsatkichlar mashinaning gabaritini kattalashtiradi. Bundan tashqari, ular mashinadan foydalanish jarayonida ko'p buzilib turadi, ularning kamchiligi ham shundadir. Moylanadigan uzelga joylangan fonar tipidagi moy ko'rsatkichlarda naychali ko'rsatkichlardagi kamchiliklar yo'q. Bunday moy ko'rsatkichlar doiraviy

yoki cho'ziqroq shaklda yasaladi. Cho'ziqroq moy ko'rsatkichlar moy hajmi ancha katta bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Agar rezervuardagi moyning sathi katta chegaralarda o'zgaradigan bo'lsa, ikkita doiraviy moy ko'rsatkich utsma-ust qo'yiladi.

Bunday hollarda moyning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan sathi eng pastki moy ko'rsatkichiga qarab, eng yuqori sathi esa yuqoridagi moy ko'rsatkichga qarab belgilanadi. Moy o'Ichagichning qulayligi shundaki, mashina to'xtab turgan vaqtda uni uyasidan sug'irib, toza latta bilan artish va o'rniga qo'yib yana sug'orib olib moyning sathini bilish mumkin. O'Ichagichda qolgan moyning izi rezervuarda qancha moy borligini ko'rsatadi.

Markazlashtirilgan usulda moylanadigan joylarga moy, yuqorida aytib o'tilganidek, bosim ostida yuboriladi. Bunday sistemalarda bosim bitta yoki bir nechta nasos yordamida hosil qilinadi. Nasos haydaydigan moy halqasimon berk saylanib istemada yuradi.

Bakdan tishli g'ildirakli nasos so'rib oladigan moy sovutgich-filtrdan o'tib, naychalar orqali moylaniladigan joylarga boradi va ularni moylaydi hamda ishqalanuvchi yuzalari sovitadi. So'ngra moy qaytaruvchi magistral orqali moy yana bakka qaytib tushadi. Moyga ilashib qolgan mexanik aralashmalar qisman bakning tagiga cho'kadi, ammo bu aralashmalarning asosiy qismi filtrlanishdan ushlanib qoladi. Markazlashtirilgan sistemalarda, odatda, ikkita nasos - ish nasosi va rezerv nasoslar o'matiladi. Shu tufayli moylanadigan joylarga moyning to'xtovsiz kelib turishi ta'minlanadi. Nasoslar tishli g'ildirakli yoki boshqa tipda bo'lishi mumkin.

Tishli g'ildirakli nasos o'rnatilgan markazlashtirilgan moylash sistemalari, odatda, uncha ko'p bo'Imagan ishqalanuvchi uzellari moylash uchun belgilanadi. Texnologik jarayon bo'yicha o'zaro bog'langan mashinalar guruhining ko'pdan-ko'p moylanish joylariga moy yetkazib berish uchun markazlashtirilgan avto'latik moylash sistemalari o'rnatiladi. Bunday sistemalarda moy avto'lat ravishda tozalaniladi, sovitiladi va ishqalanuvchi uzellarga tegishli miqdorda yetkazib berib turiladi.

Moylash sistemasida qanday moylash qurilmalari qo'llanilishidan qat'iy nazar,

ularning hamma vaqt puxta yaxshi ishlab turishiga diqqat qilish kerak. Bundan tashqari, har bir sirtni moylash uchun belgilangan moylash materialidan foydalanish lozim.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Moylash qurilmalarining qanday turlari mavjud?
2. Individual moylash qurilmalari guruhiga qaysi turdag'i moydonlar kiradi?
3. Markazlashtirilgan moylash usulida jihozlar qanday moylanadi?
4. Uzlusiz ishlaydigan moydonning qanday turlari mavjud

### **5.2.MOYLASH MATERIALLARI VA ULARNI TANLASH**

Sanoatda, asosan, mineral moylash materiallari ishlataladi. Sanoatda ishlataladigan moylar talab etilgan bir qator ko'rsatkichlarga, shu jumladan, tegishli qovushqoqlik ko'rsatkichiga ega bo'lishi kerak. Moyning qovushqoqligi haqida 50° yoki 100° gradusgacha isitilgan ma'lum miqdordagi biror nav moyning belgilangan o'lchamdag'i teshikdan necha minutda oqib chiqishiga qarab hukm yurgiziladi.

Ma'lum hajmdagi moyning belgilangan o'lchamdag'i teshikdan 20° gradusli haroratda oqib chiqishi uchun ketgan vaqtning shu teshikdan o'sha hajmdagi suvning oqib chiqishi uchun ketgan vaqtga isboti qovushqoqlik ko'rsatkichi qilib qabul qilingan. Bu ko'rsatkich moyning graduslarda ifodalangan qovushqoqligini xarakterlaydi va YE 50 yoki YE 100 bilan ifodalanadi. Bu yerda 50° va 100° - qovushqoqlik ko'rsatkichi aniqlangan temperaturadir. Temperatura pasaygan va bosim ko'tarilgan sari moyning qovushqoqligi oshadi.

Qovushqoqlikning dinamik va kinematik turlari mavjud.

Dinamik qovushqoqlik suyuqliklar tarkibini ularning zarrachalari o'zaro harakatiga qarshilik ko'rsatishini tavsiflaydi, bir kvadrat metrga Nyuton sekund birligi bilan o'lchanib, shunday suyuqlikning dinamik qovushqoqligiga teng bo'ladi, unda 1 m masofaga uning 1 m.s tezlik bilan harakati paytida urinma kuchlanish 1 Pa( $1 \text{ N/m}^2$ )ga teng bo'ladi.

Kinematik qovushqoqlik dinamik qovushqoqlikning uning zichligiga nisbatli bilan

aniqlanadi. Kinematik qovushqoqlikning birligi  $m^2$  sekundga teng bo'lib, shunday suyuqlikning kinematik qovushqoqligiga tengki, uning dinamik qovushqoqligi  $1\text{ N s/m ga}$ , zichligi esa  $1\text{ kg/m}^3$  gateng bo'ladi. Dinamik qovushqoqlik ishqalanayotgan sirtlarni moylash uchun qo'llaniladigan moylardan qovushqoqligini gidrodinamik hisoblash paytida qo'llaniladi. Kinematik qovushqoqlik moy quvurlari orqali yuborilgan moylarni hisoblash uchun qo'llaniladi. Dinamik va kinematik qovushqoqliklar absolyut birliklarda ifodalanadi va shuning uchun absolyut qovushqoqlik deb yuritiladi. Moylarning qovushqoqligi haroratiga bog'liq ravishda o'zgaradi: harorat ko'tarilsa qovushqoqlik kamayadi. Harorati pasayganda qovushqoqligi oshadi.

Mashinalarni moylash uchun moy tanlash quyidagi mulohazalarga asoslanadi:

1. Tezyurar mashinalarni qovushqoqligini past moylar bilan moylash kerak. Agar bu hollarda qovushqoqligi yuqori moylar qo'llanilsa, moylash materialining zarralari orasidagi bog'lanish kuchini yengish uchun ortiqcha energiya sarf bo'ladi. Bundan tashqari, detallarning o'zaro ishqalanuvchi sirtlari odatdagidan ko'ra qattiqroq qiziydi.
2. Katta yuklanish ostida ishlaydigan sekinyurar mexanizmlarni qovushqoqligi yuqori moylar bilan yoki quyuq (konsistent) moylar bilan moylash kerak. Konsistent moylar mineral moyning biror quyuqlantirgich, masalan kalsiyli quyuqlantirgich yoki mum, parafin va shu kabi aralashmalardan iborat. Katta zo'r qish ostida ishlaydigan, shuningdek, harakat yo'nalishini o'zgartirib turadigan mexanizmlarni moylash uchun qovushqoqligi kam moylarni ishlatish moyning o'zaro ishqalanuvchi orasidan siqilib chiqishiga va binobarin, shu sirtlar orasidagi moy qatlaming yupqalashuviga olib boradi.
3. Yuqori temperatura sharoitida ishlaydigan og'ir yuklanishli sekinyurar mexanizmlari qattiq moylash materiallari bilan moylash kerak. Bunday moylarga, masalan, talk, grafit, slyuda kiradi. Moylarning turi va navlari juda ko'p. Moylarning ba'zi navlari haqidagi ma'lumotlar 6-jadvalda berilgan

Jadval-6

Moylarning nomlari	Eyler bo'yicha 500Sdagi qovushqoqligi	Moyning qollanilishi
Vazelin moyi	1.4-1.7	Sharikli va rolikli mayda podshipniklar va boshqarish uchun
2 markali urchuq moyi	2,0-2,2	Mashina vallari uchun (10000 ay/minga). Presslar gidravlik sistemalari uchun. sharikli va rolikli podshipniklar va boshqalar uchun
3 markali urchuq moyi	2,8-3,2	Halqa bo'ylab moylanadigan podshipniklar. markazdan qochirma nasoslar. stanoklarning gidravlik uzatmalari. material kesish asboblarini sovitish uchun
3B markali urchuq moyi	2.8-3.2	Mexanik kesish asboblarni sovitish uchun qollaniladigan 3 markali urchuq moyi o'mida va shuningdek. termik ishlashda toblash suyuqligi sifatida
L markali urchuq moyi	4,0-4,5	Katta zo'riqishli tezlik bilan ishlaydigan mashinalar uchun halqa bo'ylab moylanadigan podshipniklar uchun
SB markali urchuq moyi	5,5-7,0	S markali moy o'mida ishlataladi
SU markali urchuq moyi	6,0-7,5	Katta zo'riqish ostida sekin ishlaydigan mashina va jihozlar uchun temperaturasi yuqori binolarda ishlaydigan mexanizmlar uchun
2 markali urchuq moyi	100da 1.8-2.2	Katta zo'riqish ostida ishlovchi sekin yurar mexanizmlar uchun, og'ir jihozlarning uzatmalari va boshqalar uchun

#### Takrorlash uchun savollar

1. Moyning qovushqoqligi deganda nimani tushunasiz?
2. Moyning qovushqoqligi qanday aniqlanadi?
4. Moyning qovushqoqligiga havo harorati qanday ta'sir o'tkazadi?
5. Tezyurar mashinalar qaysi turdag'i moylar bilan moylanadi?
6. Katta yuklanishda ishlaydigan mashinalar qaysi turdag'i moylar bilan moylanadi?

## **6. TIKUV MASHINALARINING MEXANIZMLARINI SOZLASHNING ASOSIY PRINSIPLARI**

**Sozlash** - ishlov berish jarayonini yoki mashinaning ishiga ta'sir qiladigan ulanishlar va qismlarning o'zaro tartibini o'zgartirish.

**Texnologik sozlashlar** ijro etuvchi vositalarning ishlov beriladigan materiallar bilan o'zaro munosabatlarini o'zgartirish uchun foydalilanadi. Texnologik sozlash material turini, tikuv parametrlarini va boshqalarni o'zgartirganda amalga oshiriladi. Bular quyidagilar: baxya uzunligini sozlash, tishli reyka balandligini pozitsiyasini sozlash, materialga bosim kuchini sozlash va hk.

**Konstruktiv sozlash** tikuv mashinasi mexanizmlarini yig'ish va sozlash uchun mo'ljallangan. Bular igna balandligini o'mini sozlash, moki burilish burchagini va moki burni va igna orasidagi tirkishni sozlash, mokining moylanishini sozlash, materialni surish fazasini sozlash va boshqalar. Tikuvchilik va trikotaj buyumlarini tikish mashinasi yig'ilgandan so'ng uni sozlash, ya'ni zvenolar va ishchi organlarni baxyaqator hosil qilish jarayonida ularning o'zaro to'g'ri harakatini ta'minlaydigan holatda o'rnatish zarur. Mashina mexanizmlaridan birini boshqasiga nisbatan o'zaro joylashuvi bazaviy bo'g'lnlarda (shponkalar, shtiftlar yoki vindar bilan) aniqlangan. Yig'ish jarayonida bu zvenolar ma'lum holatda o'rnatiladi va sozlash paytida ularni qayta joylashtirish talab etilmaydi.

Mashinada shunday zvenolar mavjudki, yig'ish paytida ularning o'zaro joylashuvi mo'ljallanib aniqlanadi, chunki bu zvenolarda belgilar bo'lmaydi. Shuning uchun mexanizmlari sozlanmasdan yig'ilgan mashina ko'p hollarda ishga qobiliyatsiz bo'lib

hisoblanadi. Mashinani sozlashdan oldin tayanch vintlari miqdori va ularning tortilish zichligiga alohida e'tibor bergan holda, uning uzel va mexanizmlarining to'g'ri yig'ilganligini tekshirish zarur. Shuningdek, qopqoqlar, podshipniklar va salniklar miqdoriga ularning qotirilish va tortilish mustahkamligiga; bitta yig'ish birligiga detallar raqamlarining mos tushishiga, mashinaning oson yurishiga e'tibor berish kerak. Mashinani sozlashga tekshirish paytida ko'zga tashlangan nosozliklarni bartaraf etilganligidan so'ng kirishiladi. Tikuv mashinalarining bir nomdag'i mexanizmlarini sozlash bir xil, tartibda amalga oshiriladi, shuning uchun sozlash ishlarini igna mexanizmidan boshlash maqsadga muvofiqdir, chunki igna mashinaning barcha ishchi organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki tikuv mashinasidagi asosiy inkorlar ta'mirdan so'ng yig'ish paytida ishchi organlarning noto'g'ri o'matilganligi sababli, igna va moki mexanizmlari o'zaro harakatining buzilishi natijasida sodir bo'ladi. Shuning uchun tikuv mashinalarining inkorsiz ishlashi uchun mexanizmlarni sozlash, ayniqsa moki burunchasining ignaga nisbatan holatini to'g'ri joylashtirish zarur. Quyida asosan universal tikuv mashinalari uchun igna va moki o'zaro holatining asosiy parametrлari keltirilgan.

Richagli mexanizm parametrlaming deyarli har qanday o'zgarishi boshqa parametrlarning o'zgarishiga olib keladi. Yetakchi zveno uzunligining o'zgarishi (krivoship uzunligi, koromisla uzunligi) yetakchi bo'g'inning uzunligi o'sishi bilan, qolgan harakatlanuvchi bo'g'inlarning harakatlari ham ortadi, pasayish bilan ular kamayadi.


## **6.1. MOKI BAXYA HOSIL QILIB TIKUVCHI MASHINALARINING MEXANIZMLARINI SOZLASH.**

DDL-8700 Juki mashinasiga (14-rasm) quyidagi mexanizmlar va qurilmalarni o'z ichiga oladi: igna mexanizmi, ipni tortib olish mexanizmi, moki mexanizmi, gazlamani surish mexanizmi, baxiya uzunligi sozlash moslamasi, tepki uzeli va moylash tizimi.



14-rasm. DDL-8700 Juki mashinasining umumiy ko'rinishi

**Ortga tikishni sozlash** (15-rasm). Koromisla 19 tebranish o'qining holatini o'zgartirish bilan amalga oshiriladi



15-rasm. Ortga tikishni sozlash


**Baxya yirikligini sozlash (15-rasm).**

Baxya yirikligini sozlagich 1 yordamida o'mnatiqiladi



15-rasm. Baxya yirikligini sozlash.

**Krivoship barmog'iga yetkazilgan yog' miqdorini sozlash** (16-rasm) vintni 1 sozlash orqali amalga oshiriladi. Yog'ning minimal miqdori vintni B tomonga, maksimal C yo'nalishiga burish orqali ta'minlanadi.



16-rasm - Krivoship barmog'iga yetkazilgan yog' miqdorini sozlash.


#### **Mokiga yetkazib beriladigan yog' miqdorini sozlash (17-rasm)**

Sozlash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- belgilangan o'lchamdag'i qog'oz varaqni kesib oling;
- moydon ichidagi moy darajasi ko'rsatgichi "HIGH" va "LOW" belgilari orasida joylashganligiga ishonch hosil qiling;
- moyni isitish uchun mashinani taxminan 3 daqiqa davomida ishlatib turing;
- Mashinani to'xtatib darhol moki ostiga bir varaq qo'yiladi; varaq-1 platforma 2 ning devoriga yaqin joylashsin;
- mashina maksimal tezlikda 5 sekund ishlataladi;


qog'ozdag'i yog' dog' kengligi o'lchanadi; bu kenglik 17 rasmida ko'rsatilgan chegaralarda bo'lishi kerak.

- moylash yetarli bo'limgan taqdirda, tikuv mashinasi qiziydi, haddan tashqari moylangan bo'lsa, material moy bilan bulg'angan bo'lishi mumkin;



17-rasm. Mokidagi moy miqdorini o'lchash


- Moki mexanizmiga moyni yetkazib berish hajmini oshirish uchun, sozlash vinti (18-rasm) A tomonga buriladi (vintlar boshidagi "+" belgisi), V tomonga kamayadi ("-" belgisi).



18-rasm - Sozlash vinti


**Tepkining materialga nisbatan bosimi sozlash (19-rasm).**

Tepkini Siqish kuchini uzelning yuqori qismidagi sozlash vinti bilan o'rnatiladi (19-rasm).



19-rasm. Tepkining materialga nisbatan bosimi sozlash

Tepkini qo'l bilan ko'tarish va tushirish tepki dastagida amalga oshiriladi (20-rasm)



20-rasm Tepkini qo'l bilan ko'tarish


**Tepkining balandligi yoki aylanish burchagini sozlash uchun vint 1 bo'shatilgandan so'ng o'rnatiladi (21-rasm).**



21-rasm Tepkini holatini sozlash

**Igna ipini taqish** 22-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, og'ir seriyali mashinalar uchun ip yo'naltirgichlarining, konstruktsiyasi biroz o'zgartirilgan. G'altakni tutkich tayanchining sterjeniga yoki mashina tanasidagi sterjenga o'rnatiladi. Agar ip g'altak tutkichdan boshlab o'tkaziladigan bo'lsa, ipni pastdan yuqoriga tortib, g'altak tutkich yo'naltirgichning ilgagi orqasiga o'tkazilib, yuqoridan pastga ip yo'naltirgichning o'ng teshigidan o'tkaziladi va taranglik qo'shimcha rostlagichi 12 ning shaybalari orasidan soat mili harakati yo'nalishida aylantirib o'tkaziladi. So'ngra ipni pastdan yuqoriga chapga birin-ketin ip yo'naltirgichning uchta teshigidan va ip yo'naltirgichning uchta teshigidan o'tkazib, soat mili harakati yo'nalishida ustki ip taranglagichining shaybalari orasidan aylantiriladi. Ip uchi ip tortgich prujina 6 orqasiga o'tkaziladi, pastdan yuqori tomon ip yo'naltirgich burchaklik atrofidan aylantirib, ip yo'naltirgichga taqiladi. O'ngdan chap tomonga ip


saqlagich skoba tagidagi ip tortgichning teshigiga kiritiladi. Ipni yuqoridan pastga ip yo'naltirgichlari orqali o'tkazib, chapdan o'ngga tomon igna ko'ziga taqiladi.



22 - igna ipini taqish.

#### Igna ipining tarangligi (23-rasm)


Igna ipining tarangligi gaykani aylantirish orqali o'rnatiladi; gaykani A- tomonga burganda igna ipining tarangligi tobora ortib boradi. B - tomonga burganda igna ipining tarangligi kamayadi.



23-rasm. Igna ipining tarangligini sozlash

### Moki ipning tarangligini sozlash (24-rasm).

Ikki ipli, moki aylanish o'qi gorizontal joylashgan tikish mashinalarda ip o'ralgan naycha qopqog'iga shunday o'matiladiki, unda ip ochilish paytida naycha soat mili yo'nalishida aylanishi kerak. (24-rasm.).



24-

rasm. Moki ipning tarangligini sozlash

Songra, chap qo'lning katta va ko'rsatkich barmoqlari bilan naycha qopqog'i richagi 2 dan ushlab, sterjen 1 ga kiygilizadi. Bu paytda naycha qopqog'inining yarim aylana kesimi yuqorida joylashishi kerak.

Asta-sekin qopqoq richagi qo'yib yuborilib, naycha qopqog'ini nay tutgichga bosib, ichkariga itariladi va bu jarayon qopqoq markaziy sterjen kallagi ostidagi mos ravishta iniga kirguncha davom ettiriladi. Shunda naycha qopqog'i moki qurilmasida mustahkam o'mashadi. Ipning erkin uchi 4 sm dan kam bo'lmasligi kerak.


Iplar tarangligini rostlashni ostki ipdan boshlagan ma'qul. Buning uchun igna ko'tarib, chiqarib olinadi va vint 2 burab kiritilib yoki burab chiqarilib naycha qalpog'i ostki ip taranglanadi yoki bo'shatiladi. Naycha qalpog'iga uning aylanish yo'nalishi 24-rasmagi strelkaga to'g'ri keladigan tarzda C ip A tirqish, so'ngra V prujinali plastinka ostidan o'matiladi (24-rasm,a). Ba'zida to'quv tugunini tortib olishni osonlashtirish va tikuvning ko'rinishini yaxshilash uchun moki ip igna ipiga qaraganda bir oz ingichka ishlataladi.

Moki ipning tarangligini vint ikkini burab sozlanadi; unda C yo'nalishi bo'yicha aylantirilganda, moki ipining tarangligi ortadi, D yo'nalishi bo'yicha u kamayadi (24-rasm,b).

Yelkali tikuv mashinalarida xizmat ko'rsatuvchi ipning kuchlanishini tanlash uchun amaliy tavsiyalar mavjud. Agar siz to'dirilgan naychaning ichidan ipning uchini olsangiz va naychaning naycha qalpog'i ustiga osib qo'yilsa va qo'lning yengil harakati bilan yuqoriga qarab siljiy boshlasangiz, kuchlanish to'g'ri tanlangan (24-rasm,v). Shuningdek, g'altakning g'ildiragini g'altakka tushirganda g'altakning yo'riqnomada ko'rsatilgan yo'nalishda aylanishi zarur.


### **Kompensatsiya kamonini sozlash (25-rasm).**

Kompensatsiya1 kamonining konturini o'zgartirish uchun vint-2 bo'shatiladi. Tarmoq 3 regulyator korpusi bilan A tomonga aylantirilganda, yo'nalish bo'ylab tortish kuchayadi B - yo'nalishi bo'yicha u kamayadi. Kompensatsiya kamonining kuchini o'zgartirish uchun regulyator mashina tuynikidan ochib chiqariladi. Vintni 4 bo'shatib; regulyator korpusiga A yo'nalishi bo'yicha 3 aylantirilganda, prujina kuchi ortadi, B yo'nalishi bo'yicha u kamayadi.



25-rasm. Kompensatsiya kamonini sozlash


2. Keyin, o'ng igna ipining kuchlanishini o'rnatiting. Bu juda oddiy - regulyatorni chap igna ipining regulyatori yoki quyida bitta bo'linish bilan bir xil qiymatga o'rnatiting. Siz allaqachon bitta mato uchun chap va o'ng igna iplarining kuchlanish sozlamalari o'ttasidagi farqni aniqladingiz, bu farq barcha ikkita ignali tikuv mashinalarda ishlatalidi.

Xulosa qilib aytganda, chalishtirgichning iplari qayerda joylashganligini aniqlang. Ular matoning chetida bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak, tikuv o'ttasida tekis va silliq bo'lishi kerak.

Muammolarni aniqlash va ularni joriy sozlamalar (masalan, kesish kengligi) bilan bog'lash uchun sizning overlok chizig'ingizga yaqin masofadan diqqat bilan qarang. Kamchiliklarning aksariyati bir yoki ikkita sozlash diskining kichik burilishiga olib kelishi mumkin.

### **Matoning kesish kengligini sozlash**



72-rasm. Matoning kesish kengligini sozlash

Pichoq matoning juda ko'p qismini kesganda, halqalar matoning chetidan chiqib ketadi. Matoning kesish kengligi juda tor

### **Igna ipining kuchlanishi**

Tikuvlarning tortilishi: igna ipining kuchlanishini kamaytiring

Tikuv chizig'i bo'ylab aylanadigan "narvon": igna ipining kuchlanishini oshiring



73-rasm. Igna ipining kuchlanishi sozlash

### **Chalishtirgich iplarining kuchlanishi**

Halqalar bir tomonga siljiydi: bu tomonda chalishtirgich ipini kuchlanishini kamaytirish kerak.



74-rasm. Chalishtirgich iplarining kuchlanishi sozlash

## Iplarning noto'g'ri chalishishi



75-rasm. Iplarning noto'g'ri chalishishi sozlash

Matoning chetida halqalarning notejisligi : har bir ipning kuchlanish diskiga to'g'ri joylashtirilganligini tekshiring, aks holda hech qanday sozlash tikuv muvozanatlarini yaratishga yordam bermaydi.

Biriktirish - yo'r mash mashinalarida bahyaqator sifati ignalarning, biriktiruvchi, chap va o'ng chalishtirgichlarning, chap chalishtirgich ip uzatkich- ning o'zaro holatigabog'liq bo'ladi. Igna yuritgichning yuqori holatida ignalar igna plastinasining yuqori sirtidan 9,2 mm masofada joylashishi kerak. Bunda igna yuritgich vtulkasi va sterjen flansi orasidagi oraliq 1,5 mm ga teng bo'lishi kerak.

Yo'r mash ignasining pastki chekka holatida chap chalishtirgichning burunchasi igna harakat chizig'idan 4 mm masofada joylashishi kerak. (76-rasm). Chapki chekka holatida o'ng chalishtirgichning uchi o'ng igna sirtidan 4,5 mm masofada joylashishi zarur. Chapki chekka holatida biriktiruvchi chalishtirgichning burunchasi ignadan 3 mm masofadajoylashishi lozim.

Ignalar yuqori chekka holatida igna plastinasining pastki sirti va biriktiruvchi chalishtirgich orasidagi oraliq 1-1,5 mm ga teng bo'lishi lozim. Chap va o'ng chalishtirgichlarning o'zaro kesishishi paytida ular shunday joylashgan bo'lishi kerakki, unda chap chalishtirgich qulinqhasi chetidan o'ng chalishtirgich konturigacha bo'lgan masofa 0,2-0,3 mm chegarasida bo'lsin(39-rasm.).




76-rasm.Chap va o'ng chalishtirgichning o'zaro joylashishi

Ip uzatilishi va banya tortilishining o'z vaqtida amalga oshishi ignalar igna plastinasining yuqori sirtidan 2,5-3 mm ko'tarilgan sharoitda ta'minlanadi. Ip uzatgich shunday o'rnatilishi kerakki, uning kichik radiusli qulochchali sirti yuqorida bo'lsin. Mashinada bajariladigan operatsiyalarning sifati igna va iplarning to'g'ri tanlanishi, shuningdek, ustki va ostki iplarning to'g'ri o'tkazilishiga bog'liq bo'ladi. Ignalar silindrik, konussimon va pog'onali ster-jenlar bilan tayyorlanadi. Konussimon va pog'onali sterjenlar bilan tayyorlan-gan ignalar sanchilish paytida kam qiziydi, bu esa sintetik gazlamalarni sintetik iplar bilan tikishda juda muhim. Gazlamalarni biriktirish uchun uchi me'yorda aylanasimon charxlangan ignalar, trikotaj mahsulotlarini biriktirish uchun uchi radiusli charxlangan ignalar, natural charimni biriktirish uchun uchi me'yorida ovalsimon charxlangan ignalar tavsiya etiladi. Yupqa gazlamalar uchun ingichka igna va iplarni tanlash zarur. Birlashtiriladigan materiallar qatlami qalinligi oshadigan operatsiyalarda igna raqami oshirilgan bo'lishi kerak, ip raqami esa o'zgartirilmaydi.

Ignna va iplarni o'zaro tanlash igna qulochchasing kengligi va ip diametri bilan bog'liq. Ipni me'yorida o'tishi uchun igna qulochchasing kengligi ip diametridan katta bo'lishi kerak. Masalan, 90-raqamli igna qulochchasing kengligi 0,34 mm ga teng, 50-raqamli ipning diametri esa 22 mm ga teng, ya'ni igna qulochchasing diametri ip diametridan 0,12 mm ga katta. Bu igna qulochchasi kengligi va ip diametrining me'yoridagi o'zaro nisbatidir.

**Ignna mexanizmini sozlash (77 -rasm).** Ignalar ilgarilanma-qaytma harakatni mashina bosh validan sharsimon sharnir orqali shatun 1 dan


unga sharnirsimon bog'langan koromislo 2, igna vali 3 dan oladi. Ignalining chap qismiga koromislo 4 kiydirilgan bo'lib, u bolt 5 yordamida mahkamlangan. Koromislo 4 ning ikkinchi tomoniga ignayuritgich 6 ning yuqorigi qismi kiydirilgan. Ignayuritgichning ostki qismiga vint yordamida igna tutgich 7 mahkamlangan bo'lib, unga o'ng va chap ignalar 8 va 9 o'matilgan.



77 -rasm.Igna mexanizmini sozlash

Bosh valning tirsagi ta'sirida shatun 1 ko'tarilsa, koromislolar 2 va 4 bilan val 3 soat miliga qarshi yo'nalishda burilib, igna yuritgichi 6 bilan ignalarni tushiradi. Ignalarning chalishtirgichlarga nisbatan holati igna tutgich vintlari bo'shatilib, uni igna yuritgichiga nisbatan vertikal surilib rostlanadi.


**Pichoq mexanizmi** (78-rasm). Qo'zg'aluvchan pichoqga vertikal harakatni bosh valdan shatun 3 va unga sharnirsimon bog'langan qo'shaloq koromislo 4 dan oladi. Qo'zg'almas pichoq 2 mashina platformasiga vint 4 yordamida o'matilgan pichoq tutgich 5 ga mahkamlangan. Qo'zg'aluvchan pichoq 1 ni chiqarib olish uchun richag 6 yuqorigi holatiga keltiriladi va vint 3 bo'shatiladi. Pichoq 1 ni o'matishda uning kesuvchi qirrasi qo'zg'almas pichoq 2 o'tkirlangan qirrasiga to'g'ri kelishi kerak . Vint 3 plastina yordamida ko'tariladi. Qo'zg'almas pichoq 2 ni olish uchun vint 4 bo'shatiladi . Uni o'matishda esa ort tomonidan kolodka 5 ga kiritiladi .



78-rasm.Pichoq mexanizmini sozlash

**Materialni surish mexanizmi** (79-rasm). Mexanizmidagi old va orqa reykalar ellipssimon traektoriya bo'ylab harakatni gorizontal va vertikal surish vallaridan oladi.

Bosh valga ekstsentrifik 1 o'rnatilgan bo'lib, unga shatun 2 ning ustki kallagi ignali podshipnik yordamida kiydirilgan. Shatun 2 ning ikkinchi kallagi koromislo 3 bilan sharnirsimon bog'langan bo'lib, koromisloning ikkinchi tomoni val 4 ga kiydirilgan va vint 5yordamida mahkamlangan. Ekstsentrifik 1 ta'sirida shatun 2 orqali koromislo 3, val 4 bilan birgalikda buralma-qaytma harakatlanib tishli reykalar 6 va 7 ni gorizontal tekislikda bo'ylama harakatini ta'minlaydi. Tishli reykalar 6 va 7 vertikal harakatni val 4 ga o'rnatilgan koromislo 8 va unga bog'langan richag 9 dan oladi. Richag 9 ning ichki qismiga polzun o'rnatilgan bo'lib, u richag 10 ning ko'tarilib tushishini ta'minlaydi. Tishli reykalar 6 va 7 ni balandligini o'zgartirish uchun vint-11 bo'shatiladi.




79-rasm. Materialni surish mexanizmi

#### Tepkining materialga nisbatan bosimini sozlash (80-rasm).

Tepki 1 vint 2 yordamida tepki tutgich 3 ga mahkamlanadi .

Tepki tutgichning ustki qismiga sterjen o'rnatilgan bo'lib , unga prujina 4

kiydirilgan . Tepkining materialga nisbatan bosimi sozlovchi vint 5 orqali rostlanadi



80-rasm. Tepkining materialga nisbatan bosimini sozlash

#### Takrorlash uchun savollar

1. Ikki va uch ipli zanjirsimon yo'rma baxyaqator asosan qaysi ishlarni bajarishda qo'llaniladi?
2. Uch ipli zanjirsimon yo'rma baxya hosil bo'lish jarayonida qaysi ishchi organlar ishtirok etadi va har birining vazifasi nimada?
3. Siniq baxyaqator hosil bo'lish xususiyatlari.
4. «Minerva» (Chexiya) firmasining 335 rusumli tikuv mashinasi?
5. Tishli reykaning igna plastiksiga nisbatan holati qanday rostlanadi.
6. Ignan va chalishtirgichning igna plastinkasiga nisbatan joylashishi.

## **6.7. MAISHIY TIKUV MASHINASINI SOZLASH**


CHayka tikuv mashinasining mexanizmlarini sozlash.chayka kabi mashinalarning asosiy nosozligi, zigzag va uning asosida bir necha turdag'i bezak baxiyaqator bajarganda pastki va yuqori iplarning bo'sh bo'lishi, shuningdek moki va igna ipning uzilishi. aynan shu nosozliklar va ulami bartaraf etish usullarini ko'rib chiqamiz.

Ko'pincha ipning uzilishi chayka kabi tikuv mashinalarida uchraydi. Ipning uzilishiga olib keladigan birinchi sabab - o'tmas ignaning egilgan uchi, bu harakat paytida ipni uzib tashlaydi. Kattalashtirish vositasi yordamida igna uchining holati juda aniq ko'rindi.Ko'rsatmalarga muvofiq tikuv mashinalari uchun mo'ljallangan ignalardan foydalaning.

### **Igna plastinkasi o'rtasiga ignani o'rnatish**

Igna ipining uzilishi ko'plab nosozliklarning natijasi bo'lishi mumkin, masalan, agar igna plastinkasining teshikka kirganda, igna unga tegsa, ip vaqtı-vaqtı bilan uziladi. To'g'ri tikishni amalga oshirayotganda, igna plastinkasining teshigi o'rtasiga, yon tomonlaridan teng masofada joylashgan bo'lishi kerak va zigzag operatsiyasini bajarayotganda ignaning L holati R bilan bir xil bo'lishi kerak.Igna plastinka o'rtasiga ignani o'matilishi, dastgohning yuqori qismida ikkita vint bilan mahkamlangan igna panjarasini siljitish yo'li bilan amalga oshiriladi (zigzag baxiya holatiga aylantiriring va siz ushbu o'matishni ko'rasiz).

Ushbu vintlarni bo'shatib (to'g'ri chiziqli baxiyaga o'matib) ignani o'rtada (igna panjarasini siljitib) o'mating. Shundan so'ng, ignaning holatini chap va o'ngga o'tqazib tekshiring. Igna kirishi (maksimal zigzag kengligi bilan), o'ng va chap tomonidan markazdan teng ravishda olib tashlanadi



81-rasm. Igna plastinka o'rtasiga ignani o'rnatilishi

#### **Ignaning vertikal holatini sozlash**

Ignaning ko'ndalang joylashishi, ikkita vint bilan plastinka ustiga o'rnatilgan sterj va igna plastinkasini kronshteynga qarshi bosgan holda tartibga solinadi.



82-rasm Ignaning vertikal holatini sozlash

#### **Igna yuritgichni sozlash**

Ign a oldinga siljishi uning sinishiga sabab bo'ladi va tikuvchidan uzoqlashish esa halqani ilolmasligiga sabab bo'ladi.



### 83-rasm Igna yuritgichni sozlash


Qo'pol matolarni tikishda, ba'zida igna, igna ipi bilan yuqoriga ko'tariladi va baxiyaqatorda bo'shliqlar paydo bo'ladi. Ushbu holatda ignayuritgichni vint lni bo'shatib pastga yoki yuqoriga ko'tarib o'rnatish mumkin

### Mokining holatini sozlash

Tikuv mashinasida mokining noto'g'ri joylashishi ipning uzilishiga va boshqa chiziqlardagi kamchiliklarning, shu jumladan bo'shliqlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bo'shliqlar, odatda, igna bilan uchrashish paytida mokining noto'g'ri joylashishi tufayli paydo bo'ladi

- moki buruni hosil bo'lgan halqani ilib ketmaydi va o'tish joyi hosil bo'ladi. Buning sababi boshqa omillar bo'lishi mumkin.

Ishga tushadigan burun va ignaning yig'ilish holatini to'g'ri sozlash uchun, moking joylashishini to'g'rakash kerak. Uni mahkam ushlab turadigan ikkita boltni bo'shatib igna bilan moki orasidagi tirkishni o'rnatish kerak



84-rasm Mokining holatini sozlash

#### **Igna bilan moki orasidagi tirkishni o'rnatish**

Igna va moki bir-biriga to'g'ri munosabatda bo'lishi kerak, shunda ish silliq va chiroylı baxiyaqtordan iborat bo'ladi. Igna pastki qismdan yuqoriga 1.8 mm chiqqanda moki buruni normal sharoitda igna bo'yinchasiga mos keladi.



85 - rasm. Igna bilan moki orasidagi tirkishni o'rnatish

Burun va igna ko'zi bilan uchrashish paytida quyidagi parametrlarga rioya qilish kerak: burun va igna ko'zi orasidagi bo'shliq taxminan 0,15 mm; igna pastki holatidan 1,8 - 2,0 mm balandlikka tushganda, naycha igna ko'zidan yuqorida 1 mm ga, kamida, lekin 3 mm dan oshmasligi kerak. Aytgancha, juda muhim nuqta, ignani pastdan ko'tarish (1,8 - 2,0 mm). Aytgancha, juda muhim nuqta, ignani pastdan ko'tarish (1,8 - 2,0 mm). Boshqa parametrga ega bo'lish va uni boshqa tarkibiy qismlarga bo'lish kerak. Moki burni ignadan ipni tortib olish uchun igna avval pastga tushishi kerak, so'ng biroz ko'tarilib, moki buruni bilan uchrashishi kerak. Ignanining holati, shuningdek, ignayuritgich bilan tartibga solinadi



### Friktsion shaybani o'matish.

Ba'zan siz maxovikni mashinadan olishingiz kerak. Ushbu yig'ilishda faqat uchta qisim mavjud, friktsion shayba ustunchalarini bosh val uyasiga kiritish mantiqan to'g'ri bo'ladi, shuning uchun ular buni qilishadi. Natijada, mashina harakatsiz aylana boshlaydi. aslida friktsion shayba ustunchalarini mashina (val) tomoniga emas tashqi tomonga qaratish kerak.

Bundan tashqari, ular "ikkita versiyada" yetkazib berilishi mumkin, bittasini tanlang, unda cheklovchi vint moxavikning mahkamlashiga xalaqit bermaydi.



85 – rasm. Friktsion shaybani o'matish

## GLOSSARIY

Avtomat (yunoncha automatos – o'zi harakatlanuvchi) – energiya, materiallar va axborotlarni olish, o'zgartirish, uzatish va taqsimlash (foydalanish) jarayonlaridagi barcha operatsiyalarni berilgan dastur bo'yicha odam ishtirokisiz bajaradigan qurilma (yoki qurilmalar majmui).

Avtomatik boshqarish – ob'ektni boshqarish jarayoni; bunda berilgan boshqarish maqsadiga erishishni ta'minlaydigan operatsiyalarni odam ishtirokisiz ishlaydigan sistema avvaldan berilgan algoritmga muvofiq bajaradi. Avtomatik boshqaruv avtomatik boshqarish tizimlarida qo'llaniladi.

Agregat (lotincha aggerego – ulayman) mashinaning to'la o'zaro almashinadigan va texnologik jarayonda ma'lum vazifani bajaradigan yiriklashgan, bixillashtirilgan elementi (masalan, elektr yuritma, nasos); 2) birgalikda ishlaydigan bir qancha mashinalarning mexanik birikmasi.

Alyuminiy – kumush rang – oq metall bo'lib, yengil va bolg'alanuvchan, korroziyaga chidamlidir. Alyuminiy yuqori elektr o'tkazuvchanlikka va issiqlik o'tkazuvchanlikka ega. Mashina detallarini tayyorlash uchun asosan uning qotishmalari bo'lgan dyuralyuminiy va siluninlardan foydalilanadi.

Arqoq - to'qimachilikda gazlamaning ko'ndalang iplari; odatda gazlamaning bo'ylama iplari (tana)ga perpendikulyar joylashib, ular bilan o'rilibadi. Ba'zi gazlamalarda arqoq tanaga nisbatan ma'lum burchak ostida joylashishi mumkin.

Asbotekstolit – asbestli to'ldirgich asosidagi plastmassa.

Asbovoloknit – tolador asbest bilan to'ldirilgan.

Aerodinamik shovqin – gazsimon muhitlarning katta tezlikdagi harakati paytida, masalan pnevmatik presslar ishlaganda paydo bo'ladi.

Batan (fransuzcha battant – uruvchi) – to'quv stanogining asosiy mexanizmlaridan, moki tashlab o'tgan ipni gazlama chetiga urish va arqoq ipini gazlamaga kirituvchi mokini yo'naltirish uchun xizmat qiladi.

Bolg'alahsh – metallarga bosim bilan ishlov berish usullaridan biri; bunda bolg'a qizdirilgan tayyorlanmagan ko'p marta uzlukli zarbiy ta'sir etib, uni deformatsiyalaydi

va u asta-sekin ma'lum shakl va o'lchamni oladi. Cho'ktirish, cho'zish, tekislash, yoypish, teshish bolg'alashdagi asosiy operatsiyalaridir.

Bronza(italyancha bronzo) – mis asosidagi qotishma; asosiy qo'shimchalari rux va nikeldan tashqari qalay, alyuminiy, berilliyl, kremniy, qo'rg'oshin, xrom yoki boshqa elementlardan iborat.

Asosiy qo'shimchasi qanday element ekanligiga qarab, bronzalar qalayli, alyuminiyli, berilliyl va boshqalar deb ataladi. Mustahkamligi, plastikligi, korroziyaga bardoshligi, antifriktsion xossalari va boshqalar qimmatli sifatlari yuqori bo'lgan turli bronzalar texnikaning ko'p sohalarida ishlatalidi.

Detal – bu yig'ish operatsiyalarini qo'llamasdan bir jinsli materialdan tayyorlangan mahsulotdir

Dinamik mustahkamlik - materialning shaklini buzmagan yoki o'zgartirmagan holda dinamik yuklamalar ta'siriga qarshilik ko'rsatish qobiliyat.

Dinamik yuklama – vaqt bo'yicha uning qiymati, yo'naliishi va qo'yilish nuqtasining o'zgarishini xarakterlovchi va konstruktsiya elementlarida inertsiya kuchlarini keltirib chiqaruvchi yuklama.

Zarbiy shovqin – ba'zi texnologik jarayonlarda, masalan, kesish presslarida ishlagan paytda paydo bo'ladi. Dyuralyuminiy – bu alyuminiyning mis, magniy va marganets bilan qotishmasidir. Dyuralyuminiydan mahsulotlar qoliplash, prokatlash va bolg'lash kabi bosim usullari bilan tayyorlanadi.

Yig'ish bazasi – haqiqatda mahsulotning boshqa detallari mo'ljallanadigan sirtlar, chiziqlar yoki nuqtalarning tomoni.

Kalibrangan po'lat – ma'lum qisishlar bilan sovuqlayin sudrab cho'zilgan (kiryalangan), issiqlayin jo'valangan po'lat. Kalibrangan po'lat shaklining aniq o'lchamlari, silliq sirti, yuqori mexanik xossalari bilan farqlanadi. Odatda doiraviy, ba'zida esa kvadrat, oltiburchakli va boshqa ko'rinishdagi kesimlarga ega bo'lib, 6 – 15 metr uzunlikka ega.

Konstruktorlik bazasi – konstruktoring hisobi bo'yicha ularga nisbatan mahsulotning boshqa detallari mo'ljallanadigan sirtlar, chiziqlar va nuqtalarning to'plami.

Koromislo – richagli mexanizm zvenosi; qo'zg'almas o'q atrofida faqat to'liqmas burila oladigan ikki yelkali richag.

Korroziya (lotincha corroдо – kemiraman). Metallarda korroziya – metallarning tashqi muhit bilan kimyoviy yoki elektrokimyoviy ta'sirlashuvi natijasida yemirilishi Korroziya quyidagicha sinflanadi: Korrozion yemirilishning geometrik xarakteri bo'yicha (masalan, sirt ostidan, kristallararo, u yer – bu yeridan), metallning muhit bilan ta'sirlashuv xarakteri bo'yicha – elektr toki o'tkazmaydigan muhitlarda boradigan elektrokimyoviy; korrozion muhit xili bo'yicha (masalan, atmosferada, gazda); metall korrozion muhit ta'siri bilan bir vaqtida uchraydigan qo'shimcha ta'sir xarakteri bo'yicha (masalan, kuchlanish ostidagi korroziya, ishqalanishdagi korroziya, kontakt korroziya va boshqalar). Korroziya natijasida buyumlar o'z xossalarni materialning to'laligiga qadar yotadi. Korroziyaning oldini olish uchun metallga korroziyabardosh komponentlar qo'shiladi (zanglamaydigan, korroziyabardosh maxsus po'latlari shunday olinadi), metall sirtiga boshqa metallar asosidagi himoya qoplamlari beriladi (xromlash, nikellash va boshqalar), buyumlar bo'yaladi va boshqalar.

Krivoship – krivoshipli mexanizmning qo'zg'almas o'q atrofida to'liq (3600) aylanadigan zvenosi. Silindrik chiqiq-shipga ega; shipning o'qi krivoshipning aylanish o'qiga nisbatan o'zgarmas yoki rostlanuvchan masofaga siljigan bo'ladi Krivoship tirsakli val ko'rinishida tayyorlanadi. Kritik kuch, eyler kuchi – siquvchi kuchning eng katta qiymati; bunda siqilgan elastik jism (uzun sterjen, yupqa plastina va boshqalar) dastlabki muvozanat shaklini saqlaydi. Kritik kuchni biroz oshirilsa, jism ancha deformatsiyalanadi; bunda jism boshqa (bukilgan) elastik muvozanat shaklga o'tadi.

Kulachok – kulachokli mexanizm detali; sirpanma sirtli plastina, disk yoki silindr ko'rinishida ma'lum shaklli qilib tayyorlanadi. Kulachok harakatlanganda o'ziga tutash detallar (turtgich yoki shtanga) ga tezligi ma'lum qonun bo'yicha o'zgaradigan harakat uzatadi.

Kulachokli mexanizm – o'zgaruvchan egri chiziqli sirtga ega bo'llgan qo'zg'aluvchan

zvenosi (kulachok) boshqa qo'zg'aluvchan zveno (turtgich yoki shtanga) bilan o'zaro ta'sirlashadigan mexanizm; bunda zvenolar oliv kinematik juft hosil qiladi.

Kulisa (fransuzcha couler – sirpanmoq, yugurmoq) – kulisali mexanizmning qo'zg'aluvchan zvenosi; boshqa qo'zg'aluvchan zveno bilan ilgarilama juft hosil qiladi. Kulisa ariqchasi bo'yicha sirpanadigan polzun ba'zan tosh deb ataladi. Kulisaning aylanma, tebranma, to'g'ri chiziq bo'yicha harakatlanuvchi xillari bor.

Kulisali mexanizm – tarkibida kulisa bo'lgan quyi kinematik juftli mexanizm. Sinusli va tangensli kulisali mexanizm ishlataladi. Bu mexanizmlarda kulisa krivoship burilish burchagini sinusi yoki tangensiga proporsional siljiydi.

Latun(nemischa latun – jez) – mis bilan rux (50 % gacha) dan iborat qotishma. Ko'pincha, alyuminiy, temir, marganets, nikel, qo'rg'oshin va boshqa elementlar (umumiy yig'indisi 10 % gacha) ham qo'shiladi. Latun – bosim ostida yaxshi ishlov beriladigan, ancha mustahkam, plastikligi yuqori va korroziyabardosh qotishma.

Legirlangan po'lat – odatdagagi aralashmalar (uglerod, kremniy, marganets, oltingugurt, fosfor) dan tashqari, legirlovchi elementlar (kremniy, marganets) odatdagidan ko'ra ko'proq qo'shiladigan po'lat. Legirlovchi elementlar, odatda, erigan holatdagi po'latga ferro qotishmalar yoki ligoturalar ko'rinishida kiritiladi.

Legirlash (nemischa legieren – eritmoq, lotincha ligo – bog'layman, biriktiraman) – metall qotishmalar tarkibiga ularning tuzilishini o'zgartirish, ularga muayyan fizik, kimyoiy yoki mexanik xossalari berish uchun legirlovchi elementlar kiritish. Legirlovchi qo'shimchalar, odatda, erigan metallga qo'shiladi.

Mashina – energiya, materiallar va axborotnii o'zgartirishda harakat bajaruvchi mexanik qurilma.

Maxovik, zalvor massa – zalvor gardishli g'ildirak. Notejis yuklanishli mashina valining bir tekisda aylanishini ta'minlash uchun o'rnataladi. Asosiy vali notejis aylantirish momentiga ega bo'lgan porshenli yuritmalar, kompressorlar, nasoslar va boshqa mashinalarida mexanik energiyani to'plovchi vosita sifatida ishlataladi. Maxovik yuritma validagi yuklanishni tekislaydi, kichikroq quvvatdagi yuritmadan foydalanishga imkon beradi.

Mashinaning texnologikligi – qisqa muddatlarda, eng kam mehnat va material sarflab, ishlab chiqarishning belgilangan shartlarida mashinani ishlab chiqarish imkonini beruvchi konstruktiv xossalari.

Mexanizm – bir yoki bir necha qattiq jism (zveno) harakatini boshqa qattiq jismlarning talab etiladigan harakatiga aylantirib beruvchi jismlar sistemasi. Tuzilish-konstruktiv alomatlariga ko'ra mexanizmning sharnirligi (richagli), kulachokli, tishli, ponasimon, vintli, egiluvchan zvenoli, gidravlik, pnevmatik va boshqa xillari mavjud. Mexanizmlar bir yoki bir necha erkinlik darajasiga ega bo'lishi mumkin.

Mexanik shovqin – mashinalarning massalari muvozanatlasmagan alohida uzel va detallarning harakati natijasida paydo bo'ladi.

Metallning toliqishi – ko'p martalab (davriy) deformatsiyalanishi natijasida metall holatinining o'zgarishi bo'lib, uning yemirilishini tezlashtiradi. Toliqishga qarshilik chidamlilik chegarasi bilan xarakterlanadi.

Nutromer – buyumlarning ichki chiziqli o'lchamlari o'lchanadigan asbob Konstruktsiyasiga ko'ra mikrometrik va indikatorli bo'ladi. O'lhash chegarasi 0,2 mm dan 10 m gacha.

Oquvchanlik – materialning elastik holatdan plastik holatga o'tishidir.

Oquvchanlik chegarasi – deformatsiyalanishning elastik va plastik zonalari orasidagi chegarani belgilaydi va plastik materiallar mustahkamligini baholashning asosiy xarakteristikasi bo'lib hisoblanadi.

Pilik mashinası (rovnnichnaya mashina) – yigiruv korxonalarida pilik tayyorlovchi mashina. Pilik mashinasining asosiy qismi – cho'zuvchi asbob va pishitish-kalavalash mexanizmidan iborat. Pilik mashinasida olingan pilik ip olishda asosiy xom -ashyo hisoblanadi.

Pilta (lenta) (nemischa linte, lotincha linteus – polotnodan, zig'irdan qilingan) – yigiruv korxonalaridagi yarimfabrikat; piltada yarimfabrikatlar ozmi-ko'pmi to'g'rilangan, tekislangan va parallel joylashgan bo'ladi. Pilta titish, pilta, tarash mashinalarida olinadi.

Plastik deformatsiya – kuchlar ta'sirida material tutashligi makroskopik buzilmagan

qoldiq deformatsiya. Materiallarning plastik deformatsiyaga moyilligi – konstruktsion materiallarning ulardan turli buyumlar tayyorlashga imkon beruvchi eng muhim xossalardan biri.

Podshipnik – val yoki aylanuvchi o'q tayanchining bir qismi; valdan radial, o'q va radial o'q yo'nalishida tushadigan yuklanishlarni qabul qilib, uning erkin aylanishini ta'minlaydi.

Podshipnik – mashina, mexanizm va boshqa qurilmalarning eng ko'p ishlataladigan detali. Ishlash prinsiplariga ko'ra sirpanish va dumalash podshipniklariga bo'ladi. Sirpanish podshipniklarida val bo'yni bevosita tayanch sirtida sirpanadi, dumalash podshipniklarida esa aylanuvchi detalning sirti bilan tayanch sirti orasida sharlar yoki roliklar joylashadi.

Polzun – krivoship-polzunli mexanizmning to'g'ri chiziqli yo'naltirgichlarda ilgarilama-qaytma harakat qiluvchi yoki yoysimon yo'naltirgichlarda tebranuvchi va shatun bilan sharmirli birlashtirilgan detali. Podshipnik bo'ylama kuchlarni shatunga, ko'ndalang kuchlarni esa yo'naltirgichlarga uzatadi.

Prokat – issiqlayin va sovuqlayin prokatlash orqali olinadigan metall mahsulotidir (listlar, tasmalar, reqlar, balkalar, quvurlar va h o ).

Prokatlash - prokatlanadigan quyma yoki tayyorlanmaning kesimini kichraytirish va unga talab etilgan shaklni berish maqsadida prokatlash stanogining aylanuvchi valiklari orasida qisish yo'li bilan metallga bosim ostida ishlov berish.

Po'lat – bu uglerod bilan temirning qotishmasi bo'lib, uning tarkibida 2 % gacha uglerod mavjud. Temir va ugleroddan tashqari po'lat tarkibida kremniy, marganets, oltingugurt, fosfor va boshqa elementlarning ham aralashmasi mavjud.

Rezonans (lotincha resono – aks sado beraman, javob beraman) – sistemaga ta'sir etuvchi tashqi kuch chastotasining xususiy tebranishlar chastotasidan birortasiga mos kelganda sistemaning barqaror majburiy tebranishlari amplitudasi A ning keskin ortishi.

Silumin – alyuminiyning kremniy bilan qotishmasidir. Siluminlar yuqori quyish xossalariiga, ya'ni kam cho'kish, yaxshi suyuq oquvchanlik va alyuminiya nisbatan

yuqori mustahkamlikka ega.

Biroq bu xossalarni olish uchun qotishmalarni qotishma massasidan 0,1 % miqdorda metall natriysi bilan modifikasiyalash zarur.

Sinxronlash (yunoncha synchronos – bir vaqtli) – ikki yoki undan ortiq jarayonni sinxronlikka keltirish; ya'ni jarayonning bir xil yoki mos elementlarini faza bo'yicha o'zgartirmay siljitib yoki bir vaqtida o'tishiga keltirish. Davriy jarayonlarni sinxronlash o'zaro muvofiqlikka keltirib, masalan, ularning davr (chastota) larini tenglab yoki karralikka keltirib va ulaming boshlang'ich fazalari o'rtasida doimiy moslikni o'matib erishiladi.

Statik mustahkamlik – materialning shaklini buzmagan yoki o'zgartirmagan holda statik yuklamalar ta'siriga qarshilik ko'rsatish qobiliyat.

Statik yuklama – qiymati, yo'nalishi va qo'yilish nuqtasi juda kam o'zgaradigan yuklama. Hisoblashda ular vaqtidan bog'liq bo'lмагan holda qabul qilinadi va shuning uchun bunday yuklamalar tashlab yuboriladi va inertsiya kuchlari bilan shartlanadi. Mashinaning xususiy og'irligini statik yuklamaga misol qilib ko'rsatish mumkin. Statik shovqin – 16 dan 20000 Gts gacha diapazonda kuch va chastotasi bo'yicha turli xildagi tovushlarning tartibsiz harakati.

Tanda- to'quvchilikda gazlama bo'yicha ketadigan parallel iplar, gazlama to'qish jarayonida tanda iplari odatda o'zlariga tik joylashgan arqoq iplari bilan o'rildi.

Taxometr (yunoncha tachys – jadallik, tezkor va ... metr) – mashina va mexanizmlar detallarining aylanish chastotasi (burchak tezligi)ni o'lchaydigan asbob. Taxometrning magnit, vibratsion, integrallovchi soat, stroboskopik, integrallovchi elektron, magnit induksion, magnit elektrik, chastota impulsli, ferrodinamik, elektron-hisoblovchi (raqamli), pnevmatik va boshqa xillari bor. Taxometrning o'lchash chegaralari 0 dan 1000000 ayl?min gacha. Ish diapazoni chegarasida ruxsat etiladigan xatolik  $\pm 0,05$  dan  $\pm 4\%$  gacha. Tebranishlar chastotasi – davriy tebranishlarning miqdoriy xarakteristikasi bo'lib, tebranishlar sikli sonining ularni amalga oshishi vaqtiga nisbati bilan aniqlanadi. Tembr – inson, musiqa asbobi va boshqalar tomonidan chiqariladigan tovush sifatining bahosi.

Tekstolit – (lat. *textus* – gazlama, grek. *lithos* - tosh) – ip – gazlama asosidagi qatlamlı plastik (shifon, bo'z va boshqalar) bo'lib, sintetik bog'lovchilar bilan shimdirlilgan. Tekstolitlist, sterjen, quvur ko'rinishida ishlab chiqariladi. Shesternyalar, podshipniklarning ichqo'ymlari (vkladish) va boshqalar uchun qo'llaniladi.

Tenzodatchik (lotincha *tensus* – zo'riqqan, taranglangan va datchik) - qattiq jismlarning deformatsiyalanishini elektr signallarga aylantirib beradigan qurilma; elektr tenzometrining tarkibiy qismi. Qarshilik tenzodatchigi (tenzorezistor) ning ishi metall sim (yoki folga – zar qog'oz) ning deformatsiyalanganda (cho'zilganda yoki siqilganda) o'z elektr qarshiligidini o'zgartirish xossasiga asoslangan. Tuzilish jihatidan qarshilik tenzodatchigi sim (konstantan, nikel va molibden asosidagi qotishmalar va boshqalar) yoki folga (ba'zan yarim o'tkazgich) panjarasidan iborat bo'lib, sinalayotgan detal sirtiga yelimlab yopishtiriladi. Yelimlab yopishtirilmaydigan tenzodatchiklar ham bor. Ularning afzalligi: ko'ndalang tez sezgirligi yo'qligi va gisterezisi kichikligi.

Texnologik baza berilgan operatsiyada ishlov berilayotgan sirt mo'ljallanadigan sirtlar to'plami.

Texnologik jarayon – mahsulotlarni vaqt va fazo bo'yicha rejali, ma'lum ketma-ketlikda ishlab chiqarish jarayonining bir qismi yoki texnologik operatsiyalar majmui. Masalan, payvandlashdagi texnologik jarayon detallarni tayyorlash, o'mnatish, payvandlash va payvand uzelini tozalashdan iborat bo'lishi mumkin. Texnologik jarayon texnologik hujjatlar tarkibiga kiruvchi texnologik yoki marshrut xaritalarida bayon qilinadi. Ma'lum xildagi buyumlar uchun namunaviy yoki guruhli texnologik jarayonlar ishlab chiqiladi.

Texnologiya (yunoncha *techue* – san'at, mahorat, uddalash va ... logiya) – ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulot olish uchun ishlatalidigan xom ashyo, material yoki yarim fabrikatlarning holati, xossasi va shakllarini o'zgartirish, ularga ishlov berish, tayyorlash usullari majmui; xom -ashyo, material va yarim fabrikatlarga mos ishlab chiqarish qurollari ta'sir etish usullari haqidagi fan. Har bir ishlab chiqarish

tarmoqlari uchun alohida

texnologiya ishlab chiqiladi (mashinasozlik texnologiyasi, asbobsuzlik texnologiyasi, oziq-ovqat texnologiyasi, yengil sanoat texnologiyasi va boshqalar).

Urchuq (vereteno) – patron, naycha, g'altak va boshqalar kiydiriladigan aylanuvchi sterjen; piltani, kalava ip va iplarni pishitish hamda ma'lum o'lcham va shaklda o'ramlar hosil qilishga mo'ljallangan pilta, yigirish, yigirish-pishitish, pishitish va o'rash mashinalarining asosiy ish organlari. Friktsion uzatma – vallarga o'matilib, bir-biriga siqiladigan disk, silindr yoki konuslar

orasida hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi yordamida bir valdan boshqasiga aylanma harakat uzatadigan mexanik uzatma. Friktsion uzatma pog'onasiz uzatmalar, friktsion presslar va friktsion bolg'alarda ishlatiladi.

Xrapovikli mexanizm – richagning qaytar-aylanma harakatini oraliq mexanizm yordamida xrapovik (tishli) g'ildirakning faqat bir tomonga uzlukli aylanma harakatiga aylantiradigan tishli mexanizm. Xrapovikli mexanizm ushlab turadigan qurilma (masalan, yuk ko'tarish mashinalarida) sifatida yoki to'xtab-to'xtab bitta yo'nalishda davriy aylanma harakat olishda (masalan, avtomatik liniyalardagi surish mexanizmlari) ishlatiladi.

TSementit, temir karbidi – temir uglerodli qotishmalar fazasi; tarkibida 6,67 % uglerod bo'lgan temir va uglerodning kimyoviy birikmasi Fe<sub>3</sub>C mo'rt va juda qattiq.

TSementlash metallarga ishlov berishda – metall buyumlarga sırtqi qatlamlarini 900-950 °S da uglerod bilan diffuzion to'yintirib kimyoviy-termik ishlov berish (uglerodlash). TSementitlashdan maqsad - qattiqligini, yeyilishga chidamliligini va toliqishga puxtaligini oshirish. TSementitlash gaz aralashmalarida, tuzlar eritilgan vannalarda bajariladi. TSementlangan qatlamdagи uglerodning optimal miqdori 0,8-9 % ni tashkil etadi.

Cho'zish asbobi – to'qimachilik korxonasining yigirish, pilta, pilik va boshqa mashinalarning asosiy ish organlaridan biri; pilik yoki piltaning qalinligini kamaytirishga xizmat qiladi; buning uchun pilik va pilta qovurg'ali metall silindr va ularga bosib turadigan elastik qoplamali valiklar orasidan o'tkaziladi; ayni vaqtida

tolalar to'g'rilanadi va parallellashtiriladi.

Cho'yan – bu tarkibida 2 - 6,7 % uglerod bo'lgan temir qotishmasidir. Cho'yanda temir va ugleroddan tashqari kremniy, marganets, fosfor, oltingugurt va boshqa elementlarning aralashmalar bo'lib, ular cho'yanda boshlang'ich materiallardan o'tadi. Oltingugurt va fosfor zararli aralashmalar bo'lib hisoblanadi.

Sharnirli mexanizm – barcha zvenolari faqat aylanma kinematik juft hosil qiladigan mexanizm. Sharnirli mexanizmnинг tekis va fazoviy xillari bor. Mashina ish organlari zvenolarining doimiy bog'lanishini ta'minlash uchun prujinalar va boshqa qurilmalardan foydalanmay murakkab harakat olish (masalan, kulachokli mexanizmlarda) imkonи borligi, tayyorlashning osonligi, foydali ish koefitsientining yuqoriligi, ko'pga chidamliligi uning afzalligidir.

Shatun – mashina porsheni yoki polzunining ilgarilama harakatini tirsakli val krivoshipining aylanma harakatiga aylantiruvchi krivoship polzunli mexanizmnинг detali.

Ekstsentrifik (lotincha ek – tashqarida va centrum – markaz) – mashinalar detali; aylanish o'qi geometrik o'qqa nisbatan ma'lum masofaga siljigan silindr yoki diskka ekstsentrishet deyiladi. Ba'zan, ekstsentrifik mashinalarda kichik radiusli krivoship o'rnnini ham bosadi.

Quyma – eritilgan metallni quyish orqali olinadigan tayyorlanma yoki detalning quyma shakli. Quymalar kulrang cho'yandan, uglerodli va legirlangan po'latlardan, rangli qotishmalardan tayyorlanadi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016.
2. «Ta'lif to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni. Toshkent. 1992
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent, 1997 y.
4. Olimov Q.T. "Yengil sanoat mashina va apparatlari", «DITAF» Toshkent-2001.,-246 b.
5. Olimov Q.T. «Yengil sanoat mashina va apparatlari» ikkinchi to'ldirilgan nashri, Abdulla Qodiriy nashriyoti.Toshkent-2003.-286 b
6. Olimov Q.T. Tikuvchilik korxonalari jihozlari. «DITAF» Toshkent-2002.
7. Shveynie mashini chelnochnogo stekha : uchebnoe posobie / A. G. Kirillov. – Vitebsk : UO «VGTU», 2017.
8. Frants, V. YA. Oborudovanie shveynogo proizvodstva / V. YA.Frants. – Moskva : Izdatel'skiysentr «Akademiya», 2002. – 448 c.
9. Frants, V. YA. Shveynie mashini : illyustrir. posobie / V. YA.Frants, V. V. Isaev. – 2-ye izd., pererab. i dop. – Moskva : Legprombitizdat, 1986. – 184 s.
10. Olimov Q.T. "Tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarish jihozlari", Toshkent-2010.,-333 b.
11. Q.T.Olimov,R.X. Nurboyev,L.P.Uzoqova,D.X.Bafoyev. Yengil sanoat jixozlarini ta'mirlash va tiklash asoslari. «Akademiya», Toshkent - 2005.,-175 b.
12. X.X.Samarxo'jaev. Tikuv korxonalari asbob-uskunalar. Toshkent, 2000 y.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b>	<b>3</b>
<b>1.Tikuv mashinalari haqida umumly ma'lumotlar</b>	<b>5</b>
1.1Tikuv mashinalarini ishlatish va ta'mirlashda texnika xavfsizligi qoidalari	5
1. 2.Tikuv mashinalarining turlari.	9
1.3.Moki baxyaqator hosil bo'lish jarayoni	13
1.4. Zanjirsimon baxya hosil bo'lish jarayoni	16
1.5.Tikuv mashinalari ishida sodir bo'ladijan nuqsonlar va ularni bartaraf etish yo'llari	21
<b>2. Jihozlarni ta'mirlash texnologiyasi</b>	<b>24</b>
2.1. Jihozlarning rejali-ogohlantirish ta'mir tizimi	28
2.2. Jihozlarni ta'mirlash usullari	31
2.3. Jihozlarni ta'mirlashni rejalashtirish	33
2.4. Jihozlarni ta'mirlashdagi ilg'or usullari	34
<b>3. Mashinalarni bo'laklarga ajratish texnologiyasi</b>	<b>39</b>
3.1. Tikuv mashinalarini qisimlarga ajratish	39
3.2. Detallarni tozalash va yuvish	45
3.3. Jixozlarni yig'ish texnologiyasi	47
<b>4. Gazlamaga muvofiq igna va iplarni tanlash</b>	<b>55</b>
<b>5. Yengil sanoat jihozlarini moylash</b>	<b>60</b>
5.1. Moylash qurilmalari	61
5.2. Moylash materiallari va ularni tanlash	66
<b>6.Tikuv mashinalarining mexanizmlarini sozlashning asosiy prinsiplari</b>	<b>69</b>
6.1. Moki baxyaqator hosil qilib tikish mashinalarini sozlash	71
6.2. Moki baxya hosil qilib tikuvchi ikki ignali LH -1162 -S-5-4B Juki mashinasining mexanizmlarini sozlash	86
6.3. Moki baxya hosil qilib tikuvchi avtomatik privodli DDL-8700-7 Juki mashinasining mexanizmlarini sozlash	93
6.4. Moki baxya hosil qilib tikuvchi GC 672 Typical mashinasining mexanizmlarini sozlash	106
6.5.Siniq baxyaqator hosil qilib tikish mashinalarining mexanizmlarini sozlash	120
6.6. Yo'mash- tikish mashinalarini sozlash	125
6.7. Maishiy tikuv mashinalarini sozlash	134
<b>21.Adabiyotlar</b>	<b>150</b>

I.S.Soliyev

# Yengil sanoat jihozlarini ta'mirlash

O'quv qo'llanma

Муҳаррир: С. Шодиев  
Техник муҳаррир: Т.Латипова  
Саҳифаловчи: С.Ибодуллаева

Нашриёт лицензияси А-1 № 281 11.01. 2016.

Оригинал макетдан босишига рухсат этилди. 14.01.2020 йил.

Бичими 60x84. "Times New Roman" гарн. Офсет қофози.

Босма табоғи 6,75. Адади 100. Буюртма № 432.

"Бухоро вилоят босмахонаси" МЧЖда чоп этилди.

Бухоро шаҳри, И.Мўминов кўчаси, 27-үй.

ISBN978-9943-6219-1-6

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-6219-1-6.

9 789943 621916